

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 809.57-1/-8

BBK: 81.2-7

S – 26

Salimova Nigina Baxtiyorovna

**IQTISODIYOTGA OID MATNLAR TARJIMASINING
O‘ZIGA XOSLIKLARI
(KOREYS VA O‘ZBEK TILIDAGI MATNLAR ASOSIDA)**

5A120201– Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (sharq tillari
bo‘yicha)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ilmiy rahbar:

falsafa fanlari nomzodi, dotsent **Kim V.N.**

Toshkent – 2015

MUNDARIJA

Kirish	3
I bob. Iqtisodiyotga oid matn tarjimasining umumtilshunoslik masalalari bilan bog‘liqligi	10
1.1. Iqtisodiyotga oid matnlar tarjimasining o‘rganilganlik tarixi	10
1.2. Matn va diskurs tushunchasi hamda iqtisodiy diskurs.....	14
1.3. Termin va terminologiya.....	21
1- bob bo‘yicha xulosalar.....	28
II bob. Iqtisodiyotga oid matnlar tarjimasida terminlar masalasi	31
2.1. Iqtisodiy terminlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.....	31
2.2. O‘zbek tilida iqtisodiy terminlar va ularning koreys tiliga tarjimasida leksik birliklarning berilishi.....	35
2.3. Koreys tilida iqtisodiy terminlar va o‘zlashmalar	47
2 - bob bo‘yicha xulosalar.....	57
III bob. Koreys va o‘zbek tilida iqtisodiy matnlarning tarjimadagi murakkabliklari	58
3.1. Iqtisodiy matn va uning tarjima qilish usullari.....	58
3.2. Iqtisodiy matn tarjimasida qisqartma so‘zlar (abbreviaturalar)ning berilishi.....	66
3.3. Iqtisodiyotga oid matnlar tarjimasida adekvatlik va ekvivalentlik masalasi.....	73
3.4. Iqtisodiy matnlarni vositachi til orqali tarjima qilish.....	80
3 - bob bo‘yicha xulosalar.....	87
Xulosa	89
Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro‘yxati	92

KIRISH

Dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Mamlakatimizning yuksak taraqqiyotga erishishida ma'naviy barkamollik bilan bir qatorda iqtisodiy sohadagi yuksaklik ham o'ta muhim sanaladi.

So'nggi paytlarda mamlakatimiz aholisining turli qatlamlari orasida ko'plab kishilarning kichik va o'rta biznes bilan shug'ullana boshlaganligi sababli iqtisodiyotga nisbatan qiziqish ortib bormoqda. Globallashuv jarayoni oqibatida mamlakatimizda "Rejali iqtisodiyot" o'rnini "Bozor iqtisodiyoti" egallab borayotgan xorijiy davlatlar, ayniqsa, Uzoq Sharq mamlakatlari, xususan, Janubiy Koreya Respublikasi bilan iqtisodiy aloqalarning kundan kunga kuchayib borayotgan bir paytda iqtisodiy matnlar va ularni tarjima qilishga ham juda katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asosli ta'kidlaganlaridek, "O'zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi"¹.

Darhaqiqat, mustaqillikdan keyin iqtisodiy sohadagi islohotlar natijasida O'zbekiston bozor iqtisodiyoti sharoitlariga o'tmoqda, jahon hamjamiyati aloqalari tizimiga qo'shilmoqda. Hozirda O'zbekiston jahonning 140 dan ortiq davlatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalar o'rnatgan. Bugungi kunda Rossiya, AQSH, Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy kabi davlatlar O'zbekistonning eng ishonchli hamkorlariga aylangan. Xususan, O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasida 1992-yil mart oyida diplomatik aloqa o'rnatilgandan so'ng Janubiy Koreya O'zbekistonning eng yirik sarmoyaviy sheriklaridan biriga aylandi.

Zero, O'zbekiston taraqqiyot sari intilarkan, xorijiy davlatlar bilan hamkorlik ko'lamini ham kengaytirib boradi. Bu borada O'zbekiston va Janubiy Koreya davlatlari bir-birini qo'llab-quvvatlab, yangidan-yangi shartnomalar va bitimlar imzolab taraqqiyot, tinch va farovon hayot sari birgalikda qadam bosadi.

¹ Karimov I. A. Jahon moliyaviy inqirozi va uni O'zbekiston sharoitida yengish yo'llari. -T., 2008. B. 6.

Mamlakatimizda har yili ikki davlat tadbirkor va ishbilarmonlari o'rtasida davlat ahamiyatiga molik qator taqdimot konferensiyalari, ilmiy seminarlar va xalqaro ko'rgazmalar o'tkazilib kelinmoqda. Bu esa o'z navbatida har ikki tildagi iqtisodiyotga oid matnlar tarjimasi xususiyatlari, iqtisodiy terminlarning muqobil tarjimasi, tarjimada so'z tanlash muammosi kabi masalalar bugungi kunda dolzarblik kasb etadi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqotning obyekti iqtisodiyotga oid matnlar tarjimasi, predmeti esa iqtisodiy matnlar tarjimasidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llaridir.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi o'zbek va koreys tillaridagi iqtisodiy matnlarni tarjima qilishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish va muammolarni tahlil qilishdan iborat.

Yuqorida bayon etilgan maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Iqtisodiy diskursni ko'rib chiqish;
- Iqtisodiy terminlar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;
- O'zbek tilida iqtisodiy terminlar va ularning koreys tiliga tarjimasida leksik birliklarning berilishi masalasini ko'rib chiqish;
- Koreys tilida iqtisodiy terminlar va o'zlashmalarni o'rganish;
- Iqtisodiy matn va uni tarjima qilish usullarini ko'rib chiqish;
- Iqtisodiy matn tarjimasida qisqartma so'zlar (abbreviaturalar)ning berilishi masalalarini yoritish;
- Iqtisodiyotga oid matnlar tarjimasida adekvatlik va ekvivalentlik masalasini ko'rib chiqish;

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Mazkur tadqiqot ishi muammosi o'zbek tilida nazariy jihatdan unchalik o'rganilmaganligi kuzatiladi. Tadqiqot natijasida iqtisodiy matnlar tahlil qilinib, tajimaning o'ziga xos xususiyatlari, muammolari va ularni hal etish yo'llari ko'rib chiqildi. Shuningdek, koreys tilidagi iqtisodiy terminlarnig kelib chiqishi, xitoy va ingliz tilidan o'zlashgan terminlar va

ularning o'zbek tiliga tarjimasi tahlil qilindi. Shu bilan birga manbalarga ilmiylik nuqtai nazaridan izohlar berib o'tildi va ikki tildagi ekvivalentlari keltirildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. O'rganilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra iqtisodiy matnlar va ularning tarjimasi, iqtisodiy terminlar ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Ularning ko'pchiligi rus, ingliz, va nemis tillari misolida tahlil qilingan.

Bizning tadqiqot ishimizda koreys tilidan o'zbek tiliga yoxud o'zbek tilidan koreys tiliga iqtisodiy matn tarjimalarining xususiyatlari va muammoli jihatlari tahlil ostiga olinadi. Bu esa koreys va o'zbek tarjimashunosligida yangilik hisoblanadi. Chunki bu yo'nalishda talaygina tarjimalar qilingan bo'lsa-da, ular nazariy jihatdan to'la tadqiq etilmagan.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi. Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirish jarayonida iqtisodiy matnlar tarjimasiga bag'ishlangan ishlar o'zbek tarjimachiligida kamchilikni tashkil qildi.

Ingliz tarjimashunosi Olteanu A.R. o'zining "Errors and difficulties in translating economic texts" nomli tadqiqot ishi iqtisodiy matnlar tarjimasining muammolari va murakkabliklariga bag'ishlangan bo'lib, unda avvalo tarjima konsepsiyasi, tarjima ilmining turli yondashuvlari o'rganilgan. Iqtisodiy matn tarjimasining murakkabliklari klassifikatsiyasi tahlil etilib, iqtisodiy matnlar ustida analiz amalga oshirilgan.

Rus tilshunosligi va tarjimashunosligida esa bu masala chuqur tadqiq ostiga olingan va samarali natijalarga erishilgan. Jumladan, Шулюкина Т.С.² o'z tadqiqot ishida iqtisodiy terminlarning o'ziga xos xususiyatlari, iqtisodiy terminlar tarjimasining muqobilligi, terminlarning ekvivalentini topish muammolari, kognitiv model kabilarni o'rganib chiqqan va tahlilga tortgan.

² Шулюкина Т. С. К вопросу перевода экономических терминов (на материале английского и русского языков).- М., 2011.

Похолкова Е.А.³ avvalo terminologiyani umumiy hodisa sifatida o'rgangan. U koreys tilida terminologiyaning o'рни zamonaviy iqtisodiy terminologiya va uning genetik analizi, xususiyatlari, iqtisodiy terminologiyada o'zlashmalarning o'рни, formal-strukturaviy, leksik-semantik tahlili kabi ishlarni amalga oshirgan. Лесникова Ж.В.⁴ ning ishida umuman terminologiya, terminlarning xususiyati va tilshunoslikdagi o'рни, terminlarni tarjima qilish masalalari, vositali va vositasiz tarjima kabilar tahlil ostiga olingan.

Садовская М.В.⁵ning tadqiqot ishida maxsus matn tushunchasi, iqtisodiy matn tushunchasiga tasnif berilgan. 2-bobda korxonaga hisobotlari asosida hisobotning lingvistik tahlili berilgan. Кинчина Е.В.⁶ tadqiqotida kognitiv tilshunoslik terminologik muammolarning aspekti sifatida o'rganilgan. Iqtisodiy terminlar tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot ishi ingliz va rus tillaridagi manbalar asosida bo'lganligi sababli unda ingliz tilidan rus tiliga o'zlashgan terminlar ishning asosiy negizi sifatida ko'rilgan.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqotni amalga oshirishda asosan qiyosiy uslubdan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy manbalari:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 9 декабрдаги ЎРҚ-380-сонли “Инвестиция фаолияти тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида»ги Қонуни va uning koreys tiliga qilingan tarjimasini: “투자 활동”에 관한 1998 년 12 월 24 일자의 우즈베키스탄 공화국 법률 제 719-I 호”;

2. О'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning О'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”.-Т.,

³ Похолкова Е.А. Современная экономическая терминология в Республике Корея: лингвистический анализ.-М., 2007.

⁴ Лесникова Ж.В. Способы перевода терминов с английского языка на русский (на материале экономических текстов). - М., 2010.

⁵ Садовская М. В. Лингвопрагматическое описание экономических текстов. - М., 2010.

⁶ Кинчина Е. В. Когнитивные аспекты перевода экономических терминов.- К., 1999.

12.11.2010. va uning tarjimasi: “우즈베키스탄 경제 개혁”.(qachon va kim tomondan tarjima qilingani noma’lum) kabilar asosiy manba sifatida olindi.

3. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан №21 от 27.01.09 г. “О мерах по организации деят СИЭЗ Навои”. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан 27.01.2009 г. N 21. va uning tarjimasi:

“나보이” 산업 경제 자유 지역 활동 시행에 관한 2009년 1월 27일자 우즈베키스탄 내각 결의 제 21 호. “나보이” 산업 경제 자유 지역 활동 시행에 관한 우즈베키스탄 공화국 내각 결의 2009년 1월 27일, 제 21 호.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot xulosalari tarjimashunoslik sohasini kompleks tarzda o’rganishga muayyan hissa qo’shadi. Tadqiqot ishi iqtisodiyotga doir darslik va uslubiy qo’llanmalar yaratishda, shu yo’nalishdagi kelgusi tadqiqotlarda hamda unga oid mavzulardagi muammolarning yechilishida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Ish tuzilmasining tavsifi. Mazkur tadqiqot ishi kirish, uch bobdan iborat asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat. Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqot obykti va predmetining belgilanishi, tadqiqot maqsadi va vazifalari, tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari, mavzu bo’yicha qisqacha adabiyotlar tahlili, tadqiqotda qo’llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqotning ilmiy yangiligi bayon etilgan. Birinchi bobda iqtisodiyotga oid matn tarjimasining umumtilshunoslik masalalari bilan bog’liqligi, mavzuning o’rganilganlik tarixi, matn turlari, terminlar va terminologiya, ikkinchi bobda iqtisodiyotga oid matnlar tarjimasida terminlar masalasi, iqtisodiy terminlar va ularning o’ziga xos xususiyatlari, o’zbek tilida iqtisodiy terminlar va ularning koreys tiliga tarjimasida leksik birliklarning berilishi, koreys tilida iqtisodiy terminlar va o’zlashmalar, uchinchi bobda esa o’zbek va koreys tilida iqtisodiy matnlarning tarjimadagi murakkabliklari, iqtisodiy matn va uning tarjima qilish usullari iqtisodiy matn tarjimasida

qisqartma soʻzlar (abbreviaturalar)ning berilishi, iqtisodiyotga oid matnlar tarjimasida adekvatlik va ekvivalentlik masalasi, iqtisodiy matnlarni vositachi til orqali tarjima qilish kabilar oʻrganiladi. Soʻng tadqiqot ishi boʻyicha xulosalar qilinib, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilova keltiriladi.

I BOB. IQTISODIYOTGA OID MATN TARJIMASINING UMUMTILSHUNOSLIK MASALALARI BILAN BOG‘LIQLIGI

1.1. Iqtisodiyotga oid matnlar tarjimasining o‘rganilganlik tarixi

Insoniyat paydo bo‘libdiki, iqtisodiyot jamiyatning ajralmas bo‘lagi bo‘lib kelgan. Eng qadimgi davrlarda shaxsning, so‘ng urug‘ning, asta-sekin davlat va jamiyatning o‘sib borishi bilan iqtisodiy jarayonlar ham muhim rol o‘ynay boshlaydi. Shu bois, taraqqiyotni iqtisodsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Iqtisodiyotni o‘rganish iqtisodiy tashkilotlar, institut va harakatlar bilan bir qatorda tilshunos, tarjimonlar diqqatidan ham chetda qolmaydi.

Kundalik hayotimizni iqtisodiy ma‘lumotlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shuningdek, mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlarda ham iqtisodiy munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa tilshunos-tarjimonlar oldiga iqtisodiy mazmunga ega bo‘lgan matnlarni o‘rganish, tarjima qilishning muqobil yo‘llarini topish singari vazifalarni qo‘yadi. Iqtisodiyotga bog‘liq bo‘lgan qonunlar, shartnoma matnlari va shu kabi matnlar tarjimasini tarjimondan katta mahorat, alohida tayyorgarlikni talab qiladi.

O‘zbek tilida sohaga oid terminlar va ularning tarjimasiga doir tadqiqot ishlari mavjud bo‘lib, xususan Zaynutdinov Z. F. “O‘zbek tilidan xitoy tiliga siyosiy matnlar tarjimasini va uning o‘ziga xosliklari”⁷ nomli dissertatsiyasida terminlarning tarjima masalalariga to‘xtalib o‘tgan hamda siyosiy terminlar va siyosiy matnlar, ularning lisoniy xususiyatlari, siyosiy matnlarda qo‘llaniladigan turg‘un birikmalar, tarjimada so‘z tanlash muammosi, vositali tarjima muammolari, siyosiy sintagmalar kabilarni tahlil qilgan.

Nosirova S. A. “Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminlarining leksik-semantik va struktur tahlili”⁸ nomli tadqiqotida xitoy tilidagi diplomatik terminlarning leksik-semantik xususiyatlari, abbreviaturalar va qolipli

⁷ Zaynutdinov Z. F. O‘zbek tilidan xitoy tiliga siyosiy matnlar tarjimasini va uning o‘ziga xosliklari.-T., 2013.

⁸ Nosirova S. A. Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminlarining leksik-semantik va struktur tahlili.-T., 2008.

birikmalar, diplomatik terminlarning statistik tahlili, hosil bo'lish usullari, o'zlashmalar kabilar tahlil ostiga olingan.

Ingliz tarjimashunosi Olteanu A.R. o'zining "Errors and difficulties in translating economic texts"⁹ deb nomlangan tadqiqot ishi iqtisodiy matnlar tarjimasining muammolari va murakkabliklariga bag'ishlangan bo'lib, unda avvalo tarjima konsepsiyasi tarjima ilmining turli yondashuvlari asosida o'rganilgan. Iqtisodiy matn tarjimasining murakkabliklari tahlil etilib, iqtisodiy matnlar ustida analiz amalga oshirilgan.

Valerija M., Suchanova J. "The comparative analysis of English economic and business terms and their lithuanian translation equivalents"¹⁰ nomli maqolasida iqtisodiy terminlar tarjimasi, ularning ekvivalentini topish muammosi, terminlarni struktur va semantik jihatdan tahlil etish kabilarni yoritganlar.

Rus tilshunos va tarjimashunos olimlari tomonidan iqtisodiy matnlar va ularning tarjimasi masalasiga doir ko'plab izlanishlar amalga oshirilgan. Шулюкина Т. С. "К вопросу перевода экономических терминов (на материале английского и русского языков)"¹¹. Ushbu tadqiqot ishida iqtisodiy terminlarning o'ziga xos xususiyatlari, iqtisodiy terminlar tarjimasining muqobilligi, terminlarning ekvivalentini topish muammolari, kognitiv model kabilarni o'rganib chiqqan va tahlilga tortgan. Tadqiqotchi terminlarni "bir tarjimali" ("однопереводные термины") va "ko'p tarjimali" ("разнопереводные термины") turlarga bo'lgan. Iqtisodiyotga oid matnlarni esa "omnaviy iqtisodiy matnlar" ("популярно-экономические тексты") va "tor ixtisoslikdagi iqtisodiy matnlar" ("узкоспециализированные экономические тексты") kabilarga ajratib tahlil etgan ma'qul deb hisoblaydi. Haqiqatdan ham tadqiqotchi ta'kidlaganidek, terminlarni tarjima qilishda aynan ekvivalentini tanlagan ma'qul deb hisoblaymiz. Shuning bilan birga matnni

⁹ Olteanu A.R. Errors and difficulties in translating economic texts.-L., 2012.

¹⁰ Valerija M., Suchanova J. The comparative analysis of English economic and business terms and their lithuanian translation equivalents.-V., 2001.

¹¹ Шулюкина Т. С. К вопросу перевода экономических терминов.- М., 2011.

iqtisodiyotning aynan qaysi sohasiga tegishli ekanligiga ko‘ra leksik birliklarni tanlash tarjimaning yanada tushunarli bo‘lishida muhim ahamiyatga ega.

Похолкова Е.А. “Современная экономическая терминология в Республике Корея: лингвистический анализ”¹² nomli tadqiqot ishida avvalo terminologiya umumiy hodisa sifatida o‘rganilgan. Keyingi boblarda koreys tilida terminologiyaning o‘rni zamonaviy iqtisodiy terminologiya va uning genetik analizi, uning xususiyatlari, iqtisodiy terminologiyada o‘zlashmalarning o‘rni, formal-strukturaviy, leksik-semantik tahlili kabilarni amalga oshirgan. Похолкова Е.А. bundan tashqari o‘z ilmiy ishini davom ettirgan holda koreys tilidagi iqtisodiy terminlar bilan bog‘liq o‘nlab maqolalarini chop ettirgan. Uning tadqiqot ishlari bevosita tilshunoslik doirasida bo‘lib, bizning ilmiy ishimizda nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Лесникова Ж.В.¹³ “Способы перевода терминов с английского языка на русский (на материале экономических текстов)” nomli ishida umuman terminologiya, terminlarning xususiyati va tilshunoslikdagi o‘rni, terminlarni tarjima qilish masalalari, vositali va vositasiz tarjima kabilar tahlil ostiga olingan. Tahlil rus va ingliz tilidagi iqtisodiy terminlar tarjimasiga bag‘ishlangan.

Садовская М. В.¹⁴ “Лингвопрагматическое описание экономических текстов”da maxsus matn tushunchasi, iqtisodiy matnga tasnif berilgan. 2-bobda korxonalar hisobotlari asosida hisobotning lingvistik tahlili berilgan. Bu ish tadqiqotimizda matnlarni tahlil qilishda nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Кинчина Е. В.¹⁵ “Когнитивные аспекты перевода экономических терминов: На материале английского и русского языков”. Bunda kognitiv tilshunoslik terminologik muammolarning aspekti sifatida o‘rganilgan. Iqtisodiy terminlar tarjimasining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot ishi

¹² Похолкова Е.А. Современная экономическая терминология в Республике Корея: лингвистический анализ.-М., 2007.

¹³ Лесникова Ж.В. Способы перевода терминов с английского языка.-М., 2010.

¹⁴ Садовская М. В. Лингвопрагматическое описание экономических текстов.-М., 2010.

¹⁵ Кинчина Е. В. Когнитивные аспекты перевода экономических терминов.-К., 1999.

ingliz va rus tilidagi manba asosida bo‘lganligi sababli unda ingliz tilidan rus tiliga o‘zlashgan terminlar ishning asosiy negizi sifatida ko‘rilgan.

Каплина А.С.¹⁶ “Межкультурные особенности экономического текста и трудности его перевода”. Bu tadqiqotda iqtisodiy matnning xususiyatlari, matnlarning ekvivalentligi va adekvatligi ustida izlanishlar olib borilgan. Tadqiqotchining fikricha, iqtisodiy matnlarning asosiy maqsadi kognitiv axborot yetkazish bo‘lib, buning uchun turli iqtisodiy terminlardan, qisqartmalardan foydalaniladi. Ba’zi elementlarni tarjima qilishda adekvatlikka erishish uchun transformatsiyalardan foydalanish kerakligini qayd etadi.

Стрелецкая И.В “Языковые особенности перевода экономических текстов с английского языка на русский”¹⁷ nomli tadqiqot ishida iqtisodiy diskursga alohida bob ajratilib, chuqur tahlil ostiga olingan. Unda diskurs tushunchasi, iqtisodiy diskurs va iqtisodiy diskursning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan. Qolgan boblarda iqtisodiy matnlar leksik birlik, grammatik birlik hamda stilistik – uslubiy birliklarga bo‘linib tadqiq qilingan. Leksik birliklarni tahlil qilishda terminlar va maxsus leksika tarjimasi, umumiste’modagi leksika tarjimasi, abbreviaturalar, akronim¹⁸lar va korxonatashkilot nomlari kabilar ko‘rib chiqilgan. Uslubiy birliklarda esa frazeologizmlar va klishelar, metaforalar tarjimasi tadqiq qilingan.

Довбыш О.В.¹⁹ ning “Английская финансовая терминология и проблемы ее перевода на русский язык (На материале годовых финансовых отчетов зарубежных компаний)”da moliyaviy hisobot terminlar sistemasi o‘ziga xos matn janri sifatida o‘rganilgan. Tadqiqotga korxonaning yillik moliyaviy hisoboti manba bo‘lib xizmat qilgan.

¹⁶ Каплина А.С. Межкультурные особенности экономического текста и трудности его перевода.-М., 2012.

¹⁷ Стрелецкая И.В. Языковые особенности перевода экономических текстов с английского языка на русский. - М., 2012.

¹⁸ Акрóним (grekcha áκρος -yuqori, so‘nggi + óνυμος - nom) - abbreviaturalarning bir turi bo‘lib, boshlang‘ich tovushlardan yasaladi. <https://ru.wikipedia.org/wiki>.

¹⁹Довбыш О.В. Английская финансовая терминология и проблемы ее перевода на русский язык.-М., 2003.

Sherba L.V.o‘z tadqiqotlarida terminlarga to‘xtalib, bir necha so‘zlardan iborat bo‘lgan terminlarni struktur va semantik yagonalikka ega bo‘lgan so‘z birikmasi deb izohlagan (Sherba, 1974). Bu so‘z birikmalarining bir tushunchani atash uchun xizmat qilishi yagona nominativ terminologik birlik sifatida ta’riflashga asos bo‘ladi²⁰.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, chet tillarida iqtisodiy matn tarjimasini va iqtisodiy terminlar tarjimasiga bag‘ishlangan tadqiqot ishlari mavjud. Lekin o‘zbek tilida bunday ishlarga duch kelmadik.

1.2. Matn va diskurs tushunchasi hamda iqtisodiy diskurs

“Matn” atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida matn so‘zining arabchadan o‘zlashganligi, eskirgan kitobiy so‘z ekanligi va aynan *tekst* so‘zi anglatgan ma’noga tengligiga ishora qilinadi. Ayni lug‘atda *tekst* so‘ziga quyidagicha ta’rif beriladi:

1. Yozilgan, ko‘chirilgan yoki bosilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat va shu kabilar yoki ularning bir parchasi; matn. Maqolaning teksti.

2. Musiqa asariga, masalan biror kuyga, opera, romans va shu kabilarga asos bo‘lgan she’r, so‘z.

3. Poligrafiyada yirik shriftlardan birining nomi²¹.

Demak, matn deyilganda faqatgina yozma shakl inobatga olinishi kerak. Yangi tahrirdagi izohli lug‘atda ham ayni ta’kid saqlangan: matn arabcha - yelka; nutqning yozuvdagi ifodasi. 1. Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat. 2. Bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi²².

Ayniqsa, til va matn inson ma’naviy hayotini aks ettiruvchi ko‘zgu sifatida tarjima nazariyasi va matnshunoslik fanining chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Matnning bir necha ta’riflari mavjud. Matnshunos olimlardan biri L. Loseva matnning quyidagi uch belgisini ko‘rsatib o‘tadi:

²⁰ Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. -Л., 1974.

²¹

²² Yo‘ldoshev M., Isoqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili.-T., 2010.

- 1) matn – bu yozma shakldagi axborot;
- 2) matn mazmuniy va strukturaviy tugal ko‘rinishga ega;
- 3) matnda muallifning taqdim etilayotgan axborotga munosabati o‘z aksini topadi (muallif yondashuvi).

Ma’lumki, inson voqelikni, borliqni til orqali, uning vositalari yordamida aks ettiradi. Shu jarayonda u turli matn ko‘rinishlarini yaratadi. Bular quyidagilar:

1. Yuz bergan voqea-hodisa haqidagi oddiy axborot ko‘rinishida yaratilgan matn ma’lumotnoma matni deb ataladi. Bu matnning quyidagi belgilari bor: 1) so‘zlar o‘z ma’nolarida qo‘llanadi; 2) tilda mavjud bo‘lgan badiiy-tasviriy vositalardan (masalan, badiiy san’at turlaridan) deyarli foydalanilmaydi; 3) yuz bergan voqea-hodisa oddiy so‘zlar vositasida tasvirlanadi.

2. Yuz bergan voqea-hodisa haqida ijodiy – tavsifiy bayonni aks ettiruvchi matn ijodiy – tavsifiy matn deb yuritiladi. Bu matnning quyidagi belgilari mavjud: 1) yuz bergan voqea-hodisa haqida shaxsiy fikr mulohaza bayon qilinadi; 2) tilning badiiy – tasviriy vositalaridan unumli foydalaniladi; 3) har bir voqea-hodisa muayyan dalillar bilan ishonarli tarzda aks ettiriladi²³. Bu matn turlariga ilmiy, ommabop va badiiy uslublarda yaratilgan matnlarni, shuningdek, inshoni kiritish mumkin. Bugungi kun tilshunosligida matn tilning alohida yirik birligi (supersintaktik butunlik) va matn tilshunosligi deb atalayotgan sohaning asosiy obyekt sifatida talqin qilinadi. Matnni tadqiq etishda uni so‘z birikmasi va gapdan farqlash lozimligi, matnning ham o‘z kategoriyasi va qonuniyatlari borligi aytiladi. Tilshunos M.X. Hakimov bu haqida shunday yozadi: “Matn so‘zining lug‘aviy ma’nosida birikish, bog‘lanish tushunchalarining borligi, shuning uchun matn tarkibi o‘zaro qaysidir bog‘lovchilar yordamida birikishini o‘rganish “Matn tilshunosligi” sohasining asosiy muammolaridan biri bo‘lib qoldi”²⁴. Mazkur ishda muallif “matn”

²³ Ne’matov H., Bozorov O. Til va nutq.-T., 1993. B.23

²⁴ Hakimov M.X. O‘zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari.-T., 1993.

atamasini “nutq”, “kontekst” kabi boshqa lingvistik atamalardan farqlash lozimligini ta’kidlaydi. Matnlar tipologiyasida axborotni uzatish kanali alohida o‘rin tutadi. Ana shunga ko‘ra matnlarning og‘zaki va yozma matn tiplarini farqlash lozim. Kommunikatsiya jarayonida berilayotgan axborotning hajmi ham matnlar tipologiyasi uchun yana bir asos bo‘ladi.

Har qanday matnni unda ifodalangan axborotning hajm belgisiga ko‘ra minimal matn va maksimal matn tiplariga ajratish mumkin. Shuningdek, matn lingvistikasiga oid ishlarda ma’lum bir matn tarkibidagi murakkab sintaktik butunlikka nisbatan mikromatn, yaxlit matnga nisbatan esa makromatn atamasi qo‘llaniladi. Lekin mikromatn va makromatn tushunchalari matn tiplari bo‘la olmaydi. Chunki ular butun-bo‘lak munosabatini tashkil etadi.

Matnlarni tiplashirishda ularning lisoniy strukturasi ham nazarda tutilishi kerak. Shunga ko‘ra, tipologik jihatdan turg‘un strukturali matnlar (ma’lumotnoma, dalolatnoma, annotatsiya, patent kabilari) va erkin strukturali matnlar (maqola, hikoya, she’r, roman kabilari)ni farqlash mumkin.

Matnlar mazmuni va ifoda maqsadiga ko‘ra ham farqli tiplarga birlashadi. Bunda berilmoqchi bo‘lgan axborotning xarakteri va uni ifodalashdan ko‘zlangan maqsad asosiy o‘lchov vazifasini bajaradi. Bu nuqtai nazardan matnlarni nutqiy muloqotning asosiy shakllariga uyg‘un ravishda hikoya, tasviriy, muhokama matnlariga ajratish tilshunoslikda an’anaga kirgan.

Matn tiplarini belgilashda yana bir omil – asos nutqning funksional uslublaridir. Matn funksional uslubiy mohiyatiga ko‘ra ilmiy matn (tezis, maqola, ma’ruza, taqrizlar), badiiy matn (nasriy, nazmiy asarlar), rasmiy matn (ma’lumotnoma, qaror, buyruq, tavsifnoma, tavsiiyanomalar), ommabop matn (maqola, suhbat, tabrik va xitob nutqi matnlari) kabi tarmoqlarga bo‘linadi. Matn maqsad-mohiyatida tilning ikki muhim kommunikativ vazifa yoki estetik vazifaning yetakchilik qilishiga asoslangan holda matnlarning ikki oppozitiv tiplarini farqlash zarur, ya’ni badiiy matn va nobadiiy matn. Asosiy maqsad-mohiyatida kommunikativ vazifa yetakchilik qilgan matnni nobadiiy matn deb, asosiy maqsad mohiyatida estetik vazifa yetakchilik qilgan matnni esa badiiy

matn deyish ma'qul. Misol sifatida Zulfiyaning “Sen qaydasan, yuragim” she’ri va uning tarjimasini olaylik:

Qayga ketding yuragim

Bitdi bardosh va toqat.

Suhbatingdir tilagim,

Dilda hasratim qat–qat

어디 갔냐 내 마음아?

더이상 너 없는 곤경을 극복 못 한다.

다시 오랫동안 대화하고 싶고

나누고자 하는 말이 너무 많다²⁵.

Bunda shoira o‘z hissiyotlari, ichki kechinmalarini bayon qilmoqda.

“Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar ixtiyoriy ravishda O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida uyushmalar, konsernlar, korporatsiyalar, konsorsiumlar va boshqa xo'jalik birlashmalari tashkil etishi, amal qilib turgan birlashmalar tarkibiga to'la huquqli a'zo sifatida kirishi mumkin”²⁶.

“우즈베키스탄 공화국의 법령에 따라 외국인투자기업은 임의로 조합, 기업제휴, 합작회사 및 기타 경제 연합을 설립할 수 있으며, 기존의 연합에 정식 구성원으로서 포함될 수 있다”²⁷.

Yuqoridagi matn esa nobadiiy matn bo’lib, unda hech qanday hissiy-ekspressiv vositalar uchramaydi. Matn faqat kommunikativ vazifa, ya’ni ma’lumot yetkazishga xizmat qiladi.

Muloqot paytida, gapirayotganda yoki yozayotganda har doim yangidan matn yaratilmaydi, ehtiyojga ko‘ra turli matn tiplaridan foydalaniladi. Ba’zan boshimizdan o‘tgan yoki o‘zimiz guvoh bo‘lgan voqealarni kimgadir aytib beramiz. Tinglovchiga notanish bo‘lgan biror kishi yoki joyni batafsil tasvirlab berishga harakat qilamiz. Ba’zan fikrimizni turli dalillar yordamida isbotlashga,

²⁵ Saydazimova U.T. Zulfiya she’riyati.-T., 2015. B. 74.

²⁶ “Chet el investitsiyalari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining qonuni.-T., 1998.04.30. 609-I-son. 8-modda.

²⁷ “외국인의 투자”에 관한 우즈베키스탄공화국 법률 1998년 4월 30일, 제 609-1 호. 제 8 조.

izohlashga ehtiyoj sezamiz. Yoxud kimgadir pand-nasihat qilamiz. Uni turli hayotiy voqealar vositasida tarbiyalash yoki aytilganlardan xulosa chiqarishini istaymiz. Muloqot maqsadimiz ba'zan qandaydir xabarni tinglovchiga yetkazishga qaratilgan bo'ladi.

Ba'zan nimanidir so'rashga ehtiyoj sezamiz. Shu bilan birga biror ishni qanday bajarish kerakligi haqida tavsiyalar beramiz yoki biror ishni qilmaslik haqida buyruq beramiz. Maqsadimizga erishish uchun turli ko'rsatma, ta'qiq va xitob jumllaridan foydalanamiz. Insonlar o'rtasidagi muloqot maqsadi va mazmuni shular bilangina chegaralanib qolmaydi. Inson hissiyotlarini, tuyg'ularini, hayajonlarini, azob va qayg'ularini ifodalash, shu orqali tinglovchi yoki kitobxonni ta'sirlantirishni istaydi. Ana shunday hollarda ba'zan mubolag'a ba'zan o'xshatish qiyoslash kabi tasviriy vositalardan foydalanamiz. Shu asosda badiiy matn ifoda mazmuniga ko'ra ham tiplarga ajratiladi: hikoya mazmunli matn, tasviriy matn, izoh mazmunli matn, didaktik matn, xabar-darak mazmunli matn, so'roq mazmunli matn, buyruq-istak mazmunli matn, hissiy ifoda mazmunli matn.

Tavsifiy matnlarda shaxs, narsa, voqea-hodisaning muhim belgilari aniq ma'lumotlar, sifatlovchi ifodalar orqali bayon qilinadi. Tavsiflashda shaxs yoki narsa-voqeani xolisona baholash muhim hisoblanadi. Bunday matnlar tilida xarakter-xususiyatni ifodalovchi sifatlar, belgining ortiqlik darajasini ifodalovchi leksik-grammatik vositalar, yasama sifatlar faol ishlatiladi. Shuningdek, shaxs harakat-holatining belgisini ifodalovchi ravishlardan o'rinli foydalanish talab qilinadi.

Shunga ko'ra tavsifiy matn yaratish zaruriy til vositalarini to'g'ri tanlash va qo'llashni, sifat va ravish yasalishi me'yorlarini, bunday so'zlardagi belgi ifodasining darajalashini puxta bilishni taqozo etadi.

Matnshunoslikka oid adabiyotlarda qayd etilishicha, har qanday matn, u ilmiymi, rasmiymi, badiiymi – bundan qat'iy nazar, mantiq qoidalariga asosan shakllanishi lozim. Izchillik ana shu qoidaning birinchi talabidir. Matnda har bir

soʻz, har bir gap va xatboshilar oʻrtasida mantiqiy bogʻlanish va izchillik boʻlishi lozim. Agar shunday boʻlmasa, matni tushunish qiyin boʻladi.

Xulosa qilib aytganda, matn til sintaktik sathining oliy darajadagi birligi boʻlib, gaplar ketma-ketligining bogʻlanishlilik asosida ogʻzaki va yozma shaklda yuzaga keladigan struktural, semantik va kommunikativ jihatdan yaxlit bir butunligidir.

Bundan tashqari dunyo tilshunosligida matn muammolari tadqiqiga bagʻishlangan ishlarning koʻpchiligida “diskurs” termini ham bot-bot qoʻllaniladi. Bu termin matn lingvistikasi bilan bir qatorda adabiyotshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik, falsafa, mantiq, psixologiya kabi fan sohalarida keng ishlatilib kelinayotgan boʻlsa-da, matn lingvistikasining oʻzida ham yagona, koʻpchilik tomonidan eʼtirof etilgan talqini, maʼnosi yoʻq, xilma-xil farqli tushunchalar ifodasi uchun istifoda qilinadi. Dastlab “diskurs” va “matn” terminlari ayni bir tushuncha uchun qoʻllangan boʻlsa, keyinroq “matn” yozma kommunikatsiyaga nisbatan, “diskurs” esa ogʻzaki kommunikatsiyaga nisbatan ishlatilgan. Bu soʻzning maʼnosi fransuzcha *discours* - “nutq”, “soʻzlash” demakdir. Diskurs soʻzi XX asrning 70-yillarida keng qoʻllanila boshlandi²⁸.

Diskursni oʻrganishda uning klassifikatsiyasi masalasi yuzaga keladi. Eng avvalo, diskurs ifodalanish vositasiga koʻra ikki, ogʻzaki va yozma kabi boshlangʻich guruhlariga boʻlinadi. Shu oʻrinda diskursning uchinchi guruhini ham keltirish lozim: fikriy diskurs, bunda akustika ham, grafik belgilar ham qoʻllanilmaydi. Fikriy diskurs ham kommunikativ qoʻllaniladi, lekin uni kuzatish murakkab boʻlganligi tufayli kam tadqiq etilgan. L.S. Visotskiy ichki nutqni tadqiq etgan va fikriy diskurs masalasiga toʻxtalib oʻtgan²⁹.

Koʻp hollarda diskurs turlari janr tushunchasi yordamida tushuntiriladi. M. Hallidey diskursni uning parametrlari orqali, elementlari, mavzusi, uslublari

²⁸ Кибрик А., Паршин П. О понятии дискурса. - М., 2003.

²⁹ Карасик В.И. Языковой круг. Личность. Концепты. Дискурс.-М., 2004. С. 390.

orqali xarakterlaydi.³⁰ Diskurs tushunchasi ostida odamlarning ijtimoiy muloqotga kirishishi uchun asosiy qurol tushuniladi.

Soʻnggi paytlarda zamonaviy lingvistik tadqiqot materiallarida diskurning quyidagi tiplari ajratiladi: pedagogik, siyosiy, tanqidiy, harbiy, diniy, iqtisodiy, ilmiy, oʻquv, publitsistik, reklama va h.k. Yaʼni inson faoliyatining har qanday jabhasiga taalluqli diskurslar mavjud.

Iqtisodiy diskurs – maʼlum bir iqtisodiy fikrlar jarayonida yuzaga keladigan diskurs tipidir.³¹ Iqtisodiy diskursning aspektlari tovar, pul, foyda, bozor, investitsiya, iqtisodiyot, iqtisodiy faoliyat kabi bazaviy tushunchalardan iborat³².

Iqtisodiy diskursni quyidagi belgilariga koʻra turlarga ajratish mumkin:

- 1) sugʻurta qatlamidagi diskurs, bank diskursi (institutsionallik belgisiga koʻra);
- 2) korxonah rahbarining ogʻzaki nutqida hosil boʻluvchi diskurs (shaxsiy va institutsional diskursning taqqoslanish belgisiga koʻra);
- 3) iqtisodiy mavzudagi gazeta va jurnal diskursi, iqtisodiyotga oid dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar (janriy belgisiga koʻra)³³.

Iqtisodiy diskurning mavjudligi asosida iqtisodiy matnlarni tarjima qilishning maxsus nazariyasi ham mavjudligini tushuntirish mumkin. Taʼkidlash mumkinki, bu kabi matnlarning tarjimasi oʻziga xos xususiyatlarga egadir.

Zamonaviy iqtisodiy diskurs tushunchasi quyidagi xususiyatlarga egadir:

- 1) strukturasi murakkabligi va bir jinsli emasligi;
- 2) muloqot qatnashchilarining turlichaligi (olimlar, mutaxassislar va nomutaxassislar);
- 3) turli muloqot vaziyatlari³⁴.

³⁰ Halliday M.A.K., R Hasan. Language, context and text: Aspect of Language in a Social - Semiotic Perspective.- O., 1991. P. 126.

³¹ Кланцакова, А.Ю. Метафора в структуре экономического дискурса: опыт комплексного исследования.-И., 2003. С. 55-86.

³² Агаркова Н.Э. Концепт Деньги как фрагмент английской языковой картины мира.-И., 2001. С. 171.

³³ Карасик В.И. О типах дискурса. Языковая личность: институциональный и персональный дискурс.- В., 2000. С. 5-20.

³⁴ Мыркин В.Я. Текст, подтекст и контекст. - М., 1976. С. 38-41

Ilmiy iqtisodiy faoliyat va professional iqtisodiy faoliyat o‘zaro maqsadi, predmeti va shart-sharotlariga ko‘ra farqlanadi hamda bu matnda o‘z aksini topadi. Iqtisodiy diskurs qarashlar umumiyliги va verballashgan terminologiyasi bilan ajralib turadi³⁵.

1.3. Termin va terminologiya

Har bir xalqning asriy tajribasini o‘zida mujassam qilgan ona tilidagi lisoniy boyliklarni asrab qolish, ularni ilmiy tahlil qilish, keyingi avlodlarga yetkazish hozirgi fan, xususan, tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek, “Xalqning milliy madaniyati va o‘ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo‘lmish o‘zbek tili”³⁶ da mavjud bo‘lgan so‘z va iboralarni, atamalar va leksik boyliklarni o‘rganish hamda lisoniy meros sifatida ilmiy tahlilini olib borish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biridir.

Termin grekcha “terminus” so‘zidan olingan bo‘lib, “chek, chegara” degan ma‘noni bildiradi. U fan-texnika, qishloq xo‘jaligi, san‘at va madaniyat sohasiga xos so‘z hisoblanadi. “Terminologiya” – terminlar haqidagi ta‘limot va terminlar majmui degan ma‘nolarni anglatadi. Termin so‘zi o‘rnida ba‘zan atama, istiloh so‘zlarini ishlatish hollari uchrab turadi.

Atama termin so‘ziga nisbatan tor tushunchani ifodalaydi. Istiloh so‘zi esa arabcha so‘z bo‘lib, u xalq tiliga to‘la o‘zlashmagan va me‘yorga aylangan emas. Terminologiya masalalari hamisha tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib kelgan. Chunki terminlarning sohalar lug‘aviy qatlamlaridagi o‘rni va vazifasini belgilash, tushunchaning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglash imkonini beradi.

Termin – fan-texnikaning ma‘lum sohasiga tegishli bo‘lgan va shu soha mutaxassislari tomonidan qo‘llaniladigan, obyekt yoki tushunchaning maxsusligini ifodalovchi hissiy-neytral so‘z (so‘z birikmasi)dir. Terminologik

³⁵ Мыркин В.Я. Текст, подтекст и контекст.-М., 1976. С. 38-41.

³⁶ Karimov I.A. O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat.-T., 1999. B. 19.

leksika predmet mazmunini aniqlashda uni yanada tushunarli, aniq, loʻnda bayon etilishiga yordam beradi. Maxsus adabiyotlarda terminlar semantik jihatdan boshqa adabiy leksikadan ajralib turadi.

Terminologiya – maxsus leksikani oʻrganuvchi fan boʻlib, terminlarning kelib chiqishi, shakli, maʼnosi, vazifasi va qoʻllanilishi kabilarni oʻz ichiga qamrab oladi. Terminologiya zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning aktual yoʻnalishlaridan biridir. Hozirgi vaqtda terminologiya masalasining oʻsib borishi, bir tomondan, ilm-fanning dinamik rivojlanishi tufayli yangi tushunchalarning koʻpayib borishi sababli deb qaralsa, ikkinchi tomondan, terminlarning shakllanish jarayoni, rivojlanishi va funksiyasi kabi masalalarning yetarli darajada oʻrganilmaganligi bilan bogʻliq hodisa deb izohlanadi³⁷.

XX asr oʻrtalaridan to hozirgi kunga qadar boʻlgan davrni ilmiy bilimlarning tezlik bilan rivojlanish davri deb xarakterlash mumkin. Shu bilan birga ijtimoiy hayotda ham radikal oʻzgarishlar yuz berdi. Ommaviy axborot vositalari va global kompyuter tizimi – internet yordamida maʼlumot almashinish jarayoni ham katta masshtabda rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga tilning maʼlumot tashuvchanlik vazifasi ham barcha yoʻnalishlarda yuqori koʻrsatkichga egadir. Terminologiya yangi soʻzlar kelib chiqishining yagona manbai boʻlmasa-da, tildagi yangi leksikaning muhim qismi boʻlib hisoblanadi.

Atamashunoslik (terminovedeniye)ning kelib chiqishi Avstriyalik olim Oygena Vyuster va Dmitriy Semyonovich Lottelarning sharaflil nomlari bilan bogʻliq boʻlib, ular ilk tadqiqot ishlarini 1930-yilda nashr etganlar. Hozirgi vaqtda bir necha milliy maktablar – avstriya-nemis maktabi, frank-kanada maktabi, rus maktabi, Chexiya maktablari atamashunoslikning nazariy masalalariga turli tomondan yondashib, oʻz tadqiqot ishlarini amalga oshirmoqdalar. Ularning ichida Rossiya atamashunoslik maktabi yetakchilik qilmoqda: 2300 dan ortiq himoya qilingan dissertatsiyalar, 3500 dan ortiq terminlar oʻrganildi. Zamonaviy rus atamashunoslarining namoyandalari O. S.

³⁷ Ким В.Н., Ким Т.С. Социально-политическая терминология.–Т., .2009. С. 5.

Axmanova³⁸, S. V. Grinev³⁹, V. A. Tatarinov⁴⁰ kabilardir. Rossiyada “Ross Term” uyushmasi atamashunos olimlarni o‘z ichiga birlashtirgan.

Terminologiyaga bag‘ishlangan ishlarning barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan, definitsiyaga ega bo‘lgan va asosan, nominativ funksiyani bajaradigan birliklar termin hisoblanadi deb qaraladi. A. Reformatskiy terminga ta’rif berar ekan “... terminlar – bu maxsus so‘zlardir”⁴¹, degan xulosaga keladi. A.V. Kalinin muayyan fanlar va kasbkorlikda ishlatiladigan so‘zlarni “maxsus leksika” deb ataydi va uni terminlar, professionalizmlar singari ikki guruhga ajratadi⁴². U o‘z fikrini davom ettirib, “Termin bilan professionalizmlar o‘rtasidagi farq shuki, termin bu muayyan fan, sanoat sohasi, qishloq xo‘jaligi, texnikadagi tamomila rasmiy bo‘lgan, qabul qilingan va qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasi, nomidir. Professionalizm esa biror kasb, mutaxassislik, ko‘pincha jonli tilda tarqalgan, aslini olganda, tushunchaning qat’iy, ilmiy tavsifiga ega bo‘lmagan yarim rasmiy so‘zdir”, - deydi. R. Doniyorov bu fikrga e’tiroz, “Bunday qat’iy da’vo, aslini olganda, tilni sinfiy deb hisoblagan ayrim “olim”larning qarashlari davomidir desak, xatoga yo‘l qo‘ymasmiz”⁴³, deya munosabat bildiradi. H. Jamolxonov terminga munosabatda bo‘lar ekan quyidagicha yozadi: “Terminlar fan-texnika, adabiyot, san’at va boshqa sohalarga oid ixtisoslashgan, qo‘llanishi muayyan soha bilan chegaralangan tushunchalarni ifodalaydigan nominativ birliklardir: gulikoza, shona (botanikada); to‘rtburchak, kvadrat (geometriyada); ega, kesim (tilshunoslikda); qofiya, turoq, vazn (adabiyotshunoslikda) kabi”.

Musayev K.M. terminologiyani tilning leksikasi sifatida go‘yo bir shaharga qiyoslaydi. Uning fikricha, terminologiya yagona reja asosida qurilsa-da, lekin birdaniga barpo etilmaydi. U tarixiy shart-sharoit asosida shakllanadi, uni

³⁸ Axmanova O.C. О современных лингвистические терминологии.-М., 1962. С. 167-168.

³⁹ Grinev С. В. Введение в терминоведение.-М., 1993.

⁴⁰ Татаринов В.А. История отечественного терминоведения.-М., 1994.

⁴¹ Реформатский А.А. Введение в языковедение.-М., 1996.

⁴² Калинин, А. В. Лексика русского языка.-М., 1966.

⁴³ Doniyorov R. O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari.-Т., 1977.

yaratishda har xil avlodga mansub boʻlgan turli meʼmorlar, loyihachilar, kashfiyotchilar ishtirok etadi. Ular har bir qurilayotgan inshootni yaxshi oʻrgangan holda barpo etadilar. Terminologiyani tartibga solishdagi oʻziga xos murakkablik ham shu bilan belgilanadi⁴⁴.

Qoraqalpoq tilshunosi professor Berdimuratov E. “Qaraqalpaq terminologiyasi” (1989) kitobida termin va professionalizm haqida qarashlarini quyidagicha bayon qiladi: “Haqiqatida termin menen professionalliq soʻz birligi ajralip turadi. Professionalliq soʻzler sol kasip tarawinda tariyxiy dawirler dawaminda payda bolgʻan, sol kasiptinʻ talabina xizmet etedi, sol ortaliqua jiyi qollaniladi... Al terminler bolsa, belgili turmis tarawinda, aytayiq, ilim, texnika, maʼdeniyat, jaʼmiyetlik – siyasiy turmis, sanaat haʼm awil xojaligʻi h.t.b boyinsha ugʻimlardi ataydi ham definitivlik jaqtan aniqlaydi, yagʻniy ugʻimdi tusindiredi. Terminler rasmiylestirilgen til birligi. Olar barliq waqitta jaʼmiyetlik baqlawda boladi”.

Terminlarning ifoda plani soʻzga (hujayra, toʻqima) yoki turgʻun birikmaga (oʻq ildiz, popuk ildiz) teng boʻladi. A.A.Potebnya “keyingi maʼno” deb atagan va “u tilshunoslikning oʻrganish obyektiga kirmaydi, uni boshqa fanlar oʻrganadi”⁴⁵ deb koʻrsatilgan terminologik leksika uzoq davrlargacha alohida nominativ birlik, atama sifatida tilshunoslikda tadqiq qilinmadi. Tilshunoslik fani rivojlanib, oʻz tadqiqot doirasini kengaytirgan sayin terminlarni oʻrganish uning eng muhim va tarkibiy qismlaridan biriga aylandi.

Hozirgi paytda atamashunoslik bir qancha tadqiqot yoʻnalishlariga boʻlinadi:

1. Nazariy terminologiya – maxsus leksika (termin)larning rivojlanish va qoʻllanish qonuniyatlarini oʻrganadi.
2. Amaliy terminologiya – terminlarning amaliy prinsiplari, terminlar va terminologiyaning kamchiliklarini yoʻqotish boʻyicha tavsiyalar, ularning

⁴⁴ Мусаев К.М. Формирование, развитие и современные проблемы терминологии.–М., 1986. С.163.

⁴⁵ Потебня А. А. Из записок по русской грамматике.–М., 1958. С. 19.

qo‘llanilishi, yaratilishi va tarjimasiga doir vositalarni ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi.

3. Umumiy terminologiya – maxsus leksika (termin)larning umumiy xossalari, muammolarini o‘rganadi.

4. Xususiy terminologiya – ma’lum bir tilning aynan bir sohasiga mansub bo‘lgan terminlarni o‘rganadi.

5. Tipologik terminologiya – alohida terminologiyalarni qiyoslab o‘rganib, umumiy va alohida terminologiyaning xossalarini belgilaydilar.

6. Chog‘ishtirma terminologiya – turli tillardagi umumiy va maxsus terminologiyani chog‘ishtirib o‘rganadi va xossalarini keltirib chiqaradi.

7. Semasiologik terminologiya – maxsus leksemalarning semantika bilan bog‘liq muammolarini, semantik birliklarning o‘zgarishi, polisemiya, sinonimiya, antonimiya, giponimiya kabilarni tadqiq qiladi.

8. Onomastik terminologiya – nomlashning maxsus leksemalarini, ularning nomlanish jarayoni, nomlashning optimal shaklini tanlashni tadqiq etadi.

9. Tarixiy terminologiya – terminologiya tarixini o‘rganib, terminlarning kelib chiqishi, shakllanish jarayonini tahlil etadi. Shu orqali terminlar tartibga solinadi. Shu yo‘nalishning natijalariga asoslangan holda tilshunoslikda yangi mustaqil fan – antropolingvistika ajralib chiqdi.

10. Funktsional terminologiya – zamonaviy terminlarning turli matnlardagi, professional muloqot holatlarida, mutaxassislarni tayyorlashdagi vazifalari, shu bilan birga nutqda va kompyuter tizimida terminlardan foydalanish xossalarini o‘rganadi⁴⁶.

Hozirda terminologiyaning yangi yo‘nalishlari – kognitiv va gneseologik terminologiyalarni keltirib o‘tish mumkin. Ular terminlarning ilmiy bilish va fikrlashdagi o‘rnini ko‘rib chiqadi.

Terminologiyaning mustaqil bo‘limlarini yuqorida ko‘rib chiqqanimizdek matnning ham terminologik nazariyasi – terminologiya va matnning xususiy nazariyasi bilan o‘rtada turadigan nazariyaga ham to‘xtalib o‘tamiz. Bu

⁴⁶ Ким В.Н., Ким Т.С. Социально-политическая терминология. – Т., 2009. С. 12.

nazariyada terminlardan iborat bo'lgan matn tipologiyasi, matnning terminologik analizi va terminning matndagi o'rniga oid analizi, shu qatorda, terminologiya tarixi, strukturasi, metodlari, alohida terminologiya maktablarni tadqiq etiladi.

Terminologiya bilan bog'liq bo'lgan yana bir yo'nalish bu terminografiya – maxsus leksikaning lug'at tuzish bo'limidir. Terminografiya olimlarining maxsus yaratishlari bilan bog'liq muammolar bevosita terminologiyada hal qilinishi lozim. Terminologiyadagi tadqiqot natijalari lug'at ko'rinishida bo'ladi.

Maxsus leksikaning turli qatlamlarini o'rganish natijasida terminlardan tashqari boshqa maxsus leksik birliklar ham mavjudligi tavsiflandi: nomenlar (G. O. Vinokur, 1939), professionalizmlar (N. P. Kuzmin, 1970), professional argotizmlar (L. I. Skvorsov, 1972), professional jargonizmlar (N. M. Gladkaya, 1977), predtermin va kvaziterminlar (V. M. Leychik, 1981), terminoidlar (A. D. Xayutin, 1972), prototerminlar (S. V. Grinev, 1990). Bu maxsus leksemalar terminlar bilan umumiy jihatlarga ega bo'lsa ham ulardan farqli jihatlari ham ko'rinadi.

Termin – nominativ so'z yoki so'z birikmasi (ot yoki ot bilan birga tayanch so'zlar sifatida so'z birikmasi), umumiy tushunchalarni nomlashga xizmat qiladi.

Odatda, olimlar terminlarning quyidagi belgilarini ko'rsatadilar:

- 1) termin bir ma'noli yoki bir ma'noli tendensiyaga ega;
- 2) termin aniq, nominativ funksiyaga ega bo'lib, unga emotsionallik, ekspressivlik, modallik funksiyalari xos emas. Termin o'zining bu xususiyatini kontekstda ham, kontekstdan tashqarida ham saqlaydi;
- 3) terminning ma'nosi tushunchaga tengdir;
- 4) termin stilistik jihatdan neytraldir;
- 5) terminologik leksika alohida sistemadir va hokazo⁴⁷.

Nomenlar – yagona narsalarning nomlanishidir. Shu bilan birga yakka tartibda ishlab chiqiladigan ommaviy mahsulotlarni ham nomlashga xizmat

⁴⁷ Ким В.Н., Ким Т.С. Социально-политическая терминология. – Т., 2009. С. 5.

qiladi. Nomenlarning terminlardan farqi yagona tushunchalarni, terminlar esa umumiy tushunchalarni berishidir.

Predterminlar – ijtimoiy leksemalar bo‘lib, yangi shakllangan tushunchalarni nomlashda termin sifatida qo‘llaniladi. Predterminlarga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

1) tavsiflovchi oborot – ko‘p so‘zli nominativ so‘z birikmasi bo‘lib, u tushunchani aniq tavsiflaydi, lekin qisqalik talabiga javob bermaydi;

2) bog‘langan so‘z birikmasi;

3) sifatdosh yoki ravishdosh tarzidagi so‘z birikmasi;

Predterminlar hali yangi bo‘lgan tushunchalarga vaqtinchalik nom bo‘lib, ularga mos terminlar berilguniga qadar nomlanadi. Predterminlarning terminlardan farqi:

✧ vaqtinchalik xarakteri;

✧ qat‘iy shaklga ega emasligi;

✧ umumqabul qilinmaganlik va qisqa emaslik;

✧ stilistik jihatdan neytral emasligi.

Predterminlar keyinchalik qat‘iy shakllantirilib, kvazitermin holiga keltiriladi.

Professionalizmlar – bir muncha murakkab bo‘lib, uni mutaxassislar turli ta‘riflashadi:

1) terminlar bilan tenglashtiradilar;

2) hunarmandchilikka oid leksika birligiga tegishli deb hisoblaydilar;

3) nomenativ bo‘lmagan maxsus leksika birligi deyilar;

4) og‘zaki nutqda ishlatiladigan norasmiy uslubga tegishli kasbga oid so‘zlar bo‘lib, emotsional-ekspressiv konnotatsiyaga ega.

Professionalizmlarning turlariga professional jargonlarni kiritish mumkin. Ular normativ xarakterga ega emas, ularning shartliligi so‘zlovchilar tomonidan seziladi.

Terminoid – maxsus leksema bo‘lib, yetarli darajada shakllanmagan va tushunarli bo‘lmagan, aniq chegaraga ega bo‘lmagan tushunchalarga ta‘rif

berish uchun qo‘llaniladi. Shuning uchun terminoidlar garchi tushunchani nomlasa ham, terminlardek aniq ma’no, kontekstual mustaqillik, aniqlilik xarakterlariga ega emas⁴⁸.

Prototerminlar – ilm-fan paydo bo‘lishidan oldin (eng qadimgi – 30-40 ming yil oldin) mavjud bo‘lgan maxsus leksemalar bo‘lib, ular (ilm-fan paydo bo‘lishi bilan vujudga kelgan) tushunchalarni anglatmay, balki maxsus tasavvurlarni anglatadi. Prototerminlar hali hanuz hunarmandchilik va kundalik leksikada saqlanib qolgan. Ilm-fanning rivojlanishi bilan prototerminlar o‘rnini aniq tushunchalarni anglatuvchi terminlar hosil bo‘lgan, lekin hozirda ham ba’zi prototerminlar umumiy “xalq terminologiyasi”da saqlanib qolgan. Shunday qilib, ko‘plab terminlar avval prototermin bo‘lishgan va hozirda bu motivatsiyaning yo‘qligida seziladi (Grinev, 1996)⁴⁹.

Terminologiyaning tartibga solinish obyekti terminologiya hisoblanadi. Unda barcha terminlar ular anglatgan tushuncha ma’nosiga ko‘ra sohalarga ajratiladi. Terminologiyaning natijalari esa terminosistemani vujudga keltiradi.

1-bob bo‘yicha xulosalar:

1. Iqtisodiy matnlar tarjimai masalasi rus mutaxassisleri tomonidan chuqur o‘rganilgan: Похолкова Е.А. Современная экономическая терминология в Республике Корея: лингвистический анализ. Bu tadqiqot ishida avvalo terminologiya umumiy hodisa sifatida o‘rganilgan. Садовская М. В. “Лингвопрагматическое описание экономических текстов”. Bu tadqiqot ishida maxsus matn tushunchasi, iqtisodiy matn tushunchasiga tasnif berilgan. 2-bobda korxonalar hisobotlari asosida hisobotning lingvistik tahlili berilgan. Кинчина Е. В. “Когнитивные аспекты перевода экономических терминов: На материале английского и русского языков”. Bunda kognitiv tilshunoslik terminologik muammolarning aspekti sifatida o‘rganilgan. Каплина А.С. “Межкультурные особенности экономического текста и трудности его

⁴⁸ Ким В.Н., Ким Т.С. Социально-политическая терминология.–Т., 2009. С. 14.

⁴⁹ Гринев С. В. Введение в терминоведение.–М., 1993.

перевода”. Bu tadqiqotda iqtisodiy matnning xususiyatlari, matnlarning ekvivalentligi va adekvatligi ustida izlanishlar olib borilgan. “Языковые особенности перевода экономических текстов с английского языка на русский”. Tadqiqot ishida iqtisodiy diskursga alohida bob ajratilib, chuqur tahlil ostiga olingan.

2. Iqtisodiy diskurs – ma’lum bir iqtisodiy fikrlar jarayonida yuzaga keladigan diskurs tipidir. Iqtisodiy diskursning aspektlari tovar, pul, foyda, bozor, investitsiya, iqtisodiyot, iqtisodiy faoliyat kabi bazaviy tushunchalardan iborat. Iqtisodiy diskurs qarashlar umumiyliigi va verballashgan terminologiyasi bilan ajralib turadi. Iqtisodiy diskursni quyidagi belgilariga ko‘ra turlarga ajratish mumkin: sug‘urta qatlamidagi diskurs, bank diskursi (institutsonallik belgisiga ko‘ra); korxonah rahbarining og‘zaki nutqida hosil bo‘luvchi diskurs (shaxsiy va institutsional diskursning taqqoslanish belgisiga ko‘ra); iqtisodiy mavzudagi gazeta va jurnal diskursi, iqtisodiyotga oid dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar (janriy belgisiga ko‘ra).

3. Zamonaviy iqtisodiy diskurs tushunchasi quyidagi xususiyatlarga egadir: strukturasi murakkabligi va bir jinsli emasligi; muloqot qatnashchilarining turlichaligi (olimlar, mutaxassislar va nomutaxassislar); tuli muloqot vaziyatlar.

4. Termin – fan-texnikaning ma’lum sohasiga tegishli bo‘lgan va shu soha mutaxassislari tomonidan qo‘llaniladigan, obyekt yoki tushunchaning maxsusligini ifodalovchi hissiy-neytral so‘z (so‘z birikmasi)dir. “Terminologiya” – terminlar haqidagi ta’limot va terminlar majmui degan ma’nolarni anglatadi. Atama termin so‘ziga nisbatan tor tushunchani ifodalaydi. Atamashunoslik (terminovedeniye)ning kelib chiqishi avstriyalik olim Oygena Vyuster va Dmitriy Semyonovich Lottelarning sharafli nomlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular ilk tadqiqot ishlarini 1930-yilda nashr etganlar.

5. Terminlarning ifoda plani so‘zga (hujayra, to‘qima) yoki turg‘un birikmaga teng bo‘ladi. Nomenlar – yagona narsalarning nomlanishidir. Shu bilan birga yakka tartibda ishlab chiqiladigan ommaviy mahsulotlarni ham nomlashga xizmat qiladi. Predterminlar – ijtimoiy leksemalar bo‘lib, yangi shakllangan

tushunchalarni nomlashda termin sifatida qoʻllaniladi. Predterminlarga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin. Professionalizmlar – bir muncha murakkab boʻlib, uni mutaxassislar turlicha taʼriflashadi:

- ✓ terminlar bilan tenglashtiriladi;
- ✓ nomenativ boʻlmagan maxsus leksika birligi;
- ✓ ogʻzaki nutqda ishlatiladigan norasmiy uslubga tegishli kasbga oid soʻzlar

boʻlib, emotsional-ekspressiv konnotatsiyaga ega.

6. Terminoid – maxsus leksema boʻlib, yetarli darajada shakllanmagan va tushunarli boʻlmagan, aniq chegaraga ega boʻlmagan tushunchalarga taʼrif berish uchun qoʻllaniladi. Prototerminlar – ilm-fan paydo boʻlishidan oldin (eng qadimgi 30-40ming yil oldin) mavjud boʻlgan maxsus leksemalar boʻlib, ular tushunchalarni anglatmay, balki maxsus tasavvurlarni anglatadi.

II BOB. IQTISODIYOTGA OID MATNLAR TARJIMASIDA TERMINLAR MASALASI

2.1. Iqtisodiy terminlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari

Tabiat va jamiyatdagi har bir hodisa o'zining kelib chiqishi va rivojlanish tarixiga egadir. Shu boisdan muayyan tadqiqotda ma'lum bir voqea-hodisa o'rganilar ekan, u o'sha voqea-hodisaning tarixini, uning kelib chiqishini o'rganishdan boshlanadi. Binobarin, mazkur tadqiqotda ham uning asosini tashkil etuvchi iqtisodiyotga oid terminologiyasini tahlil qilishga kirishilar ekan, avvalo uning shakllanish tarixiga nazar tashlab o'tish zarurati tug'iladi.

Xalqning turmushiga, ishlab chiqarish faoliyati, usuli atrof-muhit bilan munosabatiga qarab qadimdan xilma-xil lug'aviy qatlamlar tarkib topa boshlagan. Terminologlar, umuman, leksikologiya bilan shug'ullanuvchi olimlarning tadqiqotlaridan ma'lum bo'ladiki, inson turmush, kundalik faoliyati, bilan bevosita bog'liq bunday til birliklari va qadimiyligidan tashqari o'zining barqarorligi, turli lisoniy o'zgarishlarga moyil emasligi bilan ajralib turadi. Ishlab chiqarish qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari, qarindosh-urug'chilik nomlari, tabiat hodisalarini ifodalovchi leksemalar shular jumlasidandir.

Ta'kidlash joizki, terminlar masalasi bilan shug'ullangan deyarli barcha olimlar mazkur tushunchaning ta'rifini berishga urinib ko'rishgan. Ularning barchasigina emas, ayrimlarini, ham namuna tariqasida keltirib o'tish ko'plab sahifani egallagan bo'lardi. Shuning uchun ularni jamuljam etgan holda "termin" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: termin kasbiy ma'no bildiruvchi, kasbiy tushunchani ifodalovchi va shakllantiruvchi ayrim obyektlar va ular o'rtasidagi aloqalarni muayyan kasblar nuqtai nazaridan bilish hamda o'zlashtirish jarayonida ishlatiladigan so'z yoxud birikmadir. Haqiqatdan ham shunday. Chunki har bir sohaning, tarmoqning termini borki, u o'sha soha, tarmoq doirasida qo'llanadi, aniqroq qilib aytganda, kasb-hunar egasining nutqini shakllantiradi, o'zaro nutqiy muomala uchun shart-sharoit yaratadi.

Bu o'rinda shuni qayd etish lozimki, muayyan kasb-hunar yoxud mutaxassislikka ega bo'lgan kishilar ko'pincha u yoki bu sohaning o'ziga xos

maxsus terminlari bilan ish ko‘radi. Masalan, iqtisodchilarning yozma yoki og‘zaki nutqida kartel, kliring, tovar oboroti, mayda mulkchilik, mablag‘ ajratish, renta kabi tor doiradagina qo‘llaniladigan terminlar ishlatilishi tabiiy bir holdir. O‘z-o‘zidan ayonki, bu xildagi terminlar iqtisodiyotdan uzoqroq biror kasb egasining nutqida ishlatilmaydi. Shu bilan birga, iqtisodiyot sohasining qator terminlari ham borki, ular muayyan til egalarining deyarli barchasi nutqida bab-baravar ishlatilaveradi: *bozor, mol, savdo, savdo-sotiq, pul, xaridor, bozorchi, olib-sotar, chayqovchi* kabilar shular jumlasidandir⁵⁰.

Iqtisodga oid terminlarni yuqoridagi qatlamlar qatoriga kiritmaslikning iloji yo‘q, chunki inson insonligini tanib, birinchi navbatda “iqtisod” tushunchasiga duch kelgan. Aniqroq qilib aytganda, turmushning ertasini o‘ylagan har bir kishi birinchi galda nimanidir topishni va uni g‘amlashni, undan qay yo‘sin bilan foydalanishni, uni tejab-tergashni o‘ylagan va shu asosda ish yuritgan. Haqiqatan ham iqtisodning asosini ayni shu masalani hal qilish tashkil etishini yaxshi bilamiz. Shunday oddiy bir haqiqatni olib ko‘raylik. Ikki inson, ya’ni erkak va ayol oila qurar ekan, birinchi navbatda, o‘z turmushining farovon kechishini o‘ylaydigina emas, tinib-tinchimay mehnat bilan shug‘ullanadi, kelajakni, farzandlarining paydo bo‘lishi, ularni tarbiyalab uy-joyli qilish haqida qayg‘uradi, nihoyat, o‘zining mehnat natijalarini bozor-o‘char bilan bog‘laydi va hokazo. Mana shu asnoda kishilar ongida “iqtisod” “iqtisodiyot” kabi tushunchalar shakllana boshlagan ediki, bularning barchasi hozirgi kunda fan sifatida tarkib topgan “iqtisodiyot”ning dastlabki kurtaklari edi⁵¹.

Bu fan va amaliyotning shunday kurtaklari shakllana boshlagan ekan, demak ularni ifodalovchi til birliklari ham paydo bo‘la boshlagan. To‘g‘ri, ma’lum vaqtgacha “ekonomika” (grekcha “xo‘jalikni boshqarish”) ma’nosini ifodalovchi so‘zidan hosil bo‘lgan, hozirda esa arabcha iqtisodiyot deb atalayotgan amaliyot va maxsus fan qadimda o‘zbek tilida qanday so‘z bilan yuritilganligi haqida tegishli yozma manbalarning yo‘qligi tufayli, bir narsa deya

⁵⁰ Husanov N. Mirahmedova Z. Iqtisodiy atamalar va ish yuritish.-T., 2005. B. 106.

⁵¹ Husanov N. Mirahmedova Z. Iqtisodiy atamalar va ish yuritish.-T., 2005. B. 14.

olmaymiz. Biroq hozirda mavjud bo'lgan ayrim manbalar asosida iqtisodiyotga oid qator terminlar qo'llab kelinganligini dalillarga suyanib isbotlab berish mumkin. Asta-sekin jamiyat taraqqiy eta boshlagan sari, boshqa sohalarda bo'lganidek, iqtisodiyotda ham yangidan-yangi qonuniyatlar kashf etila boshladi, iqtisodiyotni o'rgana boshlashga yo'l ochildi, pirovardida, hozirgi davrda hayotimizning, borlig'imizning asosini tashkil etgan tom ma'nodagi iqtisodiyot ro'yobga chiqdi. Bunday ekstralisoniy omillar iqtisodiyotning o'ziga xos terminologik tizimining qaror topishiga sabab bo'ldi. Demak, iqtisodiyot terminologiyasi hozirgi holatiga yetib kelgunga qadar bir necha bosqichlarni bosib o'tdi.

Iqtisodiy terminologiya borasidagi dastlabki ish J. Dosmuxamedovning «Общая характеристика терминов полит-экономики основные способы их образования в современном узбекской языке» (1974) va qozoq tilshunosi M.R.Nasirovaning «Социально-экономическая терминология в современном казахском языке» (1969) nomzodlik ishlaridir. H. Dadaboyev «XI-XIV asrlar turkiy tillar yozma yodgorliklaridagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial iqtisodiy terminologiya» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. O'zbek tilidagi, binobarin, turkiy tillardagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminologiyani o'rganishga bag'ishlangan bu ishda turkiy tillarning shakllanishida o'zining muhim rolini o'ynagan, ko'rsatilgan sohalar terminlarining paydo bo'lish va tilda qo'llanish muammolari atroflicha o'rganilgan.

Ishning asosiy qismida O'rta Osiyo (hozirgi Markaziy Osiyo) hududidagi turkiy xalqlar tillaridagi yurt, ulus, baliq ("shahar" ma'nosida), yasaq ("huquq, qonun" ma'nosida), ordu, qazi, og'riliq, jaza, yug'rush ("vazir" ma'nosida) kabi yuzlab ijtimoiy-siyosiy terminlar ishlatilganligi, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Yusuf Bolasog'uniyning "Qutadug'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq", Zamaxshariyning "Muqaddimat al-adab", Sayfi Saroiyning "Guliston bi-t-turkiy", Qutbning "Xisrav va Shirin",

Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” kabi asarlaridan olingan misollar bilan isbotlab berilgan.

Iqtisodiy terminlar orasida sinonimiya masalasi tilshunoslar uchun ham, tarjimonlar uchun ham muhim o‘rinni egallaydi. Chunki iqtisodiyotga oid matnlar iqtisodiyotning qaysi tarmog‘iga tegishli ekanligiga qarab leksik va grammatik birliklar tanlanadi. Ayniqsa koreys tilida sinonimiya birmuncha murakkabdir. Mazmuni bir qo‘llanilishi turli xil yoki umuman qo‘llanilishi ham bir xil bo‘lgan leksik va grammatik vositalar talaygina. O‘zbek tilidan koreys tiliga tarjima qilishda bu eng murakkab muammodir.

Foyda – 이익, 이득, 편익, 소득, 수익, 이윤, 소용, 효용, 쓸모. Mazkur sinonimlarning farqini ko‘rib chiqamiz:

이익 (利益) – 기업의 결산 결과 일체의 부채와 경비를 제하고 남은 금액 profit, gains, returns, benefit⁵². Korxonaning daromatidan xarajatlar ayirib tashlangan holdagi sof foyda.

이득 (利得) – 이익을 얻음. 또는 그 이익 profit⁵³; foyda ko‘rish yoki ko‘rilgan foyda.

수익 (收益) – 이익을 거두어 들임. 또는 거두어 들인 이익. 생긴 이익 earnings, profit⁵⁴; foydaga erishish yoki erishilgan foyda. Vujudga kelgan foyda.

소득 (所得) - 세법에서 일정 기간의 근로, 사업, 자산 등에서 얻는 수입. 또는 거기서 필요 경비를 뺀 잔액⁵⁵. Belgilangan soliq hisoboti davrida mehnat, tadbirkorlik va aktivlardan olinadigan foyda yoki undan kerakli xarajatlar ayirib tashlangan holdagi balans.

이달에는 소득이 많았다. Bu oyda foyda ko‘p bo‘ldi.

이윤 (利潤) – 장사하여 남은 돈 profit⁵⁶; tijoratdan orttirilgan daromad.

소용 (所用) – 쓸 데. 쓰임 useful thing⁵⁷; foydali narsa.

⁵²정운길 새로운국어사전국어문학회감수.민중서관.-서울, 2002.2002쪽.

⁵³정운길 새로운국어사전국어문학회감수.민중서관.-서울, 2002.1988쪽.

⁵⁴정운길 새로운국어사전국어문학회감수.민중서관.-서울, 2002.1502쪽.

⁵⁵정운길 새로운국어사전국어문학회감수.민중서관.-서울, 2002.1444쪽.

⁵⁶정운길 새로운국어사전국어문학회감수.민중서관.-서울, 2002.2001쪽.

Demak, mazkur terminlar sinonim bo'lsa-da, ular o'rtasida ma'no nozikligi farqlari bor.

Terminologiya sohasidagi sinonimiya, ayrim terminlar qo'llanishdagi har xilliklar, imloviy qoidalarga rioya qilmaslik, iqtisodiyot yo'nalishlari bo'yicha lug'atlar yaratilmaganligi ana shu hal etilmayotgan masalalar qatoriga kiradi.

2.2. O'zbek tilida iqtisodiy terminlar va ularning koreys tiliga tarjimasida leksik birliklarning berilishi

Respublikamiz o'z mustaqilligiga, ona tilimiz esa Davlat tili maqomiga erishgan bugungi kunda turli fanlar, jumladan, o'zbek tilshunosligi oldida yangidan-yangi vazifalar yechimi ko'ndalang bo'lmoqda.

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy-texnik tub o'zgarishlar davrida yangi-yangi fanlar va tushunchalar yuzaga kelmoqda. Jumladan, o'zbek tilida ham yangi terminlar paydo bo'lmoqda, ilgaridan qo'llanilib kelingan qator leksemalar yangi ma'nolar kasb etmoqda. Shu boisdan leksikologiya, xususan, terminologiya oldida qator muhim masalalarni yechish vazifasi turibdi.

Dissertatsiyada ijtimoiy-siyosiy hamda sotsial iqtisodiy terminlarning paydo bo'lish tarixiga, ularning yasash qonuniyatlariga hamda boshqa tillardan o'zlashtirilgan terminlar hisobiga boyishi masalalariga alohida e'tibor berilgan. Mustaqillikdan so'ng iqtisod sohasida o'zbek tili bazasida darslik, qo'llanma va lug'atlar yarata oladigan, soha terminlarini tartibga solish bilan shug'ullana oladigan mahalliy kadrlarni yetishtirish muhim vazifa bo'lib qoldi.

Bir qator chora-tadbirlar tufayli O'zbekistonda iqtisod fani va iqtisodiyot terminologiyasini tartibga solish, iqtisod fanini o'qitish sifatini oshirish imkoniyati yaratildi. Natijada iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari uchun tarjima darsliklari bilan bir qatorda o'zbek mualliflari mustaqil ravishda yaratgan iqtisod darsliklari, qo'llanmalari hamda bir qator terminologik lug'atlar yuzaga keldi.

⁵⁷정운길, 새로운 국어사전, 국어문화회, 감수. 민중서관, 서울, 2002. 1453쪽.

Bu darslik va lugʻatlar oʻzbek iqtisodiyot terminologiyasini tartibga solish hamda uning yanada rivojlanishi uchun asosiy manba boʻlib xizmat qilmoqda.

Hozirgi davr bozor iqtisodiyoti oʻzbek tili iqtisodiyot terminologiyasining muayyan taraqqiyoti va takomillashuviga oʻz taʼsirini koʻrsatmoqda.

Maʼlumki, dunyoning aksariyat mamlakatlarida bozor iqtisodiyoti asosida ish yuritiladi. Bozor hamma joyda sotuvchi bilan xaridor oʻrtasidagi munosabatlarni yuzaga chiqaruvchi makondir. Bozor hozirgi davrda erkin iqtisodiyot degan tushunchani anglatadi. Darhaqiqat, iqtisodiyot taraqqiyotida ixtiyoriylik boʻlmasa, uning obyektivligi yoʻqoladi. Ozod iqtisodiyotda esa raqobat hukmronligi mustahkamlanib boradi. Oʻzbekiston bozor iqtisodiyoti tomon ilk qadam qoʻydi va bozor iqtisodiyotiga oʻtish davriga kirib bormoqda.

Bozor iqtisodiyoti islohotlar tufayli oʻziga yoʻl ochayapti. Iqtisodchilar, olimlar va mutaxassislar bozor munosabati masalalarini sinchkovlik va qiziqish bilan oʻrganmoqdalar: turli monografiya va risolalar, darsliklar, oʻquv qoʻllanmalar, lugʻatlar yangidan yaratildi va yozilmoqda. Hozirgi davr oʻzbek iqtisodiyoti terminologiyasi muayyan taraqqiyot va takomillashuv yoʻlini bosib oʻtayotgan boʻlishiga qaramay, unda hamon hal qilinmagan bir qator masalalar mavjuddir.

Soʻnggi yillarda va bugungi kunda terminologiyaning amaliy va nazariy masalalarini yanada chuqurroq oʻrganish, terminlar yaratish va ularni qoʻllashni til qonuniyatlari asosida tartibga solish davlat ahamiyatiga molik muammoga aylandi. Shuning uchun ona tilimizning turli terminologik tizimlarini yanada teranroq tadqiq etish, ularni terminologiyaning xilma-xil masalalari boʻyicha atroflicha tadqiq qilish, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir⁵⁸.

Oʻzbek tili terminshunoslik sohasining hozirgi darajasi, ilmiy qiymati bevosita rus hamda boshqa xalqlar terminshunoslarining ishlari bilan chambarchas bogʻliq. Shu jihatdan qaraganda, N.A. Baskakov, L.A. Bulaxovskiy, G.O. Vinokur, V.V. Vinogradov, A.A. Reformatskiy, D.S. Lotte, S.A. Chapligina, T.L. Kandelaki, V.P. Danilenko kabi oʻnlab terminshunos

⁵⁸ Husanov N., Mirahmedova Z. Iqtisodiy atamalar va ish yuritish.-T., 2005. B. 9.

olimlarning ishlari o'zbek terminshunosligining qaror topishiga o'zining katta hissasini qo'shdi. Turkiy xalqlar tilshunoslarining, jumladan, M.Sh. Gasimov, B.U. Oruzbayeva, R.A. Urekenova, F.S. Faseyev kabi olimlarning ishlari ham o'zbek terminologiyaning rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi. Ma'lumki, tilshunoslikning eng dolzarb, g'oyatda murakkab, ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lgan sohasi terminologiyadir.

XX asrning 30-yillari o'zbek tilining ko'plab terminologik lug'atlari tuzilib nashr etildi. Shu jarayonda terminlar tarixi, terminlarning ma'no va mavzu guruhlari, grammatik tuzilishi va yasalishi, taraqqiyot yo'li va boyish manbalari haqida nazariy masalalari ham ishlab chiqildi.

O'zbek tilshunosligida turli fan sohaslariga oid terminologik tizimlarni lingvistik jihatdan har tomonlama ham ilmiy, ham amaliy o'rganish ikkinchi jahon urushdan keyin, asosan, 1950-yillardan keyin izchilroq tus ola boshladi; termin va terminologiyaning nazariy masalalariga bag'ishlangan maqolalar ayrim fan sohalari terminlarini lingvistik jihatdan tahlil etishga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyalari yuzaga keldi, mukammal terminologik lug'atlar yaratishga kirishildi⁵⁹.

Prof. U. Tursunov⁶⁰ ning terminologiya masalalariga bag'ishlangan asarlarida ikki muammo alohida o'rin tutadi: 1. Terminlarning qo'llanilishi. 2. Terminologiyaning boyish manbalari.

Terminlar qo'llanilishi haqida fikr yuritar ekan prof. U. Tursunov ularni uch guruhga ajratib tahlil qiladi: a) bir sohada qo'llaniladigan terminlar; b) har xil sohada qo'llaniladigan terminlar; v) termin ham oddiy so'z sifatida qo'llaniladigan terminlar.

Prof. U.Tursunov asarlarida o'zbek tili terminologiyasining boyish manbalari batafsil yoritib, o'zbek tili terminologik tizimining ichki va tashqi manbalar hisobiga rivojlanishi haqida ma'lumot beradi. O'zbek tili terminologik tizimlarining rivojlanishi, shakllanishi va takomillashuvida shu tilning ichki

⁵⁹ Husanov N. Mirahmedova Z. Iqtisodiy atamalar va ish yuritish.-T., 2005. B. 10.

⁶⁰ Tursunov U. O'zbek terminologiyasi masalalari.-T., 1933.

imkoniyatlari asosiy rol o'ynaydi. Chunki hayotda ro'y berayotgan ulkan o'zgarishlar, fan va texnika hamda madaniyatning rivojlanishi tilning ichki imkoniyatlaridan maksimal foydalanishni taqozo etadi. Har bir tilda bo'lganidek, o'zbek tilida ham u yoki bu tushunchani ifodalash uchun bir qancha usullardan foydalanadilar. Ular quyidagilardan iborat:

Iqtisodiy terminlarning yasalishida, asosan, quyidagi uch xil usuldan foydalaniladi.

a) morfologik (yasovchi qo'shimchalar orqali): - chi, - ma, - kor, - dor, - noma, - ot (at, yot, yat), - xona, - lik, - xo'r, - m (-im), -v (-ov), - q,- iq, - gar, - be, - siz; chilik, - korlik, - lilik, - dorlik.

b) semantik (birikmadagi so'zlarning ko'chma ma'no yaratishi); narx darajasi, foyda miqdori; bozor mexanizmi; pul massasi, o'zgaruvchan xarajat; qarz o'simi, pul undirish; yetakchi valyuta; o'rmalovchi inflyatsiya, suzib yuruvchi inflyatsiya.

c) sintaktik. (ikki yoki undan ortiq terminlarning birikishi); ot+ot: bozor narx; bojxona boshqarmasi, davlat qarzi; mahsulotning bahosi; daromadning taqsimlanishi; sifat+ot: sof daromad, muqobil savdo; muddatli omonat, ustama haq, vorissiz mulk, ortiqcha xarajat, xususiy mulk, baholovchi shaxs⁶¹.

O'zbek tili lug'aviy tarkibining asosini tashkil etuvchi asli o'zbekcha, fors-tojikcha, arabcha leksemalardan iborat iqtisodiy terminlar sinonimiyasini darslik va qo'llanmalarda, lug'atlarda va boshqa manbalarda bot-bot uchratib turish mumkin: *foydaxo'r-chayqovchi, nazoratchi-tekshiruvchi, xaridor-buyurtmachi, qarzdor-nasiyador, xaridor-mijoz, pul-aqcha, bitim-shartnoma, chorakor-koranda, daromad-kirim, xarajat-chiqim, sarf-xarajat-chiqim, sarmoya-mablag', mezon-o'lchov-belgi, boshqarma-mahkama, uyushma-birlashma, ustama-qo'shimcha.*

Terminologik tizimlarning shakllanishi va qaror topishi sohasidagi kuzatishlardan shunday holat ayon bo'ladiki, o'zbek iqtisodiyot terminologiyasi

⁶¹ O'zbek tili terminologiyasi.-N., 2012. B. 13.

ham, asosan, ikki manba: o'zbek tilining ichki imkoniyatlari va xorijiy tillar unsurlari (so'z va so'z birikmalari) asosida rivojlanib va boyib borgan. Bu manbaning birinchisi asli o'zbekcha (ba'zilar umumturkiy) tub leksik qatlam, o'zbek tilida qadimda iste'molda bo'lgan yoki iqtisod sohasida yangi tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qilgan lug'aviy birliklar hamda ular asosida ona tilining so'z yasovchi vositalari bilan yangidan hosil qilingan terminlar hisoblanadi. Ikkinchisi, o'zga tillar, aniqrog'i, fors-tojik arab va rus tilidan o'zlashtirilgan qatlamdir.

Bu o'rinda shuni qayd etish lozimki, muayyan kasb-hunar yoxud mutaxassislikka ega bo'lgan kishilar ko'pincha u yoki bu sohaning o'ziga xos spetsifik terminlari bilan ish ko'radi. Masalan, bo'lajak iqtisodchilarning yozma yoki og'zaki nutqida kartel, kliring, tovar oboroti, mayda mulkchilik, mablag' ajratish, renta kabi tor doiradagina qo'llaniladigan terminlar ishlatilishi tabiiy bir holdir. O'z-o'zidan ayonki, bu xildagi terminlar iqtisodiyotdan uzoqroq biror kasb egasining nutqida ishlatilmaydi. Shu bilan birga, iqtisodiyot sohasining qator terminlari ham borki, ular muayyan til egalarining deyarli barchasi nutqida bab-baravar ishlatiladi. *Bozor, mol, savdo, savdo-sotiq, pul, xaridor, bozorchi, olib-sotar, chayqovchi* kabilar shular jumlasidandir⁶².

Iqtisodiyot terminologiyasining yuzaga kelish va taraqqiyot bosqichlarini, uning o'ziga xos xususiyatlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida iqtisodiy terminlar quyidagi tarzda shakllanmoqda:

1. O'zbek tilida iqtisodga oid tushunchalarni aniq ifodalovchi qator leksemalar qadim-qadimdan qo'llab kelinmoqda. O'zbek adabiy tili boyligining bir qismi o'laroq, bunday so'zlar keyinroq, konkret terminologik tizim vujudga kela boshlashi bilan iqtisod fanining maxsus tushunchalarini ifodalash uchun jalb qilina boshladi: *haq, bitim, pay, garov, dallol, pul, so'm, sug'urta, savdo, omonat, g'amlama* va boshqalar.

2. Iqtisodiyot bilan aloqasi bo'lmagan, boshqa-boshqa sohalarda qo'llanadigan terminlar ham maxsuslashtirilayapti, ya'ni iqtisodiy terminlar

⁶² Husanov N. Mirahmedova Z. Iqtisodiy atamalar va ish yuritish.-T., 2005. B. 11.

sifatida ishlatilmoqda: *taklif, sohibkor, o'sim, qoldiq, daraja, palata, yetakchi, yig'im, qaydnoma, baho, xo'jalik*. Semantik-sintaktik usulda so'z yasalishi natijasida boshqa sohalarga tegishli so'zlar iqtisodiyot terminologiyasining mulkiga aylanmoqda: *daromadning qoldig'i, bozor hajmi, foyda miqdori, qiymat solig'i, kreditning elastikligi, talabning egiluvchanligi, o'zgaruvchan narx, pul massasi, pul undirish, iqtisodiy o'sish, etakchi valyuta, o'rinbosar tovarlar, o'rmonlovchi inflyatsiya*.

Demak, yuzlab leksemalar iqtisodiy terminologik tizimda yakka holda ham, so'z birikmalarining tarkibiy qismlari sifatida ham ushbu soha terminlari sifatida qo'llanilayapti.

3. Iqtisodiyot terminologiyasining boyishidagi yana bir manba, bu iqtisodiy tushunchalarni ifodalash uchun xilma-xil affikslar ishtirokida hosil qilingan yasama lug'aviy birliklar hisoblanadi: *ijarachi, nazoratchi, moliyachi, iqtisodchi, iste'molchi, jamg'arma, uyushma, ustama, undirma, tejamkor, tadbirkor, iqtisodiyot, hisobot, raqobat, ta'minot, bojxona, zarbxona, qarzdor, sarmoyador, mulkdor, xaridor, hissador, shartnoma, omonatnoma, so'rovnoma, boylik, rentabellik, bebaho, befoyda, merosxo'r, sudxo'r, kirim, chiqim, bitim, to'lov, o'lchov, mulkchilik, tejamkorlik, unumlilik, aksiyadorlik*.

4. Hozirgi o'zbek tili lug'at tarkibida, uning iqtisodiy terminlar tizimida yuqoridagidek umumturkiy, o'zbek terminlari bilan bir qatorda fors-tojikcha, arabcha leksemalar ham qo'llanilmoqda: *sarmoya, davlat, tijorat, tojir, maosh, mablag', sarkor, daromad, dastmoya, manfaat*.

5. O'zbek tili iqtisodiyot terminologiyasi ruscha-baynalmilal terminlar hisobiga ham boyib bormoqda: *avans, aktiv, aktsiz, byudjet, birja, buxgalter, bank, balans, biznes, veksell, valyuta, debitor, demping, dotatsiya, diller, kredit, kassir, litsenziya, lizing, menejment, saldo, tarif va boshqalar*.

Ba'zi ruscha-baynalmilal iqtisodiy terminlar o'zbek tiliga tarjima qilindi yoki muqobil varianti qo'llanilmoqda: *auksion – kimoshdi savdosi, barter – ayirboshlash, brakeraj – saralash, garant – kafil, defitsit – taqchilik, dolya – hissa, kapital – sarmoya, makler – dallol, oborot – aylanma, ssuda – qarz, schet*

– *hisob*. Terminlarning bir qismi tegishli ruscha-baynalmilal muqobillarining o‘zbek tilidagi kalkasi sifatida yuzaga kelgan.

Umuman, o‘zbek iqtisodiyot terminologiyasi mustaqillikdan so‘ng yangi bosqichga ko‘tarildi va har lahzada yangi-yangi terminlar yuzaga kelmoqda. Tilshunoslikda terminlarni tartibga solish masalasi har doim ham dolzarb bo‘lib kelgan va bugun ham bu masala o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

H. Dadaboyevning dissertatsiya ishiga obyekt qilib olingan XI-XIV asrlar yozma yodgorliklari tilidagi qiyoslash uchun olingan ijtimoiy-siyosiy va sotsial iqtisodiy terminlardan bugungi kunda uyg‘ur tilida 348, qozoq tilida 220, qirg‘iz tilida 244, turk tilida 370, o‘zbek tilida esa 390 tasi ishlatilar ekan⁶³.

O‘zbek tilining iqtisodiy terminlari iqtisodiyotning turli sohalariga bog‘liqdir. Ularni ixtisosliklardan kelib chiqqan holda quyidagicha guruhlariga ajratish mumkin:

1. Bank ishi: *milliy valyuta, so‘m, qiymat, narx, talon, kupon, jamg‘arma, xazina, qog‘oz pul, banknot, veksel, chek, kredit kartochkalari, pul oboroti, pul massasi, pul agregati, bank, pul tizimi, metallik nazariyasi, miqdoriylik nazariyasi, pul muomalasi, inflyatsiya, kredit, tijorat krediti, bank krediti, davlat krediti, xalqaro kredit, kreditning chegaralari, lizing, hisobli kredit, lamsbardli kredit, lizing operatsiyalari, lizing shartnomasi, kredit mexanizmi, kredit yig‘indisi, foiz stavkasi, kredit xavf-xatari, aktiv, passiv, foiz marjasi, eksportli kredit, muammoli ssuda.*

2. Soliq va soliqqa tortish: *soliq obyekt, soliq subyekti, soliq manbalari, soliq normasi, soliq birligi, soliq stavkasi, soliq deklaratsiyasi, soliq siyosati, soliq mexanizmi, soliq tizimi, to‘g‘ri soliq, egri soliq, bojxona boji, davlat boji, ijara haqqi, to‘lov, yig‘im, daromad solig‘i, foyda solig‘i, avans to‘lovlari, foyda, yalpi foyda, korxonalar daromadi, soliq to‘lovchi, qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz, aksiz solig‘i, yer solig‘i, mol-mulk solig‘i, aholi solig‘i, soliq idorasi, soliq qo‘mitasi, soliq qonunchiligi.*

⁶³ Дадабоев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. –Т., 1994.

3. Moliya: *moliya funksiyasi, moliya siyosati, moliya nazariyasi, moliyaviy nazorat, moliyaviy resurs, moliyaviy munosabat, iqtisodiy munosabat, mulkiy munosabat, davlat byudjeti, amortizatsiya ajratmalari, amortizatsiya fondi, ish haqi fondi, rag‘batlantirish fondi, taqsimlash, tartibga solish, pensiya fondi, bandlik fondi, moliya rejasi, daromad va xarajat balansi, biznes reja, rejalashtirish, xo‘jalik subyekti, xayriya fondi, yalpi ichki mahsulot va boshqalar*⁶⁴.

“Bozor munosabatlariga o‘tishning asosiy sharti ko‘p ukladli iqtisodiyotni va raqobatlashish muhitini shakllantirishning huquqiy, tashkiliy shart-sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat”⁶⁵.

“시장 경제로의 이행에 근본적인 조건의 하나는 다원적 경제구조와 자유경쟁의 환경을 위해 필요한 법적 조직적 기반을 갖추는 일이다”⁶⁶.

“Bozor munosabatlari” tarjimada “시장 경제” (“bozor iqtisodiyoti”) termini bilan almashtirilgan. Gapda mazmunan bozor iqtisodiyoti nazarda tutilayotganini inobatga olsak, tarjimon adekvatlikka erishgan. Agar “munosabat” so‘zi tarjimada berilganida “bozor iqtisodiyoti” mazmuni koreys kitobxonini uchun biroz tushunarsiz bo‘lar edi.

“Ko‘p ukladli iqtisodiyot” so‘zi tarjimada 다원적 경제구조 (ko‘p asosli iqtisodiy tizim) deb tarjima qilingan. Bu birikmani so‘zma-so‘z tarjima qilinsa:

다원적 (多元的) – 많은 근원 있는 것. 근본 요소가 많은 것; plural ⁶⁷ ;
плюралистический⁶⁸; plyuralistik;

구조 (構造) – 사물을 이루고 있는 것의 상호 간의 기능적 연관; structure, construction⁶⁹, tizim.

다원적 경제구조 (多元的 經濟構造) – ko‘p asosli iqtisodiy tizim.

Bunda tarjimon adekvatlikka erishgan.

⁶⁴ Husanov N. Mirahmedova Z. Iqtisodiy atamalar va ish yuritish.-T., 2005. B. 106.

⁶⁵ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. T., 1996. B. 202.

⁶⁶ 이슬람 카리모프. 우즈베키스탄의 경제개혁.27 쪽.

⁶⁷ 정운길. 새로운 국어사전.국어문화회감수.민중서관.-서울, 2002.-591 쪽.

⁶⁸ 최신한국어-러시아어사전.김문옥.편집자:김춘식.문예탑.-서울, 2009.333 쪽.

⁶⁹ 정운길. 새로운 국어사전.국어문화회감수.민중서관.-서울, 2002.-318 쪽.

“Raqobatlashish” soʻzi tarjimada “자유경쟁” (“erkin raqobat”) deb oʻgʻirilgan. Bunda tarjimon bozor iqtisodiyotida erkin raqobat muhitiga asoslanganini eʼtiborga olgan boʻlishi ehtimoldan xoli emas.

Koʻrib chiqilganidek, iqtisodiy matnlar tarjimasi jarayonida tarjimon mazmuni eʼtibordan chetda qoldirmaydi. Baʼzi oʻrinlarda bir soʻz ayni oʻsha soʻzga teng keladigan soʻz bilan emas, mazmuni yetkazib bera oladigan tarzda tarjima qilish holatlari ham uchrashining guvohi boʻldik.

Iqtisodiy terminologiya oʻziga xos xususiyatlarga ega. Baʼzan terminlar koʻplab maʼnolarga ega boʻladi. Iqtisodiy matnlarda maxsus leksika va terminlardan tashqari umumisteʼmoldagi leksika ham uchraydi. Lekin bunda quyidagini inobatga olish kerak: umumisteʼmoldagi leksikaning bir qismi tarjima jarayonida qiyinchilik tugʻdirmaydi, jumladan, 글로벌 – global, 펀드 – fond, 비즈니스 – biznes kabi terminlar ingliz, rus va oʻzbek tillarida birdek tushunarlidir. Bunday umumisteʼmoldagi soʻzlar tarjima jarayonida yengillik beradi.

Koʻplab umumisteʼmoldagi soʻzlar koreys tilida oʻz variantiga egadir. Masalan, bank – 은행, ofis – 사무실, krizis – 위기 kabilar ingliz, rus va oʻzbek tillarida barcha uchun tushunarli va qoʻllaniladi.

Quyida Navoiy erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish uchun Prezident farmoyishidan parcha keltiramiz.

“Jahon standartlariga javob beradigan va jahon bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni taʼminlaydigan, zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiyalarni jalb etish boʻyicha qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, Navoiy viloyatining sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida”⁷⁰.

Parcha koreys tiliga quyidagicha tarjima qilingan.

⁷⁰ Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish toʻgʻrisida. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.

“세계적 기준과 세계시장에서의 요구에 부합하는 제품의 생산을 위한 현대적 첨단산업을 육성하고, 또한 "나보이"주의 산업잠재력 및 생산, 운송, 수송, 사회 기반 시설의 개발을 위한 외국인 투자, 특히 직접투자를 유치하기 위한 유리한 조건을 조성하기 위하여...”⁷¹.

Jahon bozori – “세계시장” (segye shijang) deb o’girilgan bo’lib, koreys tilida ham bu tushuncha so’zma-so’z 세계시장 (dunyo bozori) deb o’girilgan. “to’g’ridan-to’g’ri investitsiya” – “직접투자” (直接投資) (chikjop thuja) xorijiy investitsiya – “외국인 투자” (vegugin thuja) kabilar so’zma so’z aynan mos ekvivalentiga ega.

“Infratuzilma” so’zi o’zbek, rus, ingliz tillarida aynan bir xil ekvivalentga ega, ya’ni rus tilida – инфраструктура, ingliz tilida – infrastructure, lekin koreys tili o’z variantiga ega – 기반 시설 (基盤 施設) (kiban shisol).

Mahsulot ishlab chiqarish - 제품의 생산 (生産)

Koreys tilida 제품, 상품 kabi so’zlar borki, ular o’zbek tiliga birdek tovar, mahsulot deb tarjima qilinadi. Lekin ularning qo’llanilish o’rni turlichadir va izohli lug’atda ularga turlicha ta’rif beriladi:

제품 – 원료를 써서 만들어 낸 물품. - Xom-ashyodan foydalangan holda yaratilgan mahsulot.

상품 – 팔 목적으로 생산된 유형 또는 무형의 재화.동산과 같이 상거래를 목적으로 하는 물건. - Sotish maqsadida ishlab-chiqarilgan mahsulot.

Shundan kelib chiqqan holda, tarjimon “mahsulot ishlab chiqarish” ifodasini 제품의 생산 (生産) deb o’girib adekvatlikka erishgan.

“O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi (tarjimada tushirib qoldirilgan), Moliya vazirligi va Navoiy viloyati hokimligining Navoiy shahri xalqaro aeroporti hududida “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zona (keyingi o’rinlarda –EIIZ) tashkil etish to’g’risidagi taklifiga rozilik berilsin. “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zona hududida xo’jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining asosiy

⁷¹ 박노형. 우즈베키스탄 기업투자법제 연구: "나보이"주 산업경제자유지역 설치에 관한 우즈베키스탄공화국 대통령령/2008년 12월 2일, 제UP-4059호. 서울.-2009.

yoʻnalishi – zamonaviy xorijiy yuqori unumli asbob-uskunalar va texnika, texnologik liniyalar va modullar, innovatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga yuqori texnologiyali, jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarni keng koʻlamda ishlab chiqarishdan iborat etib belgilansin”⁷².

“나보이 국제공항 일대에 "나보이" 산업경제자유지역 (이하 "나보이" 경제특구)를 설립하는 데에 관한 우즈베키스탄공화국 경제부, 대외경제부, 재무부와 나부이주 지방자치정부의 안을 수락한다. "나보이" 산업경제자유지역 내의 경제주체의 주된 활동을 현대적 고성능 장비와 기술, 기술적 생산공정과 모듈, 혁신적 기술의 도입을 통해 세계 시장에서 경쟁력을 갖춘 다양한 종류의 제품을 생산하는 것으로 규정한다”⁷³.

Bu yerda erkin industrial-iqtisodiy zona – 산업경제자유지역 (산업 (産業) – sanoat, 경제 (經濟) – iqtisod, 자유 (自由) – erkinlik, 지역 (地域) – zona) soʻz birikmasi bilan berilgan. Bizning variantimizda esa buni aslyat bilan bir xilda 자유산업경제지역 tarzida tarjima qilish mumkin edi. Matnning keyingi oʻrinlarida bu aslyatda “EIIZ” qisqartmasi bilan berilgan boʻlsa, tarjimada “경제특구” – maxsus iqtisodiy zona tarzida tarjima qilingan.

Xoʻjalik yurituvchi subyektlar – 경제주체 (經濟主體) – 경제 활동에 있어서의 주체 economic body⁷⁴, iqtisodiyot subyektlari.

Raqobatbardoshlik – 경쟁력, raqobatbardosh – 경쟁력을 갖춘, 경쟁력 있는 kabi tarjima qilish mumkin.

“...Pinhoni bozor deganda qonunchilik tomonidan taqiqlangan tovar va xizmatlar bilan oldi-sotdi qilish yoki faoliyat bilan shugʻullanish tushuniladi”⁷⁵

“비밀 시장이란 법적으로 판매가 금지되어 있는 물건을 판매하거나 그런 활동을 하는 것이다.

⁷² Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish toʻgʻrisida. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.

⁷³ 박노형. 우즈베키스탄 기업투자법제 연구: "나보이"주 산업경제자유지역 설치에 관한 우즈베키스탄공화국 대통령령/2008년 12월 2일, 제UP-4059호. 서울.-2009.

⁷⁴ 새로운국어사전. 정운길. 국어문화회감수. 민중서관.-서울, 2002.-181 쪽.

⁷⁵ Axmadjonov A., Aliqulov M. Jahon mamlakatlari moliya tizimida davlat ulushi b oʻlgan banklarning tutgan oʻrni.-T., 2014. B. 18.

“To‘yingan bozor” ya’ni tovarlar talabga yetarli bo‘lgan bozor”⁷⁶.

“Shubhali kreditlar” deb 3 to‘lov davrida foiz yig‘indisi to‘lanmagan va bir marta asosiy qarz yig‘indisi to‘lanmagan kreditlarga aytiladi”⁷⁷.

“의심스러운 크레디트»이란 삼변 지불시에 이자율이 지불되지 않은 그리고 한번 주빚금이 지불되지 않은 크레디트를 뜻한다”.

“Kredit” so‘zining koreys tilida bir necha sinonimlari mavjud: 대변, 대변 기입액, 크레디트, 신용, 신용 대부, 외사 판매, 채권, 예금⁷⁸.

대변 (貸邊 tebyon) – 복식 부기에서, 장부상의 계정 계좌 오른쪽 (자산의 감소, 부채나 자본의 증가 등을 기입함) – the credit⁷⁹.

대출 (貸出 techul) – 1. 어떤 기관이나 단체 등에서 돈이나 물건 등을 빚으로 꾸어 줌. 2. 은행의 어음 할인, 어음 대부, 당좌 대월, 증서 대부의 총칭 loan⁸⁰.

당좌 대월 (當座貸越 tanchua tevol) – 은행이 일정 기간, 일정 금액을 한도로 하여 거래선이 당좌 예금 잔액 이상으로 수표를 발행하여도 지급에 응하는 일. 또는 그 초과분⁸¹.

신용 (信用 shinyong) – 거래서 물건을 먼저 주고받은 다음, 물건 값을 뒷날 치르는 거래 credit⁸².

예금 (預金) – 일정한 계약에 의하여 은행이나 우체국 등의 금융 기관에 돈을 맡기는 일⁸³.

외상 (vesang) – 값은 나중에 계산하기로 하고 물건을 먼저 가져가는 일 credit⁸⁴.

크레디트 (khirediti) – 1. 신용 차관. 2. 신용 거래. 3. 신용 판매. 4. ‘크레디트 카드’의 준말 a credit⁸⁵.

⁷⁶ Axmadjonov A., Aliqulov M. Jahon mamlakatlari moliya tizimida davlat ulushi b o‘lgan banklarning tutgan o‘rni.-T., 2014. B. 19.

⁷⁷ Axmadjonov A., Aliqulov M. Jahon mamlakatlari moliya tizimida davlat ulushi b o‘lgan banklarning tutgan o‘rni.-T., 2014. B. 18.

⁷⁸ 김병일.우즈베크어 한국어사전.사마르칸드국립외국어대학교.- T., 2008.241bet

⁷⁹ 정운길.새로나온국어사전.국어문학회감수.민중서관.-서울, 2002.-636쪽.

⁸⁰ 정운길.새로나온국어사전.국어문학회감수.민중서관.-서울, 2002.-663쪽.

⁸¹ 정운길.새로나온국어사전.국어문학회감수.민중서관.-서울, 2002.-619쪽.

⁸² 정운길.새로나온국어사전.국어문학회감수.민중서관.-서울, 2002.-1571쪽.

⁸³ 정운길.새로나온국어사전.국어문학회감수.민중서관.-서울, 2002.-1805쪽.

⁸⁴ 정운길.새로나온국어사전.국어문학회감수.민중서관.-서울, 2002.-1862쪽.

Soʻzlarning izohli lugʻatdagi maʼnolarini koʻrib chiqqanimizda bizga kerakli maʼnoga ega boʻlgan soʻzlar qatorini bir muncha soddalashtirishga ega boʻldik: 크레딧 (khirediti), 당좌 대월 (tanchua tevol), 대출 (techul). Tarjima matni oʻquvchisiga yanada tushunarliroq boʻlishi uchun umumisteʼmoldagi 크레딧 soʻzini qoʻllash toʻgʻri boʻladi.

2.3. Koreys tilida iqtisodiy terminlar va oʻzlashmalar

Koreya Respublikasida atamashunoslik “ideal termin” nazariyasidan terminni “oʻziga xos funksiyaga ega soʻz” deb tan olingunga qadar koʻp yoʻlni bosib oʻtdi. Zamonaviy ilm-fan doirasida terminlar tabiati muammosi hali hanuz oʻz yechimini topmagan. Bu esa terminologik birliklarning semantik, struktur va genetik jihatdan turfa xilligi hamda periferik terminlarning paydo boʻlishi bilan bogʻliq. Shuning uchun bilim doirasidagi turli ilmiy matnlarda uchraydigan “terminologik birliklar” haqida aniq bir narsa deb boʻlmaydi. Quyida terminlarning shunday sifatlarini koʻrib chiqamiz: maʼlum sohaga tegishli boʻlgan tushunchalarni nomlash va taʼriflashga xizmat qiluvchi soʻz va soʻz birikmalari.

Janubiy Koreya lingvistikasida terminologik birliklar kelib chiqishi, strukturasi va funksiyasi nuqtai nazaridan oʻrganiladi. Milliy anʼanalarga koʻra koreys tili lingvistikasida terminologiya maktablari hali rivojlanish bosqichiga yetmagan, koreys atamashunosligi toʻliq ishlab chiqilgan nazariyaga ega emas, faqatgina lugʻatlar tuzilishi uchun amaliy yoʻnalishga ega, xolos. Janubiy Koreya lingvistikasiga bir yoʻnalishlilik xos boʻlib, unda asosan, “dolzarb” boʻlgan mavzularda tadqiqot qilishga intiladilar. Masalan, chet tilidan oʻzlashgan soʻzlar va neologizmlarning standartlashuvi⁸⁶.

Koreys tilida “termin” soʻzi ikki koʻrinishga ega: biri “학술어” (Xaksuro) – (학술 연구상의 특정한 뜻으로 쓰이는 전문적인 용어 – technical terms) ilm-fan va texnik yoʻnalishlarda qoʻllaniladigan maxsus soʻzlar boʻlsa, ikkinchisi “용어”

⁸⁵ 옛센스 국어사전. 민중서림.

⁸⁶ Kim B.H., Kim T.C. Социально-политическая терминология.-Т., 2009. С. 20.

(Yongo) – (일상 생활에 쓰는 말-a term) kundalik hayotda qo‘llaniladigan so‘zlar bo‘lib, u yoki bu sohalarda ishlatiladi.

Ikki tilli lug‘atlarda esa quyidagicha tarjima qilinadi: “용어” (Yongo) so‘zi:

1. Термин, терминология, терминосистема; 2. Жаргон, язык, профессиональный язык; фразеология; лексика; термин, терминология, номенклатура .

Koreys tilshunosligida terminlar qat’iy chegaralanmagan. Chunki ular faqatgina tizimlashtirilgan va unifikatsiya qilingan, nazariy analiz qilinmagan.

Tarixiy yodgorliklarga ko‘ra Koreya yarim oroli va Janubiy Koreyada zamonaviy “iqtisodiy terminologiya”ning vujudga kelishi, shakllanishini quyidagi tayanch davrlarga bo‘lish mumkin.

1. Koreys tilida asosiy o‘zgarishlar XIX asrda yuz berdi. Koreys milliy alifbosi XV asrda qirol Sejong va olimlar tomonidan yaratilgan bo‘lishiga qaramay u 1895-yilda qirolning qarori bilan davlat yozuvi – “국문”, koreys tili – “조선어” esa davlat tili deb qabul qilindi. Bu paytdan boshlab, so‘zlarning ma’noli morfemalari xitoy tilidan kelib chiqqanligi sababli xitoy iyeroglifida, grammatik birliklar esa koreys alifbosida yozila boshladi. Mamlakatda koreys tili mavqeini oshirishda “개화 운동” (Kexva undong) harakatining namoyondalari qilgan xizmatlari muhim rol o‘ynaydi. Koreys lingvistlari koreys tiliga oid yozma manbalar 1860-yildan “통학” (Tonhak) milliy tiklanish harakati tufayli vujudga kela boshladi deb hisoblaydilar. Xalq orasida koreys tilining ahamiyatini o‘rganishda bu etapda amerikalik missionerlar muhim rol o‘ynaganlar.

2. 1910-1945-yillar – Yaponiya mustamlakachiligi davri ham koreys tili tarixida muhim ahamiyatga ega. “Yaponlashtirish” siyosatining koreys mutaxassislarining aytishi bo‘yicha, koreys tili rivojiga yomon va aksincha yaxshi ta’siri ham bo‘lgan. Yapon tilidan ko‘plab yangi so‘zlar va terminlar kirib keldi. “Yaponlashtirish” siyosatining ta’siri tufayli koreys tilshunoslari (Mun Se Yon, Li Yun Je, Li Gik No, Xon Dal Su va h.k.) birlashib, koreys tilini

standartlashtirishga bel bog‘ladilar. Koreys leksikografiyasida birinchi bor “koreys tili lug‘ati” tuzildi⁸⁷.

3. 1945-1960-yillar davri. Koreya yarim orolida kechayotgan urush nafaqat ijtimoiy-siyosiy tomondan, balki koreys tilshunosligida ham salbiy oqibatlar olib keldi. Yaponlashuv ideologiyasidan ijtimoiy hayotda bo‘lgani kabi koreys tilida ham yapon tilidan o‘zlashgan so‘zlarni “tozalash” ishlari amalga oshirildi.

4. General Pak Chon Xi boshqaruv davri (1961-1979-yillar) nafaqat mamlakat uchun keskin burilish bosqichi, balki ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar ta’sirida koreys tilida ham yangi terminlar kirib kelib, o‘zgarishlar yuz berdi. Adabiy tilning zamonaviy ko‘rinishi XX asrning 70-yillarida shakllandi.

5. 1980-yillar Janubiy Koreyada prezident Chon Du Xvan boshqaruvi davrida diplomatik aloqalar asosiy o‘ringa ko‘tarildi. Janubiy Koreyani dunyo tan oldi. Bunga sabab qilib, 1986-yilgi Osiyo va 1988-yilgi Olimpiya o‘yinlarini aytish mumkin. Bu davrda koreys tiliga ingliz tilidan so‘zlar o‘zlashishi ham aktiv ravishda o‘tdi.

6. 1990-yillar Janubiy Koreyada buyuk ijtimoiy inqiloblar davri bo‘ldi. Demokratik – liberal partiya vakili Kim Yon Sam hokimiyat tepasiga kelgach (1992-yil), tashqi siyosatda “globalizatsiya” degan tushunchalar kirib keldi va Janubiy Koreya Respublikasi AQSh, Yevropa, Afrika, Osiyodagi davlatlar bilan aloqasi kuchaydi. Bu esa tilda muhim o‘zgarishlarga turtki bo‘ldi. 1991-yilda Janubiy Koreya Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo bo‘ldi, 1993-yilda butun dunyo texnik ko‘rgazmasi “EXPO-93”da tashkilotchilik vazifasini bajaradi.

7. 1990-yillar oxiri – milliy valyuta-moliyaviy inqirozi davri. 1997-yilgi moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davri so‘nggi o‘n yil ichida eng og‘ir vaziyat bo‘lib, bu davr “Xalqaro valyuta fondi davri” deb yuritilgan. Ommaviy axborot vositalari sharofati bilan iqtisodiy terminlar rasmiy matnlar bilan birdek

⁸⁷ Ким В.Н., Ким Т.С. Социально-политическая терминология.-Т., 2009. С. 22.

mutaxassis bo‘lmagan kishilarning ham kundalik nutqlarining ajralmas bo‘lagi bo‘lib qoldi.

Mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarga qaramay shunday bir narsalar borki, ular koreys tili va zamonaviy terminologiyaning rivojida katta iz qoldirgan. Boshqa Uzoq Sharq mamlakatlari bilan bir qatorda koreys tiliga qanchalik fonetik o‘zgarishlar yuz bermasin iyeroglifik leksika qat’iy saqlanib qolish xosdir.

Qadimgi (sof) koreys leksikasi – koreys tilining eng qadimgi qatlami bo‘lib, u og‘zaki til yozma tilga aylangunigacha shakllangan. Qadimgi koreys so‘zlari og‘zaki nutqda keng tarqalgan, lekin yozma manbalarda umumiy terminlardan bir foiznigina tashkil etadi. Mutaxassislarning aytishlaricha, bu so‘zlar terminlarga o‘xshash xarakterga ega bo‘lsa ham terminlarga qo‘yiladigan talablarga to‘liq javob bermaydi.

Sino-koreyscha leksemalar (“한자어” – Hanjao) – terminologiyaning asosiy qismi (70% gacha)ni tashkil etib, iyeroglifik semantikaning variantga boyligi, so‘z yasash imkoniyatining kengligi bilan muhim o‘rin tutadi. Bu qatlam adabiy tilning publitsistika, rasmiy, badiiy uslublarida asosiy vazifasini o‘taydi. Bunday leksikaning katta qismi Xitoydan o‘zlashgan bo‘lsa ham u bir tomonlama shakllangan emas. Bu so‘zlar tarixning turli davrlarida turli Uzoq Sharq mamlakatlaridan Koreya yarimoroliga o‘zlashib borgan. Ko‘plab terminlar koreys tili ichida alohida leksika sifatida yoki chet tillarining kalkasi sifatida yaralgan.

Iqtisodiy terminologiya o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ba’zan terminlar ko‘plab ma’nolarga ega bo‘ladi. Iqtisodiy matnlarda maxsus leksika va terminlardan tashqari umumiste’modagi leksika ham uchraydi. Lekin bunda quyidagini inobatga olish kerak. Umumiste’modagi leksikaning bir qismi tarjima jarayonida qiyinchilik tug‘dirmaydi, jumladan, 글로벌 – global, 펀드 – fond, 비즈니스 – biznes kabi terminlar ingliz, rus va o‘zbek tillarida birdek tushunarlidir. Bunday umumiste’modagi so‘zlar tarjima jarayonida yengillik tug‘diradi.

Ko‘plab umumiste‘moldagi so‘zlar koreys tilida o‘z variantiga egadir. Masalan, bank – 은행, ofis – 사무실, krizis – 위기 kabilar ingliz, rus va o‘zbek tillarida barcha uchun tushunarli va qo‘llaniladi.

3.Koreys tili iqtisodiy terminlarida o‘zlashmalar va ularning o‘girilishi

Koreys tili leksikasida ikkiyoqlamalilikni ko‘rish mumkin. Hozirgi koreys tilida sof koreyscha so‘zlar va iyeroglifik asosga ega bo‘lgan, ba’zida ularni xitoycha so‘zlar deb ham atash holatlari uchraydi.

Koreys tilidagi iqtisodiyotga oid terminlarni uchga bo‘lib tahlil qilish mumkin.

1. Sof koreyscha terminlar;
2. Xitoy iyerogliflari asosidagi terminlar;
3. Ingliz tilidan qabul qilingan terminlar.

Amaliyotimizda shunga guvoh bo‘lindiki, sof koreyscha terminlar juda ozchilikni tashkil etadi.

Quyida sof koreyscha terminlarga misollar keltirib o‘tamiz:

돈 (ton)– pul, 가게 (kage) – do‘kon, 값 (kap) – narx-navo, 빚 (pit) – qarz, 잔사 (chansa) – savdo-sotiq, 돈을 갚다 (tonil kapta) – qarzni qaytarmoq, 값을 묻다 (kapsil mutta) – narxini so‘ramoq⁸⁸.

Xitoy iyeroglifi asosidagi terminlar juda ko‘p qismni tashkil etadi. 경제학 (經濟學) – iqtisodiyot; 가격 (價格) – narx- navo; 대차대조표(貸借對照表) – buxgalterlik balansi, hisobi; 매입율(買入率) – sotib olish kursi; 보상예금 (補償禮金) – kompensatsiya qoldig‘i; 선수금 (先受金) – avans, dastlabki to‘lov; 연간소득 (年間所得) – yillik daromad; 잠정예산 (暫定豫算) – vaqtinchalik budjet, shartli budjet; 채권 (債券) – obligatsiya, qarzdorlik majburiyati, 통계 (統計)– statistika; 판매가 (販賣價) – sotuv narxi. 화폐유통속도 (貨幣流通速度) – pul aylanish tezligi⁸⁹ kabilar.

⁸⁸ Ким В.Н., Ким Т.С. Социально-политическая терминология.-Т., 2009. С. 23.

⁸⁹남행완. Iqtisodiy so‘zlar jamlanmasi.- Т. 2012. В. 525.

So‘nggi paytlarda koreys tiliga ingliz tilidan so‘z kirib kelishi juda kuchayib ketgan. Bu iqtisodiyotda ham seziladi, ya’ni iqtisodiy soha terminologiyasida inglizcha so‘zlar ko‘p qo‘llaniladi. Buni globallashtirish natijasi deyish mumkin.

인보이스 (invoice) – 무역에서, 매각, 위탁 판매 계약 등에 의해 상품을 원격지에 발송할때 수화인에게 보내는 그 상품의 명세서, 송장⁹⁰; накладное; yukka, molga qo‘shib yuboriladigan hujjat. Bu terminning iyeroglifik asosga ega bo‘lgan koreyscha varianti ham mavjud: 송장 (送狀) – 짐을 받을 사람에게 보내는 그 짐의 내용을 자세히 적은 문서⁹¹. Yukni oluvchi kishiga shu yuk haqida to‘liq ma’lumot beruvchi hujjat. 명세서 (明細書) – 어떤 물품, 비용 등을 분명하고 자세하게 적은 문서⁹².

컨버전스 (convergence = 융합) – konvergensiya;

일렉트로닉 뱅킹 (elektronik banking = 전자 금융) - electron bank xizmatlari;

카르텔 (cartel) – kartel (korporativ birlashma turi);

캐피털 게인 (capital gains = 자본 이득) – kapitaldan keladigan foyda;

리베이트 (rebate = 환불) – pul qaytishi;

리스케줄링 (rescheduling = 채무재조정) – qayta tuzish

“사회적 기업 또한 제3섹터 개념의 출현이라는 맥락에서 이해할 필요가 있다. 사회적 기업이란 사회적경제의 대표적 조직 (협동조합과 공제조합, 시민단체)과 비영리민간단체 및 자원봉사조직 중 “사회적 가치 (목표)를 위 해 경제활동에 참여하는 다양한 조직”을 총칭한다”⁹³.

“Ijtimoiy tashkilot yoki uchinchi sektor nima ekanligini tushunib olish zarur. Ijtimoiy tashkilot bu- ijtimoiy iqtisodning vakolatli tizim (kooperatsiya va ijtimoiy birlashmalar, shahar aholisi birlashmasi), notijorat tashkilotlar va

⁹⁰정운길 새로운국어사전국어문화회감수.민중서관.-서울, 2002.-2015쪽.

⁹¹정운길 새로운국어사전국어문화회감수.민중서관.-서울, 2002.-1475쪽.

⁹²정운길 새로운국어사전국어문화회감수.민중서관.-서울, 2002.-876쪽.

⁹³김준동·강준구·김혁황·김민성·이성봉. 국내 외국인직접투자의 경제적 효과 및 투자환경 개선방안. 연구보고서 09-04.KIEP 대외 경제 정책 연구원.2009.

qo‘llab-quvvatlash resurs tashkilotlari kabi “ijtimoiy maqsad ostida iqtisodiy faoliyat olib boruvchi turli tashkilot va birlashmalar” nomlanadi”.

Yuqoridagi matnni tarjima qilish uchun iqtisodiy sohani chuqur egallash talab etiladi.

사회적 기업 (社會的 企業) – ijtimoiy tashkilot

사회적경제 (社會的京制) – ijtimoiy-iqtisodiyot

제 3 섹터 – 3- sektor

협동조합 (協同組合) – 노동자, 중소기업가 등이 자기들의 경제적 목적을 달성하고자 만든 협력 체제의 총칭. A cooperative association, Birlashgan tashkilot. Bu so‘z iqtisodiy so‘zlar jamlanmasida “hunarmandchilik arteli” deb tarjima qilingan⁹⁴. Bu esa ko‘rinib turganidek xatodir.

공제조합 (共濟組合) – 동일한 종류의 직업, 사업에 종사하는 사람들의 상호 부조를 목적으로 하는 조합 mutual aid association; benefit society. O‘zaro yordam qo‘lini cho‘zish maqsadida birlashgan ijtimoiy tashkilot.

경제활동 (經濟活動) – iqtisodiy faoliyat.

자원봉사조직 – 자원 (資源) – 생산의 바탕이 되는 여러 가지 물자 - resources, hom-ashyo. 봉사 – 1. 남의 뜻을 받들어 섬김. 2. 국가 사회 또는 남을 위해 헌신적으로 일함. 조직 – 특정한 목적을 달성하기 위하여 여러 개체를 모아서 집합체를 이룸. 또는 그 집합체 organization, structure.

비영리민간단체 (非營利民間單體) – a nonprofit (noncommercial) organization. Notijorat tashkilot⁹⁵.

비영리 법인 (非營利 법인) – 공익 법인 a nonprofit (noncommercial) corporation⁹⁶.

“1990~2008년 유치된 외국인직접투자를 산업별로 살펴보면, 투자가 가장 많이 이루어진 분야는 금융보험업 (248억 달러)이며, 그 다음이 전기전자 (138억 달러),

⁹⁴남행완. Iqtisodiy so‘zlar jamlanmasi.-T., 2012. B. 519.

⁹⁵ 김병일.우즈베크어 한국어 사전.사마르칸드국립외국어대학교.- 서울, 2008.327쪽.

도소매업 (95억 달러), 화공 (78억 달러), 운송용기계 (62억 달러), 비즈니스서비스업 (57억 달러), 기계장비(43억 달러) 등이다”⁹⁷.

Matnni o‘zbek tiliga quyidagicha tarjima qilindi.

“1990-2008-yillarda jalb etilgan to‘g‘ridan to‘g‘ri chet el investitsiyalarini sanoat turlariga ko‘ra tekshirib chiqadigan bo‘lsak, eng ko‘p investitsiya kiritilgan soha moliyaviy (pul aylanishi) sug‘urtalashtirish sohasi (24mlrd.800mln. dollar) bo‘lib, undan keyin elektronika (13mlrd. 800 mln. dollar), ulgurji va chakana savdo (9mlrd. 500mln. dollar) kimyo sanoati (7mlrd.800mln. dollar), transport mexanikasi (6mlrd.200mln. dollar), biznes servis sohasi (5mlrd.700mln. dollar), mexanika (4mlrd. 300mln. dollar) kabilardir”.

Matndagi iqtisodga oid terminlarni tarjima qilish jarayonida bir muncha murakkabliklarga duch kelinadi. Eng birinchi navbatda shuni ham ta’kidlab o‘tish darkorki, koreys tilida sonlar tizimi boshqa tillardan farqli o‘laroq katta raqamlar o‘n minglik bilan hisoblanadi. Masalan, koreys tilida ming – 천, to‘qqiz ming – 구천, lekin o‘n ming – 만 deb alohida nomlanadi. Shunda yuz ming ham 백천 emas, balki 십만 – o‘nta o‘n ming, 백만 – million, 천만 – o‘n million, 억 - yuz million, 십억 - milliarddir. Matndagi raqamlar ham tarjimomni chalg‘itib qo‘yishi, tarjimon hisobda adashishi mumkin.

금융보험업 – moliyaviy (pul aylanishi) sug‘urtalashtirish sohasi deb tarjima qilindi. 금융 (金融) – 1. 돈의 유통 circulation of money, finance. 2. 경제상 자금의 수요와 공급의 관계.

-업 (業) – ‘직업’, ‘업종’임을 뜻하는 말 a work. Ish, soha. Yuqoridagi parchada barcha sohalarning so‘nggi qismi ushbu bo‘g‘in bilan tugagan. Bu aslida iyeroglifik asosdir.

전기전자 – elektronika. 전기 (電機) – 1. 전등. 2. 전력으로 운전하는 기계⁹⁸, elector, электричество⁹⁹. 전자 (電磁) – электрон; an electron¹⁰⁰.

⁹⁷김준동·강준구·김혁황·김민성·이성봉. 국내 외국인직접투자의 경제적 효과 및 투자환경 개선방안. 연구보고서 09-04.KIEP 대외 경제 정책 연구원.2009. 32 쪽.

⁹⁸정운길세로나온국어사전국어문화회감수.민중서관.-서울, 2002.-2152쪽.

Shartli ravishda koreys tilidagi iqtisodiy terminlarni quyidagi turlarga ajratib olindi:

1. 은행 용어 – Bank faoliyati va hujjatlari bilan bog‘liq terminlar.

은행 (銀行) – bank

계좌 (計座) – bankdagi hisob raqami; банковский счет.

예금 – depozit

입금 (入金) – 돈이 들어옴. 또는 들어온 돈 receipt of money; hisob raqamiga pul tushmoq; поступление денег.

수수료 (手數料) – vositachilik haqi, komission ushlanma.

주식(株式) – aksiya

인수인(引受人) – 환어음의 인수를 한 지급인, 인수자 an accepter; акцептант; qimmatli qog‘ozlarni sotib oluvchi.

2. 세금 용어 – To‘lovlar bilan bog‘liq terminlar.

“사람들에게 조금씩 돈을 거두어 나라 살림을 운영한답니다. 이돈을 세금이라고 해요. 가로등, 공항, 고속도로 등의 공공시설은 모두 국민이 낸 세금으로 만든 것이에요. 이렇게 나라 살림에 쓰이는 세금은 내는 방법에 따라 크게 두 가지 종류로 나눌 수 있어요.

① 직접세 : 내가 정부에 직접 내는 세금

② 간접세 : 다른 상품을 통해 내는 세금”¹⁰¹

“Aholidan oz-ozdan pul olinib davlat xo‘jaligi yuritiladi. Bu pul soliq deb ataladi. Yo‘l chiroqlari, aeroport, tez yurar yo‘llarning barchasi ana shu aholi soliqlari evaziga barpo etilgan. Bunday mamlakat xo‘jaligini yuritishda foydalaniladigan soliqlar to‘lanish tartibiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi:

1. To‘g‘ri soliqlar, ya’ni davlatga to‘g‘ridan tog‘ri to‘lanadigan soliqlar.

2. Egri (qo‘shimcha) soliqlar: boshqa mahsulotlar orqali to‘lanadigan soliqlar.

살림- xo‘jalik

⁹⁹최신 한국어-러시아어사전.감수:김문옥,편저자:김춘식.문예림.-서울, 2009.1461 쪽.

¹⁰⁰최신 한국어-러시아어사전.감수:김문옥,편저자:김춘식.문예림.-서울, 2009.1471 쪽.

¹⁰¹김한식.일한 번역에 나타난 번역투 문장. 한국외국어대학교통번역대학원 한일과 교수.-서울, 2007.

세금 – soliq

직접세 (直接稅) – a direct tax; to‘g‘ri soliq.

간접세 (間接稅) – 납세자가 사실상 부과된 세금을 내는 것이 아니고, 소비자 등이 부담하게 되어 있는 세, 부가 가치세, 특별 소비세, 주세, 직물류세 따위¹⁰² – soliq to‘lovchi haqiqatda solingan soliqni to‘lashi emas, balki iste‘molchilar to‘laydigan to‘lovlar, qo‘shimcha qiymat solig‘i, maxsus soliqlar, spirtli ichimliklar ustidan soliq kabilardir; egri soliq.

납세자 (納稅者) – 세금을 내는 사람 soliq to‘lovchi.

인수인 (引受人) – 환어음의 인수를 한 지급인, 인수자 an accepter; акцептант; qimmatli qog‘ozlarni sotib oluvchi.

3. 기업 관리 관련 용어 – Korxonalar faoliyati bilan bog‘liq soliqlar.

경영 – menejment, boshqaruv

주식 회사 – aksionerlik jamiyati

월급 (급여) – oylik, maosh

개인 회사 – xususiy korxonalar

합작 회사 – qo‘shma korxonalar

인증서 (認證書) – guvohnoma

정관 (定款) – ustav

사직서 (辭職書) – ishdan ketish haqida ariza

“Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining talablariga rioya etgan holda O‘zbekiston Respublikasi hududida yuridik shaxs huquqiga ega bo‘lgan sho‘ba korxonalar, filiallar, shuningdek, yuridik shaxs bo‘lmagan vakolatxonalar va boshqa alohida bo‘linmalar tashkil etishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarning sho‘ba korxonalari, filiallari, vakolatxonalar va boshqa alohida bo‘linmalari tashkil etilishi mumkin”¹⁰³.

¹⁰² 최신 한국어-러시아어사전. 김문옥, 편저자: 김춘식. 문예림. 서울, 2009. 56 쪽.

¹⁰³ “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni.-T., 1998.04.30. 609-I-son.7-modda.

“Предприятие с иностранными инвестициями может создавать на территории Республики Узбекистан дочерние предприятия филиалы с Правами юридического лица а также представительства и другие обособленные подразделения не являющиеся юридическими лицами с соблюдением требований законодательства Республики Узбекистан. За пределами Республики Узбекистан могут быть созданы дочерние предприятия филиалы представительства и другие обособленные подразделения предприятий с иностранными инвестициями”¹⁰⁴.

“외국인투자기업은 우즈베키스탄 공화국 법령에 따라 우즈베키스탄 공화국 내에 법인으로서의 지위를 갖는 자회사 및 지점과 법인으로서의 지위를 갖지 않는 대표사무소 및 기타 독립된 구성부 분을 설립할 수 있다. 외국인투자기업의 자회사, 지점, 대표사무소 및 기타 독립된 구성부분은 우즈베키스탄 공화국 국외에서도 설립할 수 있다”¹⁰⁵.

외국인투자기업- Предприятие с иностранными инвестициями; chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonona.

자회사 (子會社 [會-회 모임]) – 다른 회사와 자본적 관계를 맺고 있어 그 회사의 지배 아래 있는 회사 (반대-모회사); a subsidiary (company), an affiliated company, a daughter firm¹⁰⁶. Boshqa korxonona bilan sarmoyaviy a’loqa o’rnatib, shu korxonona boshqaruvi ostida bo’lgan korxonona. Дочерние предприятия; sho’ba korxonona.

지점 (支店) – 본점에 딸리어 그 지휘/명령을 받으며 일정한 지역에서 업무를 보는 영업소. A branch office¹⁰⁷; филиал

대표사무소 (代表事務所) – представительства¹⁰⁸; representative office

구성부분 – подразделения¹⁰⁹; bo‘linma.

2- bob bo‘yicha xulosalar

¹⁰⁴ Закон Республики Узбекистан "Об иностранных инвестициях" от 30 апреля 1998 года №609-I. Статья 7.

¹⁰⁵ "외국인의 투자"에 관한 우즈베키스탄공화국 법률 1998년 4월 30일, 제 609-1호.제 7조.

¹⁰⁶ 정운길. 새로운국어사전국어문학회감수. 민중서관.-서울, 2080.-2082쪽.

¹⁰⁷ 정운길. 새로운국어사전국어문학회감수. 민중서관.-서울, 2333.-2409쪽.

¹⁰⁸ 최신 한국어-러시아어사전. 감수: 김문옥, 편집자: 김춘식. 문예림.-서울, 2009. 382쪽.

¹⁰⁹ 최신 한국어-러시아어사전. 감수: 김문옥, 편집자: 김춘식. 문예림.-서울, 2009. 151쪽.

Iqtisodiy terminlar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Muayyan kasb egalari faqatgina shu soha, shu doiragagina tegishli bo'lgan maxsus so'zlarni qo'llaydi. Iqtisodchilarning ham og'zaki, yozma nutqida shunday maxsus terminlar qo'llaniladiki, bu boshqa kasb egalari uchun tushunarsizdir.

2. Iqtisodiy terminologiya borasidagi dastlabki ish J.Dosmuxamedovning «Общая характеристика терминов полит-экономики основные способы их образования в современном узбекской языке» (1974) va qozoq tilshunosi M.R.Nasirovaning «Социально-экономическая терминология в современном казахском языке» (1969) nomzodlik ishlaridi. H.Dadaboyev «XI-XIV asrlar turkiy tillar yozma yodgorliklaridagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial iqtisodiy terminologiya» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

3. Iqtisodiy terminlar orasida sinonimiya masalasi tilshunoslar uchun ham, tarjimonlar uchun ham muhim o'rinni egallaydi. Chunki iqtisodiyotga oid matnlar iqtisodiyotning qaysi tarmog'iga tegishli ekanligiga qarab leksik va grammatik birliklar tanlanadi. Ayniqsa koreys tilida sinonimiya birmuncha murakkabdir. Mazmuni bir qo'llanilishi turli xil yoki umuman qo'llanilishi ham bir xil bo'lgan leksik va grammatik vositalar talaygina. O'zbek tilidan koreys tiliga tarjima qilishda bu eng murakkab muammodir;

4. O'zbek tili terminshunoslik sohasining hozirgi darajasi, ilmiy qiymati bevosita rus hamda boshqa xalqlar terminshunoslarining ishlari bilan chambarchas bog'liq: N.A.Baskakov, L.A.Bulaxovskiy, G.O.Vinokur, V.V.Vinogradov, A.A.Reformatskiy, D.S.Lotte, S.A.Chapligina, T.L.Kandelaki, V.P.Danilenko kabi o'nlab terminshunos olimlarning ishlari o'zbek terminshunosligining qaror topishiga o'zining katta hissasini qo'shdi. O'zbek tilida iqtisodiy terminlar morfologik, semantik va sintaktik usulda yasaladi.

5. O'zbek iqtisodiyot terminologiyasi ham, asosan, ikki manba: o'zbek tilining ichki imkoniyatlari va xorijiy tillar unsurlari asosida rivojlanib, boyib borgan. Koreys tilida "termin" so'zi ikki ko'rinishga ega: biri "학술어" ("Xaksuro") –

(학술 연구상의 특정한 뜻으로 쓰이는 전문적인 용어 – technical terms) ilm-fan va texnik yo‘nalishlarda qo‘llaniladigan maxsus so‘zlar bo‘lsa, ikkinchisi “용어” (“Yongo”) – (일상 생활에 쓰는 말 a term) kundalik hayotda qo‘llaniladigan so‘zlar bo‘lib, u yoki bu sohalarda ishlatiladi;

6. Koreys tilshunosligida terminlar qat’iy chegaralanmagan. Chunki ular faqatgina tizimlashtirilgan va unifikatsiya qilingan, nazariy analiz qilinmagan. Koreys tilidagi iqtisodiyotga oid terminlarni uchga bo‘lib tahlil qilish mumkin: sof koreyscha terminlar; xitoy iyerogliflari asosidagi terminlar; ingliz tilidan qabul qilingan terminlar.

III. BOB. KOREYS VA O‘ZBEK TILIDA IQTISODIY MATNLARNING TARJIMADAGI MURAKKABLIKLARI

3.1 Iqtisodiy matn va uni tarjima qilish usullari

“번역(翻譯)은 어떤 언어로 쓰인 글을 다른 언어로 된 상응하는 의미의 글로 전달하는 일이다. 이 때 전자의 언어를 원어 또는 출발어 (source language)라 하고, 후자의 언어를 번역어 또는 도착어 (target language)라고 한다”¹¹⁰.

“Tarjima – bu bir tilda yozilgan matnni boshqa tilga mos mazmundagi matn orqali o‘girishdir. Bunda tarjima qilinayotgan manba asliyat yoki asl manba deb nomlansa, tarjima qilingan manba qayta yaratilgan manbadir”.

“번역은 크게 직역 (축자역, 逐字譯, literal translation)과 역 (意譯, free translation) 두 가지로 나뉜다. 원어 문장의 독특한 구조와 표현을 살려주려는 태도로 옮기는 것이 직역으로, 번역문으로서는 어색하더라도 원문에 충실한다. 반대로 도착어에 어울리는 자연스러운 문장을 만드려는 태도로 옮기는 것을 의역이라 한다. 의역이나 직역 중 하나가 옳고 그르다고는 할 수는 없지만, 글의 종류나 독자층에 따라 의역이 어울릴 때가 있고 직역이 어울릴 때가 있다”¹¹¹.

“Tarjimalar so‘zma-so‘z tarjima (asliga muvofiq) va ma’noviy tarjima (erkin tarjima) kabi ikki katta guruhga bo‘linadi. Asliyatdagi gaplarning o‘ziga xos tuzilishi, shakli va ifodasini saqlab qolgan holda o‘girish so‘zma-so‘z tarjima, u tarjima matnida biroz g‘alati bo‘lsa-da, asliyatdan tashqariga chiqmaydi. Bunga qarama-qarshi ravishda tarjima tilida erkin ko‘rinishda bo‘lishi uchun erkin o‘girish (shaklni saqlab qolishga emas, mazmunning tarjima kitobxoniga tushunarli bo‘lishini maqsad qilgan tarjima usuli ma’noviy tarjimadir. Tarjimaning u yoki bu turini noto‘g‘ri deb bo‘lmaydi. Matnning turi va kitobxonning darajasiga qarab, mos keladigan va mos kelmaydigan holatlar bo‘ladi”.

Tarjima nazariyasi yoki boshqacha aytganda, tarjimashunoslik tarjima jarayoni, uning qonuniyatlari, asliyat va tarjima matnlari ustida olib borilayotgan kuzatishlarni umumiyalashtirish, tizimlashtirish orqali ikki til orasidagi

¹¹⁰ 이희재, “번역의 탄생”, 교양인, 서울. 15 쪽.

¹¹¹ 이희재, “번역의 탄생”, 교양인, 서울. 15 쪽.

muvofigliklar darajasini, ularning o'ziga xos xususiyatlari mohiyatini ochib berishga yo'naltirilgan filologiya sohasidir. Shuningdek, uning vazifasiga tarjimonning milliy madaniyat rivojida o'rnini belgilash, uning amaliy va nazariy jihatlarini ko'rib chiqish ham kiradi.

Tarjima nazariyasining tadqiq obyekti tarjima jarayoni, tarjima nazariyasini rivojlantirishga asos bo'luvchi turli asarlar va ularning tarjima matnlaridir.

Tarjima nazariyasini umumiy, xususiy va maxsus nazariyalarga ajratish tarjimashunoslik sohasida umume'tirof etilgan qoidalardan biridir. Tarjimaning umumiy nazariyasi tarjima jarayonining universal qonuniyatlarini, janriy talablardan qat'i nazar tillararo, stilistik, vazifaviy muvofigliklarning asoslarini o'rgansa, xususiy nazariya konkret bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishning o'ziga xos xususiyatlarini, maxsus nazariya esa tarjimaning janriy-stilistik xususiyatlariga ko'ra bo'lingan turlarining o'ziga xos qonuniyatlarini o'rganadi.

Tilshunoslar tarjima qonuniyatlarini leksik, grammatik va matniy muvofigliklar ichidan izlaydilar. Adabiyotshunoslar esa asosiy e'tiborni tarjimaning akseologik jihatlariga, ya'ni matnning g'oyaviy-estetik va badiiy fasohatiga qaratadilar. Ular uchun muhimi badiiy matnda estetik ekvivalentlikka erishishdir. Oxirgi yillardagi jahon tarjimachiligi amaliyoti tarjima ishlarining saviyasiga tilshunoslik va adabiyotshunoslik yo'nalishlarining uyg'un holda birlashishi ijobiy ta'sir etishini tasdiqlamoqda. Darhaqiqat, badiiy asar tarjimasi ustida ishlayotgan tilshunos estetik tahlil va adabiyotshunoslik yondashuvidan xoli bo'la olmaydi. Xuddi shuningdek, adabiyotshunos ham tarjima ustida fikr yuritar ekan, lingvistik jihatlar va til normalarini hatlab o'ta olmaydi. Tarjimashunos olim M.Xolbekov xorijlik tarjimashunos olimlarning ilmiy konsepsiyalarini tahlil qilar ekan, XXI asrda tarjima jahon xalqlari va sivilizatsiyasi o'rtasidagi kommunikativ vositaga aylanganligi tarjimaning lingvistik va adabiy aspektlari tarafdorlari o'rtasida e'tirof etilayotganini alohida ta'kidlaydi¹¹².

¹¹² M.Xolbekov. Tarjima amaliyoti: yutuqlar va muammolar.-T., 2012.

Adabiy tarjima – bunga nafaqat badiiy, balki ilmiy-ommabop va muayyan sohalariga taalluqli bo‘lgan adabiyotlar tarjimasini ham kiradi – bir tomondan olganda, yolg‘izlikni talab qiladigan sokin faoliyat sanaladi. Biroq shu bilan birga, o‘z ona tili bilan ham muntazam shug‘ullanish, ko‘plab izlanishlar olib borish va o‘zi uchun noma’lum bo‘lgan “hudud”larga ham kira bilish, ularni o‘zlashtira olish kerak bo‘ladi.

Badiiy tarjima nazariyasi rivojida turli fanlarning, jumladan, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix, falsafa, sotsiologiya, psixologiya, etnografiya, matnshunoslik sohalarida to‘plangan boy tajriba katta o‘rin egallaydi. Madaniyatlararo kommunikatsiya qonuniyatlarini aniqlash, asliyat tarjimasida keng qamrovli axborotni aks ettirish va ularni teng darajada uzatish usul hamda vositalarini tadqiq etish ayni fanlar yutuqlaridan keng foydalanishni taqozo etadi.

Iqtisodiy tarjima – bu iqtisodiy xarakterga ega bo‘lgan matnni o‘girish demakdir. Bunday matnlar sirasiga buxgalterlik, auditorlik ishi, marketing, ishchi hamda bank hisobotlari, biznes planlar va hokazolar mansubdir. Chet el hamkorlari bilan iqtisodiy munosabatga kirishilganda iqtisodiy tarjima muhim sanaladi. Shu sababli mahorat bilan bajarilgan iqtisodiy tarjima xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muvaffaqiyatli amalga oshishida muhim ajralmas bo‘lak bo‘lib hisoblanadi¹¹³. Tomonlarning malakasi va hamkorlikning ishonchliligi tarjimaning sifati bilan belgilanadi. Iqtisodiy tarjima tarjimondan yetuk bilim va sinchkovlikni talab qiladi. Undagi har bir mayda detalning xatoligi katta muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Tarjimon birinchi navbat iqtisodiy terminlarni mukammal bilishi talab etiladi. Iqtisodiy matnni tarjima qilayotgan tarjimon iqtisodiyot nazariyasi bilan birga boshqa davlatlardagi iqtisodiy tizimdan ham xabardor bo‘lishi kerak.

Tarjimon uchun iqtisodiy matnlarni tarjima qilishda quyidagilar muhim xususiyatlardan bo‘lib sanaladi:

1. Maxsus iqtisodiy leksik birliklarga boy bo‘lgan, terminlardan iborat, iqtisodiy va moliyaviy manba ekanligi;

¹¹³ Комиссаров, В.Н. Пособие по переводу с английского языка на русский.-М., 1975. С. 490.

2. Korxonalar, tashkilotlar, uyushmalar, muassasalarning nomlari hamda raqamlar, formulalar, jadvallarning mo‘lligi;

3. Rasmiy egaga nisbatan passiv munosabatning bayon etish ko‘rinishlari;

4. Murakkab so‘z va so‘z birikmalari, frazeologizmlarga boyligi;

5. Turli terminologik qisqartmaga egaligi¹¹⁴.

Iqtisodiy tarjima iqtisodiy terminlarni tarjima qilishning o‘ziga xosliklari:

➤ matnning axborot beruvchanligi hamda terminlarning mazmunga boyligi;

➤ bayon etishning har doim ham standart emasligi;

➤ metaforalardan keng foydalanish;

➤ frazeologik birikmalarning keng tarqalganligi¹¹⁵.

Shuningdek, iqtisodiy matnning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri unda abbreviaturalarning mavjudligidir. Ularning ko‘pchiligi faqatgina iqtisodiy matn va hujjatlarda uchraydi.

Masalan,

O‘zbek tilida: QQS – qo‘shimcha qiymat solig‘i

Rus tilida: НДС - налог на добавленную стоимость

Ingliz tilida: VAT - value-added tax

Lekin Uzoq Sharq tillarining o‘ziga xosligi shundaki, ularda bunday iqtisodiy so‘zlarning qisqartirilishi kam kuzatiladi:

Koreys tilida: 부가가치세. Aynan tarjimasi 부가 – qo‘shimcha, 가치 – qiymat, 세 – soliq.

Bunga sabab so‘zlarning o‘zi iyeroglifik kalitlardan iborat ekanligidadir¹¹⁶.

Iqtisodiy matnlar asosan kognitiv ma’lumot yetkazishga xizmat qiladi. Iqtisodiy matnlar tarjimasining maqsadi mamlakatlarning o‘ziga xos

¹¹⁴ Каплина А.С. Межкультурные особенности экономического текста и трудности его перевода. - М., 1993.

¹¹⁵ Ерогова А.М. Теория и практика перевода экономических текстов с английского языка на русский. - М., 1986. С. 122.

¹¹⁶ Каплина А.С. Межкультурные особенности экономического текста и трудности его перевода. – М., 1993.

realiyalarini yetarlicha tarjimada bayon etish, tarjima talabgoriga tushuntira olishdir. Bular faqatgina o‘z ekvivalent terminlari orqali namoyon bo‘la oladi.

Iqtisodiy matnlarni tarjima qilish jarayonida obyektivlik, mantiqiylik va aniqlik dominantdir. Bundan tashqari original matndagi so‘zning tarjima tilida ekvivalenti bo‘lmasa, yoki aynan kontekstdagi ma’noni to‘liq anglata olmasa, tarjimon turli transformatsiyalardan foydalangan holda originaldagi birlikni adekvat tarzda tarjimada shunga mos birlik bilan namoyon etishi kerak. Tarjimada transkripsiya, transliteratsiya, kalkalamoq ¹¹⁷, konkretizatsiya, generalizatsiya, modulyatsiya, orttirish, tushirib qoldirish, ajratish, gaplarni birlashtirish, antonimik tarjima, kompensatsiya kabi transformatsiyalardan foydalaniladi.

Iqtisodiyotga oid matnlarni tarjima qilishda transformatsiya:

Transformasiya – (*lot.* transformation – qayta tuzish). Asosiy (yader) sintaktik strukturani til qonun-qoidalari asosida o‘zgartirib, ikkinchi tur sintaktik struktura hosil qilish¹¹⁸.

Grammatik transformatsiya: Grammatik transformatsiya – bu birinchi navbatda gapni qayta qurish (uning strukturasi o‘zgartirish) ham sintaktik, ham morfologik tartibda turli almashtirishlardir.

O‘zbek va koreys tillaridagi grammatik kategoriya va shakllarni qiyoslash jarayonida quyidagi hodisalarni kuzatish mumkin:

- 1) Tillardan birida u yoki bu kategoriyaning mavjud bo‘lmasligi;
- 2) Qisman mos kelish;
- 3) To‘liq mos kelish.

Grammatik transformatsiyalarga zaruriyat, tabiiyki, birinchi va ikkinchi holatlarda yuzaga keladi.

Muvofiq shakl va konstruksiyalar ma’nosida hamda qo‘llanilishida qisman mos kelish yoki mos kelmaslik ham grammatik transformatsiyani talab etadi. Bu yerga son kategoriyasining va majhul nisbat konstruksiyalarining qisman mos

¹¹⁷ Kalkalamoq- kalkalab yasamoq, boshqa tildagi so‘zni aynan tarjima qilib yoki unga taqlidan so‘z yaratmoq.

¹¹⁸ Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – T., 1985. B.94.

kelmasligi, modallilikning to‘liq bo‘lmagan mos kelishi kabi hodisalarni kiritish mumkin.

Grammatik transformatsiyani ikki turga ajratish mumkin: qayta joylashtirish va almashtirish.

Qayta joylashtirish tarjima transformatsiyasining bir turi bo‘lib, bu aslyat matniga nisbatan tarjima matnidagi til unsurlarining joylashuv (ketma-ketlik) tartibini o‘zgartirish hisoblanadi. Qayta joylashtirishga uchrashi mumkin bo‘lgan unsurlar bu odatda matn qurilishidagi so‘z, so‘z birikmalari, qo‘shma gap qismlari va mustaqil gap.

Almashtirish tarjima transformatsiyasining eng keng tarqalgan va ko‘pqirrali turidir. Tarjima jarayonida grammatik birliklar – so‘z shakllari, so‘z turkumlari, gap bo‘laklari, sintaktik munosabat tiplari almashtirilishi mumkin.

Leksik transformatsiya: Har qanday so‘z, ya’ni leksik birlik bu tilning lug‘at tizimi bo‘lagidir. Bu bilan turli tillarda so‘z semantik strukturalarining o‘ziga xosligi tushuntiriladi. Turli tillarda so‘z mazmunida ko‘pincha shu til tashuvchilariga xos bo‘lgan dunyoni his qilishi o‘z ifodasini topgan bir xildagi hodisa yoki tushunchalarning turlicha belgilari ajralib turadi. Bu esa tarjimada qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Transformatsiya tiplari: Transliteratsiya va transkripsiya

Transliteratsiya va transkripsiya usuli o‘zbek tilidagi atoqli otlar, geografik nomlar, kema, samolyot, ro‘znoma, jurnal, firma nomlarini koreys tiliga tarjima qilishda qo‘llaniladi.

Transliteratsiya usulidan foydalanishning asosiy sababi aslyatda qo‘llanilgan milliy xususiyatli lisoniy vositalarning tarjima tilida mavjud bo‘lmaganligi tufayli aslyatning milliy xususiyatini tarjima tili sohiblariga xos xususiyat bilan almashtirib qo‘yish yoki tarjimani umuman bunday xususiyatdan mahrum etish kabi holatlarga yo‘l qo‘ymaslikdan iboratdir. Amerika Qo‘shma Shtatlari “dollar”ining, ingliz “funt sterling”ining, nemis “marka”siyu hind “rupiya”sining, afg‘on “afg‘oniy”sining transliteratsiya qilinmasdan, o‘zbek “so‘m”i bilan almashtirib qo‘yilishi, AQSh “brendi”si, ingliz “viski”si, nemis

“shnapse”sining rus “vodka”si orqali talqin etilishi ingliz boshiga “shlyapa” o‘rniga o‘zbek “do‘ppi”sini, egniga “palto” yoki “plashch” o‘rniga “to‘n” yoki “yaktak” kiygizib qo‘yish bilan baravar”¹¹⁹.

1. Kalkalash. Kalkalash – o‘zga tilning leksik, frazeologik birliklarining modellari asosida o‘z til elementlaridan foydalanib so‘z yoki frazeologik birliklar hosil qilish¹²⁰. Ekvivalenti mavjud bo‘lmagan leksikani yetkazib berishning bu uslubi o‘zbek tilidagi so‘z yoki so‘z birikmasini qismlarga bo‘lib tarjima qilish va kelgusida tarjima qilingan qismlarni birlashtirishdir. Masalan,

2. Almashtirish va uning turlari:

- a) So‘z shaklini almashtirish,
- b) So‘z turkumlariga mansublikni almashtirish,
- c) Gap bo‘laklarini almashtirish,
- d) Gapdagi tarkibiy qismlarni almashtirish.

3. Qo‘shish – tarjimada asliyat leksik birligi ma’nosini tiklash uchun so‘z qo‘shish.

4. Tushirib qoldirish – asliyat tilidagi so‘zni tarjima tiliga tarjima qilayotganda tushirib qoldirish.

5. Umumiyashtirish – bir tilda juda muayyan mazmunga, boshqa tilda esa umumiy mazmunga ega so‘z-realiyalarni qo‘llash uchun ishlatiladi.

6. Anatomik tarjima – asliyat tili strukturasi tarjima tilining anatomik strukturasi muvofiq tarjima qilinadigan transformatsiya.

7. Tasviriy tarjima – tarjimaning bu turi so‘z yoki so‘z birikmasining kengaytirilgan izohini ko‘zda tutadi. Mazkur turdan o‘zbek tilidagi so‘zning ifodalagan realiyalari xitoy tilida mavjud bo‘lmagan holatlarda ishlatiladi.

3.2 Iqtisodiy matn tarjimasida qisqartma so‘zlar (abbreviaturalar)ning berilishi

¹¹⁹ Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T., 2005. B. 3.

¹²⁰ Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – T., 1985. B. 41.

Qisqartma soʻzlar tilshunoslikda abbreviaturalar deb yuritiladi. Abbreviaturalar (ital. *abbreviatura* lot. *brevis* – qisqa) murakkab qisqartirilgan abbreviaturalar va initsial abbreviaturalarga boʻlinadi. Murakkab qisqartirilgan abbreviaturalar qisqa elementlar (morfemalar)dan tashkil topgan boʻlsa initsial abbreviaturalar yoki akronimlar soʻzlarning birinchi harflari yoki tovushlaridan tashkil topadi hamda harfli abbreviatura, tovushli abbreviatura, harfli-tovushli abbreviaturalarga boʻlinadi. Abbreviaturalar yozma tiliga ega boʻlgan barcha xalqlar yozuvlarida qoʻllaniladi. Qisqartmalardan foydalanishdan maqsad yozuv joyini tejash va koʻp qaytariladigan soʻz va iboralarni tez yozish uchundir. Ilk bor antik davr yozuvlarida keyin boshqa qoʻlyozmalarda qisqartmalar mavjud boʻla boshlagan. Hozirda qisqartmalardan keng foydalaniladi.

Abbreviatura (ital. *abbreviatura* — qisqartma lot. *abbrevio* — qisqartiraman) — 1) lingvistikada: soʻz birikmalarini qisqartirib hosil qilingan soʻzlar: a) birikma tarkibidagi soʻzlar birinchi harflari alifbo tartibida oʻqiladi yoki oddiy soʻz — harflar anglatgan tovushlar kabi talaffuz etiladi. Masalan, BMT (be-me-te) — Birlashgan Millatlar Tashkiloti, MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi); b) murakkab qisqartma soʻzlar: soʻz birikmalari tarkibidagi soʻzlar birinchi harflaridan tashqari, ular maʼlum qismlari (morfemalari) olinib yasaladi. Masalan, OʻzR (Oʻzbekiston Respublikasi), yurfak (yuridik fakultet); 2) musiqada: nota yozuvida qisqartirish va soddalashtirish belgisi. Kuy qismlarining takrorlanishida, juda baland yoki past tovushlarni bir oktava baland yoki past qilib shartli notalashtirishda, nota chiziqlaridan soʻng qoʻshimcha chiziqlarni kamaytirish-da qoʻllaniladigan belgilar. Abbreviatura partiturada kuyga qochirim berishni ham ifodalaydi. Abbreviatura yordamida asarning nisbatan mustaqil, tugal qismi yoki qoʻshiq bandi takrori, ayrim takt yoki kuy tuzilmalari takrori beriladi. Abbreviatura koʻp qoʻshimcha chiziqlardan xalos qilib, nota oʻqilishini osonlashtiradi. Musiqa bezaklarini ifodalashda keng qoʻllaniladi¹²¹.

¹²¹ Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов.-М., 1969. С. 608.

Harfiy qisqartmalar (abbreviaturalar) soʻzlarning bosh harflarining alifbodagi nomlanishidan iboratdir.

Oʻzbek tilida ham qisqartmalar korxonalar-tashkilot, muassasalar nomlarini ifodalashda koʻp qoʻllaniladi:

FVV – Favqulotda vaziyatlar vazirligi

ИБ – Ichki ishlar boʻlimi

TATU – Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

XDP – Xalq demokratik partiyasi

Iqtisodiyotga oid soʻzlar, soʻz birikmalarida ham koʻplab qisqartmalarni uchratish mumkin:

Oʻzbek tilida: QQS – qoʻshimcha qiymat soligʻi

Rus tilida: НДС – налог на добавленную стоимость

Ingliz tilida: VAT – Value added tax

Koreys tilida: 부가세 – 부가 가치 세금

Oʻzbek tilida: OAJ – Ochiq aksiyadorlik jamiyati

Rus tilida: ОАО – открытое акционерное общество

Ingliz tilida: open co, ltd., open corporation

Koreys tilida: 개방형 주식 회사

Oʻzbek tilida: MCHJ – Masʼuliyati cheklangan jamiyat

Rus tilida: ООО – Общество с ограниченной ответственностью

Ingliz tilida: limited company, ltd.

Koreys tilida: 유한 책임 회사

Oʻzbek tilida: XK – Xususiy korxonalar

Rus tilida: ЧП – частное предприятие

Ingliz tilida: private company

Koreys tilida: 개인 회사

Oʻzbek tilida: QK – Qoʻshma korxonalar

Rus tilida: СП – совместное предприятие

Ingliz tilida: joint venture

Koreys tilida: 합작 기업

O‘zbek tilida: AJ – Aksiyadorlik jamiyati
Rus tilida: AO – акционерное общество
Ingliz tilida: SC – Stock company
Koreys tilida: 주식 회사

O‘zbek tilida: INK – Iste’molchi narx iko‘rsatkichi
Rus tilida: ИПЦ – индекс потребительских цен
Ingliz tilida: CPI – consumer price index
Koreys tilida: 소비자 물가 지수¹²²

O‘zbek tilida: YaIM – Yalpi ichki mahsulot
Rus tilida: ВВП – Валовый внутренний продукт
Ingliz tilida: GDP – Gross domestic product
Koreys tilida: 국내총생산

O‘zbek tilida: YaIM – Yalpi ichki daromad
Rus tilida: ВВД – Валовый внутренний доход
Ingliz tilida: GDI – Gross domestic income
Koreys tilida: 국내총소득

O‘zbek tilida: YaMD – Yalpi milliy daromad
Rus tilida: ВНД – Валовый национальный доход
Ingliz tilida: GNI – Gross national income
Koreys tilida: 국민소득

O‘zbek tilida: YaMM – Yalpi milliy mahsulot
Rus tilida: ВВП – Валовый национальный продукт
Ingliz tilida: GNP – Gross national product
Koreys tilida: 국민총생산¹²³

O‘zbek tilida: XVF – Xalqaro valyuta fondi
Rus tilida: МВФ – Международный валютный фонд
Ingliz tilida: IMF – International monetary fund

¹²²남행완. Iqtisodiy so'zlar jamlanmasi. T., 2012. B.93.

¹²³남행완. Iqtisodiy so'zlar jamlanmasi.-T., 2012. 242-243-b.

Koreys tilida: 국제 통화 기금¹²⁴

O‘zbek tilida: STIR – soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami

Rus tilida: ИНН – идентификационный номер налогоплательщика

Ingliz tilida: TIN – Taxpayer identification number

Koreys tilida: 납세자 등록번호

O‘zbek tilida: XXTUT – Xalq xo‘jalik tarmoqlarining umumdavlat tasniflagichi

Rus tilida: ОКОНХ - общегосударственный классификатор отраслей народного хозяйства

Ingliz tilida: NCBNE – National Classification of Branches of the National Economy

Koreys tilida: 국가 경제의 분기 국가 분류

O‘zbek tilida: EIIZ – Erkin industrial-iqtisodiy zona

Rus tilida: СИЭЗ – свободная индустриально-экономическая зона

Ingliz tilida: FIEZ – Free industrial-economic zone

Koreys tilida: 경제특구

Koreys tilida esa harfiy qisqartmalar uchramaydi. Faqatgina o‘sha mazmuni anglatuvchi inglizcha harfiy qisqartmalar bo‘lishi mumkin. Koreys tilida turli atamalar, tashkilot nomlari inglizcha qisqartmalar orqali ifodalanadi.

“ILJIN E&C” 일진 건설 업체 (日辰 建設 業體) – Qurilish tashkiloti nomi. Bu yerda “E&C” inglizcha – “engineering and construction” bo‘lib, qurilish tashkilotlari nomlari tarkibida ko‘p uchraydi: “GS E&C”, “KS E&C” kabi.

Sof koreys tilida esa bo‘g‘inli qisqartmalar uchraydi. Bunda so‘z birikmalarining bosh bo‘g‘inlari olinadi. Aslida bo‘g‘inlarning o‘zi bir mazmunga ega bo‘lib, uning asosi xitoy iyerogliflari (kalitlari) hisoblanadi. Shuning uchun so‘z birikmasi qisqartirilgan taqdirda ham undan mazmun aniq ko‘zga tashlanib turadi.

관세 (關稅) – 통관 세금 bojxona solig‘i (boji)

가업 (家業) – 그 집안의 직업 a family occupation; uy xo‘jaligi.

¹²⁴남행완. Iqtisodiy so‘zlar jamlanmasi.-T., 2012. B.317.

가업 (街業) – 길거리에서 하는 영업 the business on the street; уличная торговля;

기전부 – elektro-mexanika bo‘limi

“순익 순이익이란 매출액에서 매출원가, 판매비, 관리비 등을 빼고 여기에 영업외 수익과 비용, 특별 이익과 손실을 가감한 후 법인세를 뺀 것이다.

경상이익에 특별손실과 특별이익을 가감한 후 법인세를 빼면 순이익이 나온다”¹²⁵.

“Sof foyda bu savdo (daromad) miqdoridan mahsulotning asl bahosi, boshqa xarajatlarni ajratilgan, foyda va xarajatlarni maxsus daromad va zararlarni hisob-kitob qilinib, tashkilotning barcha soliqlari chiqarib tashlangan holda qolgan sof foydadir. Savdodan tushgan daromaddan barcha xarajatlarni ayirib tashlansa sof foydaning miqdori chiqadi”.

가처분소득 (假處分所得) – 세금을 뺀 개인 소득. 각자의 욕망에 따라 자유로이 처분할 수 있는 소득. 개인이 마음대로 쓸 수 있는 소득.

1. 개인소득 중 소비, 저축을 자유롭게 할 수 있는 소득
2. 개인의 의사에 따라 마음대로 쓸 수 있는 소득

세수 = 세수입 (稅收入) – 조세를 징수하여 얻는 수입. Revenue – yillik daromad¹²⁶

감산 = 감소생산 – 생산이 줄. 또는 생산을 줄임. ishlab-chiqarishning kamayishi.

Iqtisodiyotga oid sintagmalar . Tarjimonlik faoliyatida har bir sohaning o‘z terminologiyasi hamda sintagmalarini mukammal o‘rganishi katta ahamiyatga molikdir. Sintagma – bu (yunon. Syntagma – birlashgan narsa) nutqning mazmun va ritmik-melodik jihatdan bir butunlikni hosil etuvchi semantik-sintaktik bo‘lagi. Sintagma bir yoki undan ortiq so‘zdan iborat bo‘lishi, hatto gapga teng bo‘lish mumkin¹²⁷.

O‘zbek tilidan koreys tiliga tarjima qilish faoliyati bilan shug‘ullanuvchilarga iqtisodiy matnlarni tarjima qilishda amaliy ko‘rsatma va ko‘mak sifatida bir qator sintagmalarni keltirib o‘tamiz.

¹²⁵ 김준동·강준구·김혁황·김민성·이성봉. 국내 외국인직접투자의 경제적 효과 및 투자환경 개선방안. 연구보고서 09-04.KIEP 대외 경제 정책 연구원. 서울, 2009.

¹²⁶ Sh. Butayev, A. Irisqulov. Inglizcha-o‘zbekcha lug‘at.-T., 2006. B.524.

¹²⁷ Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – T., 1985. B 75.

chet el investitsiyalari – 외국인투자
chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – 외국인투자기업
korxonatashkil etish – 기업을 설립하다
ustav jamg'armasi – 수권 자본
iqtisodiy mustaqillikka erishuv – 경제 자립 달성 (經濟自立達成)
iqtisodiy rivoj uchun sharoit – 경제성장의 선결조건
iqtisodiy toifa bo'lmasi – 이코노미 클래스
iqtisodni sog'lomlashtirish istiqboli – 경제회복전망
xo'jalik birlashmalari tashkil etish – 경제 연합을 설립하다
xo'jalik yurituvchi subyektlar – 경제 주체
xo'jalik yuritish huquqi – 용익물권
xo'jalik mexanizmini o'zgartirish – 경제구조 개혁
majburiy to'lovlarni to'lash – 부담금을 납부한다
erkin ayrboshlanadigan valyuta – 자유 태환성통화
ko'p martalik viza – 복수비자
eksport kredit agentliklari – 해외수출보험기관
mulkning ekspropriatsiya qilinishini – 재산의 수용
mulkning olib qo'yilishi – 재산의 몰수
mulkning boshqa shaxsga o'tkazilishi – 재산으로부터의 배제
mulk yoki u orqali olinadigan daromadlar ustidan nazorat qilish imkoniyati
yo'qotilishi – 재산으로부터의 소득 상실
mulkni boshqarish huquqi – 재산에 대한 지배
chet el valyutasini mamlakatdan tashqariga o'tkazishga cheklovlar joriy
etilishidan sug'urta qilish – 국외로의 외환 송금에 대한 제한 부과
hududga kirish va hududdan chiqish – 출입국 (出入國)
hududda bo'lish – 체류 (滯留)
mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsatnoma – 근로활동허가
mulkni davlat tasarrufidan chiqarish – 탈 중앙 집중화

3.3 Iqtisodiyotga oid matnlar tarjimasida adekvatlik va ekvivalentlik masalasi

Tarjima tillararo muloqotning alohida turi sifatida asosiy e'tiborni ikki til tizimining semantik jihatiga qaratishni taqozo etadigan ijodiy jarayondir. Chunki axborotning to'laonliligi asosini turli tillar matnlarining semantik uyg'unligi tashkil etadi. Lisoniy tarjimaning muhim vazifalaridan biri "tarjimaviy ekvivalentlik" tushunchasini muayyan tilga tarjima qilishdan iboratdir.

Tarjima jarayonida tarjimon oldida turgan eng katta muammolardan biri ekvivalentlarning tanlanish masalasidir. Ekvivalentlik nazariyasi tarjima jarayonida tillararo xoslashuvning eng samarali variantlarini izlab topish va tarjima faoliyatiga tadbqiq etish asosini shakllantiradi. Asliyat tili bilan tarjima tili o'rtasida o'rnatilgan munosabatlarning aksi ekvivalent munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Kontekstual muqobil bilan almashtirish (ekvivalent) – o'xshashlik, bir-biriga yoki boshqasiga o'xshashlik, ya'ni muqobil tushuncha bilan berish nazarda tutiladi.

Tarjima nazariyasida "ekvivalent" tushunchasiga ko'p ma'noviy va bir muncha murakkab termin sifatida qaraladi. Bu tushuncha asliyat matni hamda tarjima matnlari mazmunining birligiga erishishda tarjimon e'tibor qaratadigan asosiy masalalardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Negaki, tarjima ekvivalentligi lotinchada *aequus* – teng, teng qiymatli va *valentis* – kuchga ega, mazmun umumiyliigi, mazmun yaqinligi, asliyat va tarjima matnlarining teng qiymatliliigi degan ma'noni bildiradi¹²⁸.

"Ekvivalent" termini zamonaviy tarjima nazariyasiga XX asr o'rtalarida A.D.Shveyser tomonidan kiritilgan bo'lishiga qaramay, fransuz tilida "ekvivalent" (equivalent) atamasi XIX asrning 1864-yillarida aynan tilshunoslik bilan bog'liq tushuncha hisoblanib kelingan. Jumladan, R. Yakobson fransuz

¹²⁸ Словарь по общественным наукам. <http://slovari.yandex.ru>.

olimi Bodler (1821-1867) tadqiqotlarida bunday holatni uchratganligini ta'kidlab o'tgan¹²⁹.

Tarjimashunoslikda ekvivalentlikning sinonimlari bo'lib, ular, tenglik, muqobillik, muvofiqlik yoki muvozanat, o'xshashlik hamda adekvatlikdir¹³⁰.

Muqobil – imkoniyatdagi bir necha sinonimlardan birini tanlab olgan holda qilingan tarjima natijasidir, ekvivalent har doim bitta, muqobillar esa bir nechta bo'lishi mumkin deb hisoblaydi. V.Vinogradov ham Y.Reskerning tasnifiga ko'ra muqobillar yordamida, xususan, frazeologizmlar, maqol va hikmatli so'zlar tarjima qilinadi deb aytadi. Y.Resker “Adekvatlikka erishish uchun tarjimon asliyatning harfiy iskanjasidan, lug'aviy va iboraviy muvofiqliklardan qutulishi va vazifaning yechimini yaxlitlik nuqtai nazaridan mazmun, g'oyaviy yo'nalish va asliyat uslubidan qidirmog'i lozim deb hisoblaydi”. Uning tasnifi tilshunos tarjimashunos olimlarining jiddiy e'tirozlariga sabab bo'ldi. V.Vinogradov uni muqobillarning bir-biriga to'g'ri kelmaydigan emotsional-ekspressiv, stil, dialekt jihatidan xarakterini hisobga olmaganligini tanqid qilgan¹³¹.

Tarjimaning ekvivalentligi, tengligi va adekvatligi tushunchalarining nisbiyligi nazariyada turlicha tushuntiriladi: ba'zan bu tushunchalar sinonimlardek, ba'zan esa turli ma'noga ega deb qaraladi. Tarixiy rivojlanish jarayonida tilshunos hamda tarjimashunoslar orasida ushbu sinonimlarni bir-birining o'rniga qo'llash kerakmi yo'qmi degan savol ko'pgina bahslarga sabab bo'lmoqda.

Tarjimaning ekvivalentligi haqidagi tasavvur bir necha marotaba o'zgargan. Ba'zi hollarda tamoman qarama-qarshi tasavvurga o'zgargan. Masalan, S. Vлахov “ekvivalentlik” deganda mazmun doirasida ikki tilning tegishli birliklari semantika, konnotatsiya, fon o'rtasida to'liq o'xshashlikni nazarda tutsa¹³², A.O.

¹²⁹ Якобсон Р., Лингвистические аспекты перевода – М., 1959. С.32.

¹³⁰ Лотинча “адекватус” – тенглаштирилган, тенг, мувофик, айнан.

¹³¹ Виноградов В.В. Введение в переводоведение: Общие и лексические вопросы.– М., 2001. С.79.

¹³² Иванов А.О. Безэквивалентная лексика.–М., 2006. С.181.

Ivanov ekvivalentlik deganda tarjima tilida manba til birlamchi birliklarining shu kontekst doirasida barcha ma'no-mazmun komponentlari yoki mazmunning biror-bir variantlarining funksional mutanosibligini tushunadi. R. Levitskiy esa, “ekvivalentlik” va “adekvatlik” atamalarini bir-birining o‘rniga ishlatish mumkin deb hisoblaydi¹³³. Boshqa tadqiqotlarda esa adekvatlikka keng ma'no beriladi. V.G. Kostomarov “adekvat tarjima” bu yaxshi tarjima, ya'ni muayyan sharoitda tillararo kommunikatsiyaning to‘liqligini ta'minlaydi. Ekvivalentlik esa tenglik, til va nutqning bir-biriga tenglashtirilayotgan birliklarining mazmun jihatdan umumiyliги sifatida tushuniladi¹³⁴”.

Sh. Sirojiddinov o‘zining “Badiiy tarjima asoslari” kitobida ekvivalentlikning sinonimi sifatida “muvofiqlik” tushunchasini berib, u ekvivalentlik nazariyasini bilish va uning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish tarjima matnining asliyatdagi kabi badiiy yetuk qiyofa kasb etishiga yordam beradi. Adekvat tarjima esa har jihatdan mos, aynan teng, asl nusxaga mazmun va shakl jihatdan muvofiq tarjima deb hisoblaydi. Uning fikriga ko‘ra, tarjimon o‘z harakatlarida asliyat va o‘z tili doirasida hamda tildan tashqari bo‘lgan zaruriy omillar ya'ni ekstralingvistik va pragmatik omillar taqozosiga ko‘ra ikki tilda uzatilayotgan axborot mazmunining teng darajasini topishni asosiy vazifa sifatida qarashi lozim. Ana shunday muvofiqlik darajasi tarjima nazariyasida tarjima ekvivalentligi va adekvatligi tushunchalari orqali belgilanadi¹³⁵.

Tarjimada ekvivalentlikka erishishda uning darajalarini e'tirof etish juda muhim. Bu tilshunos va tarjimashunoslar tomonidan turlicha talqin etilgan¹³⁶.

Asliyat va tarjimaning mazmunan to‘la-to‘kis mos kelishi birinchi darajali zarurat ekanligi tufayli ko‘pchilik tadqiqotchilar ekvivalentlikni tarjimaning asosiy belgisi va sharti deb hisoblashadi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki,

¹³³ Левицкая Т.Р. Проблемы перевода.–М., 1976. С.3.

¹³⁴ Костомаров В.Г. Лингвострановедческая теория слова.–М., 1980. С.54.

¹³⁵ Сирожиддинов Ш. Бадий таржима асослари.–Т., 2011. Б.18.

¹³⁶ Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика.–М., 1974. С.12.

ekvivalentlik tarjimaga berilgan “bir tildagi matnni o‘zga tilda shu darajadagi matn bilan almashtirish” kabi ta’rifga mos keladi.

Ushbu holda “ekvivalentlik” tushunchasi tarjimaning sifatli, yuqori bahoga loyiq ekanligini ko‘rsatib turibdi. Demak, ekvivalent tarjima “yaxshi”, “to‘g‘ri” tarjima sanalgani holda, ekvivalent bo‘lmagan tarjima to‘g‘ri (adekvat, to‘laqonli) tarjima deb bo‘lmaydi. Shunday qilib, ekvivalent tarjima aslyat mazmunini o‘zga tilga vazifaviy-uslubiy jihatdan to‘la-to‘kis talqin etishdan iborat jarayondir. Buning ma’nosi shuki, til belgilari yig‘indisidan iborat matn mazmuni tarjimada vazifaviy qayta yaratiladi.

Tarjimada ekvivalentlikka erishishda aslyat matnda turli mazmuniy elementlarni saqlab qolish yoki yo‘qotishga asoslangan bo‘lishi mumkin. Mazmunning qaysi qismi uning ekvivalentligini ta’minlash uchun tarjima qilinayotganligiga qarab ekvivalentlikning turli darajalariga ajratiladi. Erkin yoki so‘zma-so‘z tarjimaning afzal tomonlari haqidagi abadiy bahs ekvivalentlikning kerakli darajasini o‘rnatishga bo‘lgan harakatdir. Y.Y. Nayda o‘zining “The theory and practice of translation” kitobida ekvivalentlikni formal hamda dinamik kabi ikki asosiy turga ajratadi:

- Formal ekvivalentlikda taqdim etilayotgan axborot nasriy janrda bo‘lsa nasr, she’riy janrda bo‘lsa o‘sha janr qoidalariga to‘la muvofiqlashtirilgan holda uzatilishi muhim.

- Dinamik ekvivalentlikda esa, ma’no jihatdan umumiy yaqinlikka e’tibor qaratiladi¹³⁷.

Aslyat va tarjima matnlarining ekvivalentlik munosabatlari asosan quyidagicha namoyon bo‘ladi:

Ekvivalentlikning birinchi turida tarjimalarning aslyatga uyg‘unligi ko‘z ilg‘amas darajada namoyon bo‘ladi. Mazkur tarjima turida aslyat va tarjima o‘rtasidagi munosabatlar asosan ushbu ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

a) leksik tarkib va sintaktik qurilishdagi nomuvofiqlik;

¹³⁷ Nida, Eugense A., Charles R., The Theory and Practice of Translation.–L.,1969. P.185.

b) ikki holatda ham bir xil fikr bayon etilayotganligiga qaramasdan, asliyat va tarjimada ifoda etilgan axborot o'rtasida bevosita mazmuniy yoki mantiqiy bog'lanishning ko'zga tashlanmasligi;

v) asliyat va tarjima matnlari mazmunlari orasidagi umumiylik darajasi ekvivalent sifatida tan olingan boshqa tarjimalarga nisbatan nihoyatda past.

Shunday qilib, ekvivalentlikning ushbu turida asliyatdagiga nisbatan tarjimada go'yo mutlaqo boshqa narsa haqida gapirilayotgandek tuyuladi. Bunday tarjimalarni asliyatlari bilan qiyoslash shuni ko'rsatadiki, ular odatda birlamchi matnlar tarkiblaridagi leksik va grammatik birliklar ma'no va shakllaridan kelib chiqib, "bevosita" amalga oshirilmaydi, balki matnlar tarkiblarida yashirin holda mavjud bo'lib, butun boshli ifodalar asosida oydinlashadigan "hosila" mazmunlar asosida yaratiladi. "Hosila" mazmun ko'pincha "nazarda tutilgan" yoki "ko'chma" mazmun deyiladi. Bunday hollarda "bevosita" mazmun chetda qoladi.

Ekvivalentlikning ikkinchi turida tarjimaning asliyatga yaqinligi foydalanilgan til vositalari ma'nolarining bir xil emasligi bilan izohlanadi. Bu guruhda asliyat bilan tarjima matnlarini tashkil etadigan ko'pchilik so'z va sintaktik qurilmalar o'rtasida bevosita yaqinlik ko'zga tashlanmasada, ikki til matnlari ekvivalentlikning birinchi turiga nisbatan mazmunan ko'proq o'xshashdir.

Asliyat va tarjima orasidagi umumiylik shundan iboratki, birinchi holat so'zlovchining suhbatdoshi tomonidan aytilgan fikrga javoban hayajonli munosabatini bildiradi. Ikkinchi holatda esa o'zgacha lisoniy vositalardan tashkil topgan asliyat va tarjima matnlari aslida bir xil harakatni tasvir etadi, chunki telefonda go'shakni ko'taribgina gaplashish mumkin. Qisqasi, bir xil fikr har xil so'zlar asosida ifoda etiladi. Ushbu ekvivalentlik turida fikr turli tillarda turlicha ifoda etilsada, bir xil vaziyat tasviri yaratiladi. Bunday hol muloqot ishtirokchilarining g'ayrilisoniy tajribalari asosida yuzaga keladi.

Bunday ekvivalentlikning turli tillar dalillari asosida tadqiq etilishi tilshunoslik nuqtai nazardan muhim ahamiyat kasb etadi. U tillar o'rtasidagi

umumiy va tafovutli holatlarni muayyan qilish, shu yo‘l bilan tillar hodisalariga ongli yondashish imkoniyatini beradi.

Ekvivalentlikning uchinchi turida aslyat va tarjima matnlari orasida quyidagi xususiyatlar ko‘zga tashlanadi: ikki tilning mazmunan o‘zaro mos ifoda vositalari leksik tarkib va goho sintaktik qurilish jihatlaridan to‘la uyg‘un bo‘lmaydilar:

“Birinchii bosqichda xususiylashtirishning ushbu jarayoni asosan savdo, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish, mahalliy sanoat korxonalarini xususiy va jamoa (shirkat) mulki qilib berish negizida amalga oshirilgan kichik xususiylashtirish sohasida ayniqsa faol o‘tdi. Kichik xususiylashtirish 1994-yildayoq tugallandi va hozirgi vaqtda (1995-yil boshlarida) savdo-sotiq hajmi va umumiy ovqatlanish yalpi mahsulotining 82 foizidan ortiqrog‘i davlatga qarashli bo‘lmagan sektorga to‘g‘ri kelmoqda. Tarmoqlar bo‘yicha qabul qilingan xususiylashtirish dasturlariga muvofiq, “Mahalliy sanoat” korporatsiyasi tizimidagi korxonalarining ko‘pchiligi, “O‘zbeksavdo”, “O‘zbekbirlashuv” va “O‘zmaishiyuyushma” assotsiatsiyalari qayta tashkil qilindi”¹³⁸.

“cht danjeeseris sayuwa zuneseris iderhan gawgisi zuu muwiyepka gong pini siseul sayu hngaina jipdan(jozhapui) suuwihngaito jionhansiki is gubangro gajang huwalhake jionhngiwat. isis 1994n imi wansuwiwatgo 1995 zo hngai bi guwng bunyaga muwiy zongsan 82% gajangul chazihago ita. “mahalli sanoyart” (jiziy sanep) jozhapui bunqawa gijepui apdotik dajusul chazihais “uwzbeksawdo” (muwiy hupui), “uwzbekbirlashuv” (uwzbekiistan sobiza jozhapui), uwzbechuwz (gong pini siseul sibus hupui) dunesi chaitakan sayuwa gijehui matuwi gita suuwihngaito bionhng jizepui iduwirjwat”¹³⁹.

Xususiylashtirish – sayuwa (sayuhwa)

Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish – gong pini siseul sibus

Yalpi mahsulot – zongsan (zongsan)

¹³⁸ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild.-T., 1996. B. 210.

¹³⁸ isulom kariuopu. uwzbekiistanui gijehui. 32 juk.

¹³⁹ isulom kariuopu. uwzbekiistanui gijehui. 34 juk.

Davlatga qarashli bo‘lmagan sektor – 비 국영 분야

Mahalliy sanoat korxonalarini – 국내 산업 기업

Matndagi “kichik xususiylashtirish” birikmasi tarjimada berilmagan. Uning o‘rniga “bu” olmoshi qo‘llanilgan. Keyingi gapda “umumiy ovqatlanish yalpi mahsuloti” - “총생산”, ya’ni “yalpi mahsulot” deb tarjima qilingan. “Umumiy ovqatlanish – 대중, 공동 급식 kabi so‘zlar orqali ifodalanishi mumkin edi.

Matnda bundan tashqari korxonalar-tashkilot nomlari transliteratsiya usuli bilan berilgan va qavs ichida uning koreys tiliga tarjima variant keltirib o‘tilganki, bu kitobxon uchun tushunarli bo‘ladi: “마할리 사노아트” (지역 산업), “우즈벡사브도” (무역 협회), “우즈벡비를랴슈” (우즈베키스탄 소비자 조합), 우즈비초유즈 (공공 편의 시설 서비스 협회). Faqat “O‘zmaishiyuyushma” - “우즈비초유즈” (공공 편의 시설 서비스 협회) rus tili variantidan tarjima qilingan ekanligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

“Mulknini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni borgan sari avj olmoqda. Davlat mulkini xususiylashtirish boshlangan davrdan beri 1994-yil oxirigacha 54 mingga yaqin korxonalar va obyekt davlat tasarrufidan chiqarildi. Shularning 18,4 mingtasi xususiy mulkka o‘tdi, 26,1 mingtasi aksiyadorlik, 8,7 mingtasi jamoa, 661 tasi ijara korxonalariga aylandi. Xususiylashtirilgan korxonalar negizida chet el kapitalini jalb qilish yo‘li bilan qo‘shma korxonalar tuzilmoqda. Hozirgi paytda har uch korxonaning ikkitasi mulkchilikning davlatga qarashli bo‘lmagan shakliga ega. 1994-yilda yalpi ijtimoiy mahsulotning deyarli yarmi iqtisodiyotning davlatga qarashli bo‘lmagan sektorida ishlab chiqarildi”¹⁴⁰.

“탈 중앙집중화와 사유화 과정이 전기를 맞았다. 사유화를 시작한 이래 1994년 말 경까지 54000개 가량의 기업과 사업이 중앙의 소유를 벗어났다. 그 중 18400개는 현재 개인 소유이며 26100개는 주식 회사 소유이고 8700개는 집단 소유이며 661개는 리스된 기업이다. 외자를 도입한 합작회사도 사유화의 기반에서 설립된 것이다. 오늘날 기업의

¹⁴⁰ Karimov I.A. «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir». 3-jild.-T., 1996. B. 212.

3분의 1은 국가의 소유가 아니다. 1994년에는 거의 GNP의 절반이 경제의 민간 분야에서 달성되었다”¹⁴¹.

개인 소유 (個人 所有) – xususiy mulk

주식 회사 (株式 會社) – 주주로 조직된 유한 책임 회사. 7인 이상의 발기인으로 설립 가능. Joint-stock company¹⁴². aksiyadorlik korxonasi

집단 소유 – jamoa mulki

리스된 기업 – ijara korxonasi

GNP – yalpi ijtimoiy mahsulot

외자를 도입한 합작회사 – chet el kapitalini jalb etish yo‘li bilan tuzilgan qo‘shma korxonasi.

Matndagi “Xususiylashtirish jarayoni avj oldi” birikmasi koreys tiliga tarjimada “사유화 과정이 전기를 맞았다”, ya’ni xususiylashtirish jarayoni “elektr tokiga urildi” yoki “tok urdi” kabi ibora bilan berilgan.

Yuqoridagi “Hozirgi paytda har uch korxonaning ikkitasi mulkchilikning davlatga qarashli bo‘lmagan shakliga ega”, gapi tarjimada – “오늘날 기업의 3분의 1은 국가의 소유가 아니다”, kabi tarjima qilingan. Bu yerda aslyatda “uch korxonadan ikkitasi” tarjimada “korxonalarining uchdan bir qismi” tarzida xato keltirilgan.

Quyidagi gap tarjimasini ko‘rib chiqamiz:

“Xususiylashtirilgan korxonalar negizida chet el kapitalini jalb qilish yo‘li bilan qo‘shma korxonalar tuzilmoqda” – “외자를 도입한 합작회사도 사유화의 기반에서 설립된 것이다”, ya’ni “chet el bilan tuzilgan qo‘shma korxonalar ham xususiylashtirish negizida tashkil etilgan”, deb tarjima qilingan. Buni “사유화의 기반으로 외자를 도입한 합작회사들이 설립되어 있다” tarzida tarjima qilish mumkin.

3.4 Iqtisodiy matnlarni vositachi til orqali tarjima qilish

Yevropa va boshqa xalqlarga tegishli bo‘lgan noyob asarlar, ko‘plab adabiyotlar o‘zbek tiliga rus tili vositasida, ya’ni avval rus tiliga tarjima

¹⁴¹이슬롬 카리모프. 우즈베키스탄의 경제개혁.34 쪽.

¹⁴²정운길. 새로운 국어사전.국어문화회감수.민중서관.-서울, 2280.-2409쪽.

qilingandan so‘ng, keyin o‘zbek tarjimonlari tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Sharqshunos va g‘arbshunos olimlarimiz, yetuk tarjimon mutaxassislarimiz bo‘lishiga qaramasdan biz hanuz vositachi tilda qilingan tarjimalarga murojaat etamiz.

Iqtisodiy matnlarni tarjima qiluvchi tarjimon birinchi navbatda mos leksikani mukammal egallagan bo‘lishi lozim.

Bizga ma’lumki, vositachi til yordamida bajarilgan tarjima mahsullarining sifati ana shu tilda bajarilgan tarjima nusxasidan bir necha barobar past bo‘ladi. O‘zbek tarjimashunosi Qudrat Musayev ta’kidlab o‘tganidek, u yoki bu asarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri aslyatdan bajarilgan tarjimasida ham qator xato va kamchiliklarning sodir bo‘lishi tabiiy hol. Chunki har bir adabiy meros boshdan-oyoq milliy xususiyatga burkangan bo‘ladiki, tarjimada bu fazilatni yuz foiz aks ettirish imkoniyatdan tashqari. Uning vositachi til orqali bajarilgan tarjimasida esa bu xato va kamchiliklar miqdori yana ham oshib ketadi: asarni vositachi til orqali o‘girayotgan tarjimon o‘zi yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklardan tashqari, asarni aslyatdan vositachi tilga tarjima qilgan san’atkor tomonidan yo‘l qo‘yilgan nuqsonlarni ham beixtiyor takrorlaydi¹⁴³.

“Chet ellik investorlar O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tashkil etishlari hamda O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan o‘zlariga berilgan barcha huquqlar, kafolatlar va imtiyozlardan foydalanishlari mumkin. O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar deganda aksiyalarining (ulushlari, paylarining) yoki ustav jamg‘armasining kamida o‘ttiz foizini chet el investitsiyalari tashkil etadigan korxonalar tushuniladi.. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonani ta'sis etish yo‘li bilan yoki ilgari chet el investitsiyalari ishtirokisiz ta'sis etilgan korxonada ishtirok etish ulushini (payini, aksiyalarini) yoxud bunday korxonani butunlay, shu jumladan xususiylashtirish jarayonida chet ellik investor tomonidan sotib olinishi natijasida tashkil etilishi mumkin. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonada davlat ro‘yxatiga olingan

¹⁴³ Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari.-T., 2005. B .33.

paytdan e'tiboran yuridik shaxs huquqiga ega bo'ladi. (6-modda. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar)¹⁴⁴»

“Иностранные инвесторы могут создавать на территории Республики Узбекистан предприятия с иностранными инвестициями и пользоваться всеми правами, гарантиями и льготами предоставленными им законодательством Республики Узбекистан. Под предприятиями с иностранными инвестициями на территории Республики Узбекистан понимаются предприятия в которых иностранные инвестиции составляют не менее тридцати процентов акций (долей, паев) Или уставного фонда... Предприятие с иностранными инвестициями может быть создано либо Путем его учреждения либо в результате приобретения иностранным инвестором доли участия (паякций) в ранее учрежденном предприятии без иностранных инвестиций или приобретения такого предприятия полностью, в том числе в ходе процесса приватизации. Предприятие с иностранными инвестициями приобретает права юридического лица с момента государственной регистрации Порядок Создания государственной регистрации предприятий с иностранными инвестициями определяется Кабинетом Министров Республики Узбекистан. (Статья 6. Предприятия с иностранными инвестициями)¹⁴⁵»

“외국인투자자는 우즈베키스탄공화국에서 외국인투자기업을 설립할 수 있으며, 우즈베키스탄 공화국 법령이 인정하는 모든 권리, 보장 및 혜택을 누릴 수 있다. 우즈베키스탄 공화국에 설립된 외국인투자기업이란 외국인투자가 주식 또는 수권 자본의 30% 이상을 차지하는 기업을 말한다... 외국인투자기업은 외국인투자기업을 설립하거나, 민영화의 경우를 포함하여 이전에 외국인투자 없이 설립한 기업의 지분을 외국인투자자가 일부 또는 전부 취득함으로써 창설할 수 있다. 외국인투자기업은

¹⁴⁴ «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni.-T., 1998.04.30. 609-I-son.6-modda.

¹⁴⁵ Закон Республики Узбекистан "Об иностранных инвестициях" от 30 апреля 1998 года №609-I. Статья 6.

등기한 시점부터 법인으로서의 지위를 취득한다. 외국인투자기업의 설립 및 등기 절차는 우즈베키스탄공화국 내각이 정한다. (제6조 외국인 투자 기업)¹⁴⁶”

투자 (投資 [投-투 던지다, 내어놓다; 資- 자 자본) – 사업에 밀천을 댐; investment¹⁴⁷; ИНВЕСТИЦИЯ; investitsiya, moliyalashtirish.

투자자 – инвестор; sarmoyador

투자기업 – инвестиционная предприятия; sarmoya asosidagi tashkilot

보장 – обеспечение; gurantee, security; ta'minot;

혜택 (惠澤) – 은혜와 덕택; benefit, boon, grace, favor; льгота; imtiyoz

주식 – акция; stocks, shares, bond; aksiya;

수권자본 – уставный (капитал) фонд; ustav kapitali [fondi], authorized share capital;

민영화 (民營化 [民-민 백성, 사람,인류; 營-영 경영하다; 化-화 되다])– 관에서 운영하던 것을 민간인의 경영 체제로 바꿈 privatization¹⁴⁸; приватизация; xususiylashtirish
지분 – hissa, ulush.

법인 – юридическое лицо; corporation, corporate body, juridical person yuridik shaxs¹⁴⁹.

Ro‘yxatdan o‘tmoq – 등기하다¹⁵⁰

Yuqoridagi matn vositali usulda tarjima qilinganiga qaramasdan juda mahorat bilan tarjima qilingan. Barcha terminlar o‘z o‘rnida qo‘llangan.

Asliyatdagi mazmun tarjimada ham to‘liq aks etgan. Iqtisodiyotga oid matnlarni boshqa turdagi matnlar, ayniqsa badiiy matndan farqi shundan iboratki, unda emotsional-ekspressiv birliklar qo‘llanilmaydi va iboralar, ko‘chma ma’nodagi so‘zlar, realiyalar, milliy koloritlar nisbatan juda kam qo‘llaniladi.

“Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar ixtiyoriy ravishda O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston

¹⁴⁶ "외국인의 투자"에 관한 우즈베키스탄공화국 법률 1998년 4월 30일, 제609-1호.

¹⁴⁷ 정운길. 새로운국어사전국어문학회감수. 민중서관. -서울, 2002.2589쪽.

¹⁴⁸ 정운길. 새로운국어사전국어문학회감수. 민중서관. -서울, 2002.-968쪽.

¹⁴⁹ 남행완. Iqtisodiy so'zlar jamlanmasi.- T. 2012. B. 363.

¹⁵⁰ 김병일. 우즈베키어-한국어 사전사마르칸드국립외국어대학교.- 서울, 2008.388쪽.

Respublikasi hududida uyushmalar, konsernlar, korporatsiyalar, konsorsiumlar va boshqa xo‘jalik birlashmalari tashkil etishi, amal qilib turgan birlashmalar tarkibiga to‘la huquqli a'zo sifatida kirishi mumkin”¹⁵¹.

“Предприятия с иностранными инвестициями в соответствии с законодательством Республики Узбекистан могут на добровольных началах создавать на территории Республики Узбекистан ассоциации, концерны, Корпорации консорциумы и другие хозяйственные объединения, а также входить в качестве полноправного члена в действующие объединения”¹⁵².

“우즈베키스탄 공화국의 법령에 따라 외국인투자기업은 임의로 조합, 기업제휴, 합작회사 및 기타 경제 연합을 설립할 수 있으며, 기존의 연합에 정식 구성원으로서 포함될 수 있다”¹⁵³.

“EIIZ faoliyati davomida uning hududida alohida bojxona, valuta va soliq rejimlari, O‘zbekiston Respublikasi norezident fuqarolarining uning hududiga kirish, hududda bo‘lish va chiqib ketishning, shuningdek, ular tomonidan mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsatnomalar olishning soddalashtirilgan tartibi joriy etiladi”¹⁵⁴.

“В течение срока функционирования СИЭЗ на ее территории действуют особый таможенный, валютный и налоговый режимы, упрощенный порядок въезда, пребывания и выезда, а также получения разрешения на осуществление трудовой деятельности гражданами – нерезидентами Республики Узбекистан”¹⁵⁵

¹⁵¹ «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni.-T., 1998.04.30. 609-I-son.8-modda.

¹⁵² Закон Республики Узбекистан "Об иностранных инвестициях" от 30 апреля 1998 года №609-I. Статья 8.

¹⁵³ "외국인의 투자"에 관한 우즈베키스탄공화국 법률 1998년 4월 30일, 제 609-1호. 제 8조.

¹⁵⁴ “Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.-T., 2008.

¹⁵⁵ Указ Президента Республики Узбекистан 02.12.2008 Г. N Уп-4059 О Создании Свободной Индустриально-Экономической Зоны В Навоийской Области.

“운영기간 동안 경제특구 내에서는 특별한 관세, 통화, 조세 제도와 우즈베키스탄공화국 비거주시민의 출입국, 체류, 근로활동허가의 획득에 관한 간소화된 절차가 적용된다¹⁵⁶”

Matnda “EIZ” – erkin industrial-iqtisodiy zona tushunchasi rus tiliga ham xuddi shu mazmunda (СИЭЗ) o‘g‘irilgan bo‘lsa, koreys tilidagi tarjimada “경제특구” – ya’ni maxsus iqtisodiy hudud¹⁵⁷” yo‘li bilan o‘g‘irilgan.

Bojxona rejimi – таможенный режим – 관세제도

valuta rejimi – валютный режим – 통화제도

soliq rejimi – налоговый режим – 조세 제도

norezident fuqaro – нерезидент граждан – 비거주시민

“Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zona direksiyasi xo‘jalik yurituvchi subyektlarga EIZ hududida yer uchastkalarini subijaraga topshirish, o‘z huquq va majburiyatlarini ijara shartnomasi bo‘yicha boshqa shaxsga berish, ijara huquqini garovga qo‘yish, ularni ulush sifatida ustav kapitaliga qo‘shish huquqsiz ijaraga beradi. EIZ hududida yer uchastkalarini sotish va boshqacha tarzda o‘zgaga berish taqiqlanadi¹⁵⁸”.

“Дирекция СИЭЗ предоставляет хозяйствующим субъектам земельные участки на территории СИЭЗ в аренду без права сдачи их в субаренду, передачи своих прав и обязанностей по договору аренды другому лицу, передачи арендного права в залог, внесения их в качестве вклада в уставный капитал. Продажа и иное отчуждение земельных участков на территории СИЭЗ запрещается”¹⁵⁹

“경제특구 관리단은 경제주체들에게 경제특구 영토의 토지구획을 임대권을 부여한다. 단 이 임대권은 전대차, 임대차계약상의 권리 의무의 제3자 이전, 담보로서

¹⁵⁶ “나보이”주 산업경제자유지역 설치에 관한 우즈베키스탄공화국 대통령령 2008. 제UP-4059호.

¹⁵⁷ 남행완. Iqtisodiy so‘zlar jamlanmasi.-T., 2012. B. 294.

¹⁵⁸ “Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.-T., 2008.

¹⁵⁹ Указ Президента Республики Узбекистан 02.12.2008 Г. N Уп-4059 О Создании Свободной Индустриально-Экономической Зоны В Навоийской Области.

임대권의 제공, 승인된 자본금으로서의 납입을 할 권리가 없는 권리이다. 경제특구 영토의 토지구획에 대한 매도 또는 기타 처분은 금지된다”¹⁶⁰.

전대차 (轉貸借) – 임차인으로부터 빌려 온 물건을 제삼자인 전차인에게 다시 빌려 주는 일. Subliase¹⁶¹. Subijarachi.

임대차계약 (賃貸借契約) – 당사자의 한쪽이 상대방에게 일정한 동산이나 부동산을 이용, 수익하게 하고 이에 대해서 그 상대방이 임대료를 치를 것을 내용으로 하는 계약. Lease¹⁶². Lizing shartnomasi

담보 (擔保) – 채무자가 그 채무를 이행하지 않을 경우, 채권자에게 제공되어 채권의 변제를 확보할 수단이 되는 것. Appraise¹⁶³. Garov.

매도 (賣渡) – 물건을 팔아 넘김. sales and delivery¹⁶⁴. Sotish.

처분 (處分) – 처리하여 다름. Management¹⁶⁵. Boshqaruv.

“Muljni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarida ko‘plab xalqaro tashkilotlar, chunonchi YUNIDO faol qatnashmoqda. Uning yordamida uchta biznes-inkubator tashkil etildi. Yevropa Hamjamiyati Komissiyasi Amaliy aloqalar markazini tashkil etdi. Nemis texnikaviy ko‘maklashuv jamiyati (GTC) tomonidan ochildi. Markaziy Osiyodagi Amerika tadbirkorlik fondi va Markaziy Osiyo investitsiya fondi (Buyuk Britaniya) faol ish olib bormoqda. Ular keng ko‘lamda maslahat xizmatini ko‘rsatmoqda va kadrlar tayyorlashni tashkil etmoqda”¹⁶⁶.

“많은 수의 국제 기구가 탈 중앙 집중화와 사유화 과정에 적극적으로 참여하고 있는데 그 중에 UNIDO는 세 가지 산업의 산파 역할을 설립하는 데 도움을 주었다. 유럽 지역 위원회는 비즈니스 센터를, 독일 기술 지원 협회는 중소기업 진흥을 위한 센터를 건립하였다. 미국 비즈니스 협회와 영국 중앙 아시아 투자 기금도 중앙 아시아

¹⁶⁰ "나보이"주 산업경제자유지역 설치에 관한 우즈베키스탄공화국 대통령령 2008. 제UP-4059호.

¹⁶¹ 정운길. 새로운국어사전국어문화회감수. 민중서관. 서울, 2002.-2156쪽.

¹⁶² 정운길. 새로운국어사전국어문화회감수. 민중서관. 서울, 2002.-2040쪽.

¹⁶³ 정운길. 새로운국어사전국어문화회감수. 민중서관. 서울, 2002.-608쪽.

¹⁶⁴ 정운길. 새로운국어사전국어문화회감수. 민중서관. 서울, 2002.-846쪽.

¹⁶⁵ 정운길. 새로운국어사전국어문화회감수. 민중서관. 서울, 2002.-2409쪽.

¹⁶⁶ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. T., 1996. B. 213.

지역에서 활발한 활동을 벌이며 광범위한 컨설팅 서비스를 제공하고 인력양성을 돕고 있다”¹⁶⁷.

3-bob bo‘yicha xulosalar

1. Iqtisodiy tarjima – bu iqtisodiy xarakterga ega bo‘lgan matnni o‘g‘irish demakdir. Bunday matnlar sirasiga buxgalterlik, auditorlik ishi, marketing, ishchi hisobotlar, bank hisobotlari, biznes planlar va hokazolarni qamrab oladi.
2. Tarjimon uchun iqtisodiy matnlarni tarjima qilishda quyidagilar muhim xususiyatlardan bo‘lib sanaladi: maxsus iqtisodiy leksik birliklarga boy bo‘lgan, terminlardan iborat, iqtisodiy va moliyaviy manba ekanligi; korxonalar, tashkilot, uyushma, muassasalarning nomlari hamda raqamlar, formulalar, jadvallarning mo‘lligi; rasmiy egaga nisbatan passiv munosabatning bayon etish ko‘rinishlari; murakkab so‘z va so‘z birikmalari, frazeologizmlarga boyligi; turli terminologik qisqartmaga egaligi.
3. Iqtisodiy tarjima iqtisodiy terminlarni tarjima qilishning o‘ziga xosliklari: matnning axborot beruvchanligi hamda terminlarning mazmunga boyligi; bayon etishning har doim ham standart emasligi; metaforalardan keng foydalanish; frazeologik birikmalarning keng tarqalganligi.
4. Iqtisodiy matnlarni tarjima qilish jarayonida obyektivlik, mantiqiylik va aniqlik dominantdir. Tarjimada transkripsiya, transliteratsiya, kalkalamoq, konkretizatsiya, generalizatsiya, modulyatsiya, orttirish, tushirib qoldirish, ajratish, gaplarni birlashtirish, antonimik tarjima, kompensatsiya kabi transformatsiyalardan foydalaniladi.
5. Iqtisodiyotga oid so‘zlar, so‘z birikmalarida ko‘plab qisqartmalarni uchratish mumkin. Koreys tilida harfiy qisqartmalar uchramaydi. Faqatgina o‘sha mazmuni anglatuvchi inglizcha harfiy qisqartmalar bo‘lishi mumkin. Koreys tilida turli atamalar, tashkilot nomlari inglizcha qisqartmalar orqali ifodalanadi.
6. Sof koreys tilida esa bo‘g‘inli qisqartmalar uchraydi. Bunda so‘z birikmalarining bosh bo‘g‘inlari olinadi. Aslida bo‘g‘inlarning o‘zi bir

¹⁶⁷이슬롬 카리모프. 우즈베키스탄의 경제개혁. 34 쪽.

mazmunga ega bo‘lib, uning asosi xitoy iyerogliflari (kalitlari) hisoblanadi. Shuning uchun so‘z birikmasi qisqartirilgan taqdirda ham undan mazmun aniq ko‘zga tashlanib turadi.

7. Iqtisodiyotga oid matn tarjimasida korxon-tashkilot nomlari transliteratsiya usuli bilan berilgan. Iqtisodiyotga oid matn tarjimasida ba’zi o‘rinlarda so‘z, so‘z birikmasi ibora bilan berilish holatlari kuzatildi (“xususiylashtirish jarayoni avj oldi” – tarjimada “사유화 과정이 전기를 맞았다”, ya’ni xususiylashtirish jarayoni “elektr tokiga urildi” yoki “tok urdi”). Iqtisodiy matnlarni tarjima qiluvchi tarjimon birinchi navbatda mos leksikani mukammal egallagan bo‘lishi lozim.

XULOSA

“Iqtisodiyotga oid matnlar tarjimasi va uning o‘ziga xosliklari (koreys va o‘zbek tillari misolida)” mavzuidagi mazkur tadqiqot ishini amalga oshirish jarayonida quyidagi xulosa va natijalarga erishildi:

1. Mavzuni o‘rganish jarayonida, eng avvalo shu kabi mavzularni tadqiq qilgan tadqiqotchi-mutaxassislar va ularning ishlari atroflicha o‘rganib chiqildi. Buning natijasida bu mavzu o‘zbek va koreys tilida yetarlicha tadqiq etilmagani, rus tili, ingliz tilida esa bu borada ko‘p izlanishlar olib borilganligi aniqlandi.
2. Iqtisodiyotga oid matnlar tarjimasini tahlil qilish uchun birinchi navbatda matn tushunchasi, uning turlariga to‘xtalib o‘tish zarur. Bundan tashqari umumiy tilshunoslik bilan bog‘liq tarzda termin va ularning turlari, diskurs masalasi ham ko‘rib chiqildi.
3. Iqtisodiyotga oid matnlarni matnlarning maxsus matnlar turiga kiritish mumkin. Maxsus matnlar sirasiga turli sohalarga oid matnlar kiritiladi.
4. Iqtisodiy diskurs – ma‘lum bir iqtisodiy fikrlar jarayonida yuzaga keladigan diskurs tipidir. Iqtisodiy diskursning aspektlari tovar, pul, foyda, bozor, investitsiya, iqtisodiyot, iqtisodiy faoliyat kabi bazaviy tushunchalardan iborat.
5. Iqtisodiy tarjima – bu iqtisodiy xarakterga ega bo‘lgan matnni o‘girish demakdir. Bunday matnlar buxgalterlik, auditorlik ishi, marketing, ishchi hisobotlar, bank hisobotlari, biznes planlar va hokazolarni qamrab oladi. Chet el hamkorlari bilan iqtisodiy munosabatga kirishilganda iqtisodiy tarjima muhim sanaladi. Shu sababli mahorat bilan bajarilgan iqtisodiy tarjima xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muvaffaqiyatli amalga oshishida muhim ajralmas bo‘lak bo‘lib hisoblanadi.
6. Iqtisodiy terminologiya borasidagi dastlabki ish J. Dosmuxamedovning “Общая характеристика терминов полит-экономики основные способы их образования в современном узбекской языке” (1974) va qozoq tilshunosi

M.R. Nasirovaning “Социально-экономическая терминология в современном казахском языке” (1969) nomzodlik ishlaridir.

7. H. Dadaboyev “XI-XIV asrlar turkiy tillar yozma yodgorliklaridagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial iqtisodiy terminologiya” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

8. Iqtisodiy terminlar orasida sinonimiya masalasi tilshunoslar uchun ham, tarjimonlar uchun ham muhim o‘rinni egallaydi. Chunki iqtisodiyotga oid matnlar iqtisodiyotning qaysi tarmog‘iga tegishli ekanligiga qarab leksik va grammatik birliklar tanlanadi. Ayniqsa koreys tilida sinonimiya birmuncha murakkabdir. Mazmuni bir qo‘llanilishi turli xil yoki umuman qo‘llanilishi ham bir xil bo‘lgan leksik va grammatik vositalar talaygina. O‘zbek tilidan koreys tiliga tarjima qilishda bu eng murakkab muammodir.

9. O‘zbek tilida iqtisodiy terminlar morfologik, semantik va sintaktik usulda yasaladi.

10. O‘zbek iqtisodiyot terminologiyasi asosan, ikki manba: o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari va xorijiy tillar unsurlari asosida rivojlanib, boyib borgan.

11. Koreys tilida “termin” so‘zi ikki ko‘rinishga ega: biri “학술어” (Xaksuro) – (학술 연구상의 특정한 뜻으로 쓰이는 전문적인 용어 – technical terms) ilm-fan va texnik yo‘nalishlarda qo‘llaniladigan maxsus so‘zlar bo‘lsa, ikkinchisi “용어” (Yongo) – (일상 생활에 쓰는 말-a term) kundalik hayotda qo‘llaniladigan so‘zlar bo‘lib, u yoki bu sohalarda ishlatiladi.

12. Koreys tilshunosligida terminlar qat’iy chegaralanmagan. Chunki ular faqatgina tizimlashtirilgan va unifikatsiya qilingan, nazariy analiz qilinmagan.

Koreys tilidagi iqtisodiyotga oid terminlarni uchga bo‘lib tahlil qilish mumkin.

- Sof koreyscha terminlar
- Xitoy iyerogliflari asosidagi terminlar
- Ingliz tilidan qabul qilingan terminlar.

13. Iqtisodiyotga oid so‘zlar, so‘z birikmalarida ko‘plab qisqartmalarni uchratish mumkin.

14. Koreys tilida harfiy qisqartmalar uchramaydi. Faqatgina o'sha mazmuni anglatuvchi inglizcha harfiy qisqartmalar bo'lishi mumkin. Koreys tilida turli atamalar, tashkilot nomlari inglizcha qisqartmalar orqali ifodalanadi.

15. Koreys tilida esa bo'g'inli qisqartmalar uchraydi. Bunda so'z birikmalarining bosh bo'g'inlari olinadi. Aslida bo'g'inlarning o'zi bir mazmunga ega bo'lib, uning asosi xitoy iyerogliflari (kalitlari) hisoblanadi. Shuning uchun so'z birikmasi qisqartirilgan taqdirda ham undan mazmun aniq ko'zga tashlanib turadi.

16. Tarjimonlik faoliyatida har bir sohaning o'z terminologiyasi hamda sintagmalarini mukammal o'rganishi katta ahamiyatga molikdir. Sintagma – bu (yunon. Syntagma – birlashgan narsa) nutqning mazmun va ritmik-melodik jihatdan bir butunlikni hosil etuvchi semantik-sintaktik bo'lagi. Sintagma bir yoki undan ortiq so'zdan iborat bo'lishi, hatto gapga teng bo'lish mumkin.

17. Tarjima jarayonida tarjimon oldida turgan eng katta muammolardan biri ekvivalentlarning tanlanish masalasidir. “Ekvivalent” termini zamonaviy tarjima nazariyasiga XX asr o'rtalarida A.D.Shveyser tomonidan kiritilgan bo'lishiga qaramay, fransuz tilida “ekvivalent” (equivalent) atamasi XIX asrning 1864-yillarida aynan tilshunoslik bilan bog'liq tushuncha hisoblanib kelingan. Jumladan, R. Yakobson fransuz olimi Bodler (1821-1867) tadqiqotlarida bunday holatni uchratganligini ta'kidlab o'tgan.

18. Tarjimashunoslikda ekvivalentlikning sinonimlari bo'lib, ular, tenglik, muqobillik, muvofiqlik yoki muvozanat, o'xshashlik hamda adekvatlikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari:

1. “Chet el investitsiyalari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining qonuni.- T., 1998.04.30. 609-I-son.
2. Закон Республики Узбекистан "Об иностранных инвестициях" от 30 апреля 1998 года №609-I.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari,

Vazirlar Mahkamasining qarorlari:

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 dekabrdaqi “Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida”gi PQ-4059 sonli farmoni.
4. Указ Президента о создании СИЭЗ в Нав.области №УП-4059 от 02.12.2009г.

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari:

5. Karimov I. A. Jahon moliyaviy inqirozi va uni O'zbekiston sharoitida yengish yo'llari. – T.: “O'zbekiston”, 2008.-30 b.
6. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – T.: “O'zbekiston”, 2007.-108 b.
7. Karimov I. A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarilish sari. 18-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2010.-168 b.
8. Каримов И.А. “Ватан саждагоҳ каби мукаддасдир”. 3-жилд. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. – T.: Ўзбекистон, 1996. 175-367 б.
9. Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1 жилд. – T.: Ўзбекистон, 1996. -358 б.
10. Каримов И. А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-кудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродаимизга боғлиқ. 12 жилд. . – T.: Ўзбекистон, 2004. -400 б.

IV. Ilmiy adabiyotlar:

O‘zbek tilida:

11. Akobirov S. Til va terminologiya. -T., 1968.
12. Allayorova R.R. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Ma’ruza matni.-T., 2008.
13. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek tilining leksik qatlamlari. – T., 1985.
14. Bektemirov X., E.Begmatov. Mustaqillik davri atamaları. –T.,2002.
15. Dolimov Shokir Zokirovich. Tarjima san’ati va muammolari.-T., 2008.
16. Doniyorov R. O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari.-T.,1977.
17. Hakimov M.X. O‘zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari.-T., 1993.
18. Husanov N. Mirahmedova Z.. Iqtisodiy atamalar va ish yuritish” fani ma’ruza matni .-T.: TMI, 2005.
19. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. – T., Yangi asr avlodi, 2009.
20. Jamoa. Tarjima jarayoni va xorijiy tillar o‘qitishning dolzarb muammolari. Samarqand davlat chet tillari universiteti.-S., 2006.
21. Ne’matov H., Bozorov O. Til va nutq. -T., 1993. B.23.
22. Nosirova S. A. Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminlarining leksik-semantik va struktur tahlili.-T., 2008.
23. Tursunov U. O‘zbek terminologiyasi masalalari. –Toshkent, 1933.
24. Xolbekov M. Tarjima amaliyoti: yutuqlar va muammolar.-T., 2012.
25. Yo‘ldoshev M., Isoqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. T., 2010.
26. Zaynutdinov Z. F. O‘zbek tilidan xitoy tiliga siyosiy matnlar tarjimasini va uning o‘ziga xosliklari.-T., 2013.
27. Дадабоев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в туркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв.– T., 1994.
28. Сирожиддинов Ш. Бадий таржима асослари.–T., 2011.

29. Мусаев Қ., Таржима назарияси асослари, дарслик. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ФА “Фан” нашриёти, 2005. – 352 б.

Rus tilida:

30. Карасик В.И. Языковой круг. Личность. Концепты. Дискурс. - М., Гнозис, 2004.

31. Агаркова Н.Э. Концепт деньги как фрагмент английской языковой картины мира (на материале американского варианта английского языка): дис. канд.филол. наук. - Иркутск, 2001.

32. Виноградов В.В. Введение в переводоведение: Общие и лексические вопросы.– М., 2001.

33. Довбыш О.В. Английская финансовая терминология и проблемы ее перевода на русский язык (На материале годовых финансовых отчетов зарубежных компаний).-М., 2003.

34. Ерогова А.М. Теория и практика перевода экономических текстов с английского языка на русский.- М., 1986.

35. Иванов А.О. Безэквивалентная лексика. – М., 2006.

36. Каплина А.С. Межкультурные особенности экономического текста и трудности его перевода.-М., 2012.

37. Карасик В.И. О типах дискурса. Языковая личность: институциональный и персональный дискурс / В.И. Карасик// Сб. науч.тр.- В., 2000.

38. Кибрик А., Паршин П. О понятии дискурс.-М., 2003.

39. Ким В.Н., Ким Т.С. Социально-политическая терминология, учебное пособие. Ташкент. 2009.

40. Кинчина Е. В. Когнитивные аспекты перевода экономических терминов: На материале английского и русского языков/ дисс.- Краснодар, 1999.

41. Кланцакова, А.Ю. Метафора в структуре экономического дискурса: опыт комплексного исследования (на материале английского языка). дис. канд.филол. наук. - Иркутск, 2003.

42. Комиссаров, В.Н. Пособие по переводу с английского языка на русский.-М., 1975.
43. Костомаров В.Г. Лингвострановедческая теория слова. -М., 1980.
44. Лесникова Ж.В. Способы перевода терминов с английского языка на русский (на материале экономических текстов). - М., 2010.
45. Мыркин В.Я. Текст, подтекст и контекст. - М.: ВШ, 1976.
46. Потебня А. А. Из записок по русской грамматике. – М.,1958.
47. Похолкова Е.А. Современная экономическая терминология в Республике Корея: лингвистический анализ. - М., 2007.
48. Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика.– М., 1974.
49. Садовская М. В. Лингвопрагматическое описание экономических текстов/ дисс.-М., 2010.
50. Стрелецкая И.В. Языковые особенности перевода экономических текстов с английского языка на русский. -М., 2012.
51. Шулюкина Т. С. К вопросу перевода экономических терминов (на материале английского и русского языков).- М., 2011.
52. Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность.-Л., 1974.
53. Якобсон Р., Лингвистические аспекты перевода – М., 1959.

Ingliz tilida:

54. Academia Romana, Institutul de Lingvistica “Iorgu Iordan”, Micul dictionar academic, Univers encyclopedic.-P., 2002.
55. Crystal, David, English as a global language. - E., Cambridge University Press, 1997.
56. Halliday M.A.K., R Hasan. Language, context and text: Aspect of Language in a Social - Semiotic Perspective. - O., 1991. P.126.
57. Holmes, J.S., The name and nature of translation studies. Third international congress of applied, linguistics. Copenhagen, 1999.
58. Karimov. I. A. The global financial-economic crisis, ways and measures to overcome it in the conditions of Uzbekistan. – T., 2008.-13 p.

59. Lefevere, Andrew, Translation, Rewriting, and the Manipulation, London and New York: Routledge, 1992.
60. Lewis, M. M. Language in Society.-L. Nelson, 1974.
61. Long, L., Discarding illusions for practical work. Linguistic journal, 22, 1996.
62. Newmark, Peter, A Textbook of Translation. London and New York: Prentice Hall. International.-UK., 1998.-53 p.
63. Nida, Eugene A., Charles R., The Theory and Practice of Translation. – L., 1969. – P.185.
64. Sim Monica Ariana. Managing problems when translating economic texts. Pop Anamaria Mirabela. University of Oradea Faculty of Economics.-I., 2004.-152-158 p.

Koreys tilida:

65. 강 창 구. 문학 번역의 문제. -서울, 2012.
66. 국제 컨퍼런스. 글로벌 금융-경제 위기, 우즈베키스탄이 처한 환경안에서 이를 극복하는 방법과 대책들 (이슬람 카리모프 대통령의 저서에 기반하여).-타슈켄트.-서울, 2009.-216 쪽.
67. 김준동·강준구·김혁황·김민성·이성봉. 국내 외국인직접투자의 경제적 효과 및 투자환경 개선방안. 연구보고서 09-04.KIEP 대외 경제 정책 연구원. 서울, 2009.
68. 김한식 .일한 번역에 나타난 번역투 문장. 한국외국어대학교 통번역대학원 한일과 교수. -서울, 2007.
69. 남태현. 실무자를 위한 새 한글 맞춤법 띄어쓰기와 교정의 실제. 서울.연암 출판사., 1999.-99 쪽.
70. 류현주. 번역투와 번역자투, 번역학 연구. 제 10권 제 2호, 7~22, 한국 번역학회. -서울, 2009.
71. 심재기. 최근 문학번역 이론의 흐름과 번역비평의 나아갈 길. 번역연구. 제 1 집. -서울, 1993.
72. 유명우. 한국의 번역과 번역학.번역학연구. 창간호. -서울, 2000.
73. 유종호. 시와 번역. 문학이란 무엇인가. 민음사. -서울, 2001.
74. 이명박. 신화는 없다. 민중의 소리. 김영사.- 서울, 2009.

75. 이상섭. 외국어문학 교육에 있어서 번역 훈련의 필요성. 번역연구. 제 4 집. -서울, 1996.

76. 정영옥. 번역투와 번역품질 제고 방안. 부산외국어대학교 석사학위 논문. -서울, 2010.

V. Manbalar:

77. Nam Haeng wan, O. Haqberdiyev, R. Sherov. O'zbekcha – ruscha – koreyscha – inglizcha iqtisodiy so'zlar jamlanmasi.-T., 2012.

78. "외국인의 투자"에 관한 우즈베키스탄공화국 법률 1998년 4월 30일, 제 609-1호.

79. 박노형. 우즈베키스탄 기업 투자 법제 연구.-서울.-2009.-184쪽.

80. 새로운 국어사전. 정운길. 국어문학회 감수. 민중서관.-서울, 2002.

81. 새한노사전. 한국외국어대학교출판부.-서울, 2006.

82. 우즈베크어 한국어사전. 김병일. 사마르칸드 국립외국어대학교.- 서울, 2008.

83. 이슬롬 카리모프. 우즈베키스탄의 경제개혁. 127쪽.

84. 최신 한국어-러시아어사전. 감수: 김문옥, 편저자: 김춘식. 문예림.-서울, 2009.

VI. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar:

85. Имяминова Ш.С. Адекват таржимага эришиш тамойиллари. // Бадиий таржима тилшунослик, адабиётшунослик ва маданиятлараро алоқалар контекстида. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Жиззах: ЖДПИ, 2011. Б. 81.

86. Гофуров И. Таржимада аниқлик керакмасми? // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2010, № 2.

VII. Foydalanilgan internet saytlari:

www.daum.net.

www.google.com

www.google.ru

www.kokch.kts.ru/cdo/index.html

www.naver.com

www.organization.kr.or

www.poetarium.narod.ru

www.riss.co.kr

www.teenkorean.co.kr